

81
834

M.O.SATTOROV, A.A.YAMALETDINOVA
Q.Q.SHARIPOV

NEFT VA GAZ ISHI ATAMALARINING
IZOHЛИ LUG'ATI



A•Z

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

*Sattorov M.O., Yamaletdinova A.A.,
Sharipov Q.Q.*

NEFT VA GAZ ISHI ATAMALARINING IZOHLI LUG'ATI

O'OUV QO'LLANMA

*(Oliy ta'larning 5311900-Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan
foydalanish, 5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi bakalavriatura ta'lim
yo'nalishlari hamda 5A311902-Neft va gaz konlari mashina va jihozlaridan
foydalanish magistratura mutaxassisligi talabalari uchun)*

BUXORO-2020
«DURDONA» NASHRIYOTI

35.514-4 я7

621.6.028(038)

S 34

To'xtayeva, Z.SH.

Neft va gaz ishi atamalarining izohli lug'ati [Matn] :o'quv qo'llanma / Sattorov M.O., Yamaletdinova A.A., Sharipov Q.Q.- Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. - 160 b.

КБК 35.514-4 я7

УЎК 621.6.028(038)

Taqrizchilar:

Rajabov A.S.

- Gazli neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi bosh muhandisi

Sharopova N.O.

- Neftgaztadqiqot AJ bo'lim boshlig'i

Safarov B.J.

- BuxMTI "Neftni qayta ishlash texnologiyasi" kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Ushbu o'quv qo'llanmada neft va gazni qidirib topishdan tortib uni qayta ishlash orqali turli mahsulotlar olishgacha bo'lgan tizimda uchraydigan atamalarning o'zbek, rus va ingлиз tilida nomlanishi hamda o'zbek tilidagi izohlanishi keltirilgan.

O'quv qo'llanmadan 5311900-Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish, 5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi bakalaviatura ta'lim yo'nalishlari hamda 5A311902-Neft va gaz konlari mashina va jihozlaridan foydalanish magistratura mutaxassisligi talabalari, shuningdek turdosh ta'lim yo'nalishlar va mutaxassisliklarning talabalari, doktorantlar, tadqiqotchilar, soha ishlab chiqarish korxonalarining xodimlari foydalanishlari mumkin.

Mazkur o'quv qo'llanma Otiy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Buxoro Muhandislik Texnologiya Institutining 2020 yil 1-iyundagi 9-solli buyrug'iiga asosan nashr qilishga ruxsat etilgan.

ISBN 978-9943-6894-0-4

© Sattorov M.O.

*REESTR
84745*

KIRISH

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ta'lim tizimi hamda neft va gaz sohasini rivojlantirishda bir qancha salmoqli ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-ton qarori, "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018 yil 15 iyundagi PQ-3775-tonli qarori, 2020-yil 4-apreldagi "Neft-gaz tarmog'ining moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4664-ton qarorida keltirilgan muhim vazifalarni ijrosini ta'minlash bugungi kunda har bir rahbar va xodimning yangi O'zbekistonni bunyod etish yo'lidagi muqaddas burchi sanaladi.

Neft va gaz sohasi zamonaviy texnologiyalarini yuqori malakali mutaxassislarsiz o'zlashtirish mushkul hisoblanadi. Oliy ta'limning 5311900-Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish, 5321400-Neft-gazkimyo sanoati texnologiyasi ta'lim yo'nalishlari talabalariga mutaxassislik fanlaridan adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarni yanada yuqori darajada o'zlashtirish, o'z navbatida, asosiy tayanch tushunchalar, so'z iboralari va atamalar haqida yetarlicha bilimga ega bo'lishlikka bog'liq hisoblanadi. Bugungi kunga qadar o'zbek tilida yaratilgan lug'atlar biroz eskirgani, fan, texnika va ta'limga

yangi atamalarning kirib kelganligi kafedra professor-o'qituvchilarning bu adabiyotni yaratishiga sabab bo'lgan.

Ushbu qo'llanma aynan shu yo'nalishdagi zamonaviy xorijiy adabiyotlar tahlili va mahalliy korxonalarimizda qo'llanilayotgan texnologiyalar tahlili asosida yaratilgan bo'lib, neft va gazni izlab topish, quduqlarni qurish, burg'ilash, uglevodorodlarni qazib chiqarish, yig'ish, tayyorlash, transport qilish, qayta ishlash tarmoqlarining asosiy atamalarining o'zbek, rus va ingliz tilidagi nomlanishi, izohi keltirilgan bo'lib, bu qo'llanmadan foydalanuvchilar uchun yanada kengroq ma'lumotlarga ega bo'lishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, neft va gaz sanoatida uchraydigan qisqartmalar orqali u yoki bu adabiyotlardagi o'quv materiallarini puxta o'zlashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Ilovalarda xalqaro birliklar tizimining asosiy va hosilaviy kattaliklari, turli gazlarning xususiyatlari, Mendeleev davriy tizimi, neft va gaz sohasida zarur ma'lumotlar keltirilgan.

O'quv qo'llanma ba'zi kamchiliklardan holi emas. Kitobxonlarning ushbu qo'llanmani o'qish orqali duch kelgan kamchiliklarni ko'rsatgan holdagi murojaatini mualliflar chin qalbdan qabul qiladi.

QISQARTMALAR

ABTB (OACU)		
avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi bo'limi		
ABU (AOK) - absorbsion bug'-latish ustuni		
AGO'Q (АГЗУ) -		
avtomatlashtirilgan guruhli o'lchov qurilmalari		
AGTKS (АГКНС)		
avtobillarga gaz to'ldirish kompressor stansiyasi		
ASPYo (АСПО) - asfalt-smola-parafin yotqizig'i		
APQB (АНПД) – anomal past qatlam bosimi		
AYOQSH (АЗС) - avto yoqilg'i quyish shoxobchasi		
AYUQB (АВПД) – anomal yuqori qatlam bosimi		
BNHS (ГНС) - bosh neft haydash stansiyasi		
BNS (ГНС) - bosh nasos stansiya		
BQ (СТ) - bog'lovchi quvuruzatgich		
DEA (ДЭА) - dietanolamin		
DEG (ДЭГ) - dietilenglikol		
DIPA (ДИПА) - diizopropanolamin		
DORQ (УОРД) - dietilenglikolni olovli regeneratsiyalash qurilmasi		
DT (ДЗ) - dispetcherlik topshirig'i		
DYO (ДТ) - dizel yoqilg'isi		
EKH (ЭХЗ) - elektr kimyoviy himoya		
ETSQ (ЭЛОУ) - elektr tuzsizlantirish va suvsizlantirish qurilmasi		
F.I.K. (К.П.Д.) - foydali ish koefitsiyenti		
FMK (КФР) - fazaviy muvozanat konstantasi		
GAFQ (АГФУ) - gazlarni absorbsion fraksiyalash qurilmasi		
GBA (ГБА) - gaz balloonli avtobillar		
GBTQ (УППГ) - gazni birlamchi tayyorlash qurilmasi		
GHA (ГПА) - gaz haydash agregati		
GKTQ - gazni kompleks tayyorlash qurilmasi		
GYMO (ГМТ) - gaz motor yoqilg'isi		
GO'Q (УКПГ) - guruhli o'lchov qurilmalari		
GO'T (ГИС) - gaz o'lchov tizimlari		
GPHAQ (УНТСГ) - gazni past haroratlari ajratish qurilmasi		
GQIZ (ГПЗ) - gazni qayta ishlash zavodi		
GTQ (УПГ) - gazni tayyorlash qurilmasi		
GYOSS (СПХГ) - gazni yer ostida saqlash stansiyasi		
HAQ (АБО) - havoli sovutish qurilmasi		
HTJ (АВБ) - halokat-tiklash bo'limi		

- HTS (АВП)** - halokat-tiklash saroyi
- IO'Q (ИЗУ)** - individual o'lchov qurilmalari
- IYOD (ДВС)** - ichki yonuv dvigateli
- KHS (CK3)** - katodli himoya stansiyasi
- KNS(ShNS) (KHC)** - ko'pqatorli (shoxobi) nasos stansiya
- KT (KP)** - kapital ta'mir
- KTQ (УПК)** - kondensatni tayyorlash qurilmasi
- MAB (БМА)** - mahalliy avtomatika bloki
- MDEA (МДЭА)** – metildietanolamin
- MDP (ЦДП)** - markaziy dispercherlik punkti
- MEA (МЭА)** - monoetanolamin
- MQ (MT)** - magistral quvuruzatgich
- MQEN (ЭЦН)** - markazdan qochma elektr nasos
- MXB (AXO)** - ma'muriy-xo'jalik bo'limi
- MYP (ЦСП)** - markaziy yig'uv punkti
- NB (НБ)** - neft bazasi
- NBK (KH)** - neft beruvchanlik koeffitsiyenti
- NBT (CKУ)** - nazorat boshqaruv tizimi
- NKQ (HKT)** - nasos-kompressor quvuri
- NKTQ (УКПН)** - neftni kompleks tayyorlash qurilmasi
- NM (НП)** - neft mahsuloti
- NMQOP (КПНП)** - neft mahsuloti quvuri oxirgi punkti
- NO'A (КИП)** - nazorat-o'lchov asboblari
- NOK (КИН)** - neft olish koeffitsiyenti
- NQIZ (НПЗ)-neftni qayta ishlash zavodi**
- NTQ (УПН)** - neftni tayyorlash qurilmasi
- NYP (СПН)** - neft yig'ish punkti
- OHS (ППС)** - oraliq haydash stansiyasi
- PHK (HTK)** - past haroratli kondensatsiya
- PHS (HTC)** - past haroratli separatsiya
- PTPR (РВСП)** - pontonli tik po'lat rezervuar
- QBS (ППД)** - qatlam bosimini saqlash
- QGYo (ГРП)** - qatlamni gidravlik yorish
- QQAQ (УСТН)** – qiya quvurli ajratish qurilmasi
- QT (ТПС)** - quvuruzatgich tizimi
- REK (ПДК)** - ruxsat etilgan konentratsiya
- RET (ПДВ)** - ruxsat etilgan tashlama
- RS (ПР)** - rezervuarlar saroyi
- RSBT (СУ РП)** - rezervuar saroyi boshqaruv tizimi
- RXB (БРХ)** - reagent xo'jaligi bloki
- SBAQ (УПСВ)** - suvni birlamchi ajratish qurilmasi
- SFM (ПИБ)** - sirt-faol modda

- SGA (ГЖС)** - suyuqlik-gaz aralashmasi
- ShChN (ШГН)** - shtangali chuqurlik nasosi
- SHYO (y. т.)** - shartli yoqilg'i
- SKS (ДКС)** - siqvchi kompressor stansiya
- SNE (ВНЭ)** - suv-neft emulsiyasi
- SNG (ЧНГ)** - siqilgan neft gazi
- SNS (ДНС)** - siqvchi nasos stansiya
- SNTYu (BHK)** - suv-neft tutash yuzasi
- SQTPR (РВСПК)** - suzuvchi qopqoqli tik po'lat rezervuar
- SSYO (СЖТ)** - sintetik suyuq yoqil'gi
- STQ (УПВ)** - suvni tayyorlash qurilmasi
- SUG (СУГ)** - suyultirilgan ugle-vodorod gazlari
- TB (РБ)** - tarqatuvchi blok
- TBB (ДНП)** - to'yingan bug'lar bosimi
- TBR (ЖБР)** - temir-beton rezervuar
- TIA (ТЭО)** - texnik-iqtisodiy asosnoma
- TPR (PBC)** - tik po'lat rezervuar
- TRS (ВПИ)** - tashqi rezervuarlar saroyi
- TSh (ТҮ)** - texnik shartlar
- TT (TP)** - texnik ta'mir
- TXT (TOP)** - texnik xizmat va ta'mir
- UV (УВ)** - uglevodorodlar
- YOGO (ПХГ)** - yer osti gaz ombori
- YOMM (ГСМ)** - yonuvchi moylash materiallari
- YOPR (РГС)** - yotiq po'lat rezervuar
- YOTM (TPK)** - yoqilg'i tarqatish majmuasi
- YUKF (ШФЛУ)** - yengil uglevodorodlar keng fraksiyasi
- WTI** - West Texas Intermediate - **AQSH** Texas shtatida qazib olinadigan neft markasi

A

Abissal (рус. Абиссал, ing. Abyssal) - geologiyada dengiz va okean havzalarining eng chuqur qismi (2 km dan ko'proq). Bu hududlar haroratni doimiyligi bilan ajralib turadi ($1-2^{\circ}\text{S}$). Quyosh nurini tanqisligi, bosimni kattaligi hayvonot dunyosiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Abissal yotqiziqlar, asosan, gillardan iborat.

Abissal jins (рус. Абиссальные породы, ing. Abyssal rocks) - katta chuqurliklarda hosil bo'lgan tog' jinslari.

Abissal mintaqa (рус. Абиссальная зона, ing. Abyssal zone) - chuqurligi 2000 metrda ortiq, geologik tuzilishi tarkibida pteropad, globegin, radiolyariyli illar, katta chuqurlikda hosil bo'ladigan qizil illar va turli erimaydigan cho'kindi jinslar ishtirok etadi.

Absolyut harorat (рус. Абсолютная температура, ing. Absolute

temperature) - absolyut nolga nisbatan hisoblanadigan harorat. Kelvinda o'lchanadi. ($0\text{ K} = 273.16^\circ\text{C}$). Masalan, suvning absolyut qaynash harorati $100^\circ\text{C} + 273.16^\circ\text{C} = 373.16\text{K}$.

Absorbat (рус. Абсорбат, ing. Absorbed) - absorbsiya jarayonida absorbentlarda (yutuvchilarda) yutiluvchi moddalar (mas., turli gazsimon chiqindilar). Qar. - Absorbsiya.

Absorbent (рус. Абсорбент, ing. Absorbent) - absorbsiya jarayonida turli absorbatlarni yutib oluvchi modda. Qar. Absorbat, Absorbsiya.

Absorbsiya (рус. Абсорбция, ing. Absorption) - gaz aralashmalari tarkibidan moddalarni qattiq yoki suyuqliklar orqali yutilishi fizik-kimyoviy jarayoni.

Adgeziya (yopishish) (рус. Адгезия (прилипание), ing. Adhesion) - ikki zarracha orasidagi fizikaviy yoki kimyoviy molekulalararo kuchlar ta'sirida ularning o'zaro yopishishi. Ikki suyuqlik, suyuqltik va qattiq jism, ikki qattiq jism orasidagi A. farqlanadi. A. tizimning yuza energiyasini kichraytirishga intilishi natijasi.

Adiabatik jarayon (рус. Адиабативный процесс, ing. Adiabatic process) - jarayonni amalga oshiruvchi tizim (modda, jism va h.k.)

- A.j. atrof-muhit orasidagi

issiqlik o'tkazmaydigan moddalar bilari izolyatsiyalangan tizimlarda amalga oshiriladi. Bunda tizim tashqariga issiqlik ajratib chiqarmaydi va tashqaridan qabul ham qilmaydi. Tez sodir bo'ladigan jarayonlarda tizim bilan atrof-muhit orasida issiqlik almashtinvi o'ta kam miqdorda ro'y beradi. Bunday jarayonlar izolyatsiya qilinmaganda ham adiabatik jarayon deb hisoblanadi. Gazlarda tovushning tarqalishi bunga misol bo'ladi. A.j. qaytariladigan va qaytarilmaydigan bo'ladi.

Qaytariladigan A.j. izoentropiyali hisoblanadi. Qaytarilmaydiganida tizimning entropiyasi oshib ketadi.

Adsorbsion siqib chiqarish (рус. Адсорбционное вытеснение, ing. Adsorption displacement) - neft-suv chegarasida adsorbsiyalangan molekulyar va kolloid emulgatorlarni sirt faol moddalar bilan siqib chiqarish jarayoni.

Adsorbsiya (рус. Адсорбция, ing. Adsorption) - adsorbent yuza qatlamiga gazlar, suyuqliklar va ularda erigan moddalarning yutilishi.

Adsorbsiya suvlari (рус. Воды адсорбции, ing. Water adsorption) - bunday suvlar tog' jinsi yuzasida molekulalarning o'zaro tortishish kuchlari orqali ushlanib turadi;

Aeratsiya mintaqasi (рус. Область аэрации, ing. The area of aeration) – yer yuzasi bilan sizot suvlari orasidagi mintaqasi.

Aeratsiya (рус. Аэрация, ing. Aeration) - geologiya, geografiya, iqlimshunoslikda havo, xususan, kislorod bilan to'yinish. Tuproq, yotqiziqlarni kislorodga to'yinishi. **Aerotenk** (рус. Аэротенк, ing. Aerotank) - oqava suvlarni biologik tozalashda foydalaniладиган qurilma. U ichiga havo haydab turiladigan suv oqib turuvchi birnecha rezervuarlardan iborat.

Aerozol (рус. Аэрозоль ing. Aerosol) – gaz dispersion muhitli kolloid tizim; gaz muhitida (tutun, chang, tuman) muallaq holatda saqlana oladigan mayda qattiq zarrachalar yoki suyuqlik tomchilari.

Aggregat holat (рус. Агрегатное состояние (вещества), ing. Aggregat ivatestate) - Moddalarning fizik holati: qattiq, suyuq, gazsimon.

Aggregativ turg'unlik (рус. Агрегативная устойчивость, ing. Aggregate Resilience) - dispers fazaning globulalari bir-biri bilan to'qnashganda boshlang'ich o'lchamini saqlab qolish qobiliyati. **Ajratish samaradorligi koeffitsiyenti** (рус. Коэффи-циента эффективности сепарации, ing. Separation efficiency ratio) - bu

separatorda to'plangan suyuq faza oqim tezligining ajratgichning kirish qismida joylashgan suyuq faza oqim tezligiga nisbati.

Akkumulyativ relyef shakllari (рус. Формы аккумулятивной рельефи, ing. Forms of accumulative relief) – suv, shamol, muz keltirgan tog' jinslarining to'planishidan hosil bo'lgan relef shakllari.

Akkumulyatsiya (рус. Аккумуляция, ing.) – geologiyada quruqlik yuzasidagi yoki suv havzasini tubida mineral moddalarning yoki organik cho'kindilarning to'planishi; hidrogeologiyada faol yer osti suvlari to'planishi.

Akustik chegara (рус. Акустическая граница, ing. Acoustic the border) - tebranma to'lqin tarqaladigan muhitning akustik xususiyatlari keskin o'zgarish joyi.

Akustik qattiqlik (рус. Акустическая жесткость, ing. Acoustic stiffness) - tebranma harakatni o'tkazish qobiliyatini ko'rsatadigan tog' jinslarining xususiyatlari. Akustik qattiqlik-ning qiymati tog' jinsidagi taranglik to'lqinlarning uning zichligiga tarqalish tezligiga teng; jinslarning taranglik xususi-yatlariga, ularning strukturaviy xususiyat-lariga, mineral tarkibga, shuningdek, jinsdagi g'ovaklarning mavjudligiga va ularni to'ldiradigan

suyuqlikning xususiyatlariga bog'liq.

Alevrit (рус. Алеврит, ing. Aleurite) - 0,01- 0,1 mm kattalikdagi mineral zarrachalaridan (kvarts, dala shpati, slyuda, biotit, muskovit va b.q.) tashkil topgan bo'shaq cho'kindi jins (Zavaritskiy, 1932y.).

Algoritm (рус. Алгоритм, ing. Algorithm) - qo'yilgan masalalarni EHM da butunlay yechishda ishlataladigan amallar tizimining muayyan tartibda bajarilishining aniq qoidasi. A. asosida EHM uchun programmalar tuziladi. Geofizik materiallarni ishslash va talqin qilishda avtomatlashtirilgan tizimlar ASOIGIS, GINTEL va b.da A.dan keng foydalaniladi.

Alkanlar (рус. Алканы, ing. Alkans) - alkanlar neft saqlovchi hududlarning barchasidagi va tabiiy yonuvchi gazlarning tarkibidagi uglevodorodlarning asosiy qismini tashkil etadi.

Alkil (рус. Алкил, ing. Alkyl) - to'yingan bir valentli alifatik radikallarning umumiy nomi. A.ga metil (CH_3), etil (C_2H_5), propil $\text{CH}_3(\text{CH}_2)_2$, izopropil $(\text{CH}_3)_2\text{CH}$, butil $\text{CH}_3(\text{CH}_2)_3$, izobutil $(\text{CH}_3)_2\text{CHCH}_2$, tretbutil $(\text{CH}_3)_3\text{C}$, amil $\text{CH}_3(\text{CH}_2)_4$ va izoamil $(\text{CH}_3)_2\text{CH}(\text{CH}_2)_3$ mansub.

Alkillash (рус. Алкилирование, ing. Alkylation) - izobutanning butilen va propilen bilan o'zaro

ta'siri ostida benzinning yuqori oktanli komponentini ishlab chiqarishning katalitik jarayoni.

Allotropiya (рус. Аллотропия, ing. Allotropy) - bir xil kimyoviy elementning xossalari jihatdan bir-biridan farqlanadigan ikki va undan ortiq oddiy modda hosil qilish allotropiya, bu moddalarning o'zi allotropik shakl o'rganishlar deb ataladi.

Alyuminiy oksidi (рус. Алюминия окись, ing. Aluminum oxide) - suvda eri-maydigan mineral. Kimyoviy formulasi Al_2O_3 , 2050°S da eriydi, 3000°S dan yuqorida qaynaydi. Tabiatda korund (rangsiz), rubin (qizil), sapfir (ko'k) minerallar ko'rinishida uchraydi. A.o. alyuminiyli rudalardan, asosan boksitdan olinadi. A.o. alyuminiy uchun xomashyo, gazlardan oltingu-gurtni ajratib olishda absorbent va katalizator sifatida, shuningdek, yuqori haroratga chidamli materiallar olishda qo'llaniladi.

Alyumogel (рус. Алюмогель, ing. Alumina gel) - alyuminiy oksididan iborat g'ovak, amorf oq modda. Kimyoviy formulasi Al_2O_3 . Suvda va organik moddalarda erimaydi, bo'kmaydi. Namni tez shimadi. A.ni.1 - 2 sutka mobaynida 35°S dan past haroratda suvsizlantirib boksitdan olinadi. A. gazlarni quritishda, suvni tozalashda, qand ishlab

chiqarishda eritmalarini tinitishda absorbent, turli texnologik jarayonlarda katalizator holida ishlataladi.

Ammiak (рус. Аммиак, ing. Ammonia) – NH_3 , tabiiy suvda ammiak azot tarkibli organik moddalar ajralishidan tashkil topadi. Gidroksid ammoniy hosil qilib, suvda yaxshi eriydi. Ammiak REKV (ПДКВ)si 2,0 mg/dm³ ni tashkil etadi. Ruxsat etilgan miqdori (REM) – 0,05mg/dm³.

Anionlar, kationlar (рус. Анионы, катионы, ing. Anions, cations) - elektrolitlarning suvdagi eritmalarida ham, ularning suyuqlanmalarida ham ionlar elektr tokini tashuvchilardir. Elektrolit eritmalariga yoki suyuqlanmalariga doimiy tokka ulangan elektrodlar tushirilganda musbat zaryadli ionlar elektr manbaining manfiy qutbi (katod) tomon tortiladi, manfiy zaryadli ionlar esa elektr manbaining musbat qutbi (anod) tomon tortiladi. Shunga ko'ra ular kationlar va anionlar deb ataladi.

Anoerob jarayon (рус. Анаэробный процесс, ing. Accumulation) - kislorodsiz muhitda hayvon va o'simlik qoldiqlarining rivojlanish (o'zgarishi, chirish) jarayoni.

Anomal neft (рус. Аномальная нефть, ing. Oil anomaly) –

tarkibida katta miqdorda smolalar, asfaltenlar, parafinlar bo'lgan neft. Jinslarning kollektorlik xususiyatining va gilliligining ko'pligi sababli qatlam sharoitidagi nefting xususiyatlari o'ziga xos mexanik xossalarga ega bo'lib, u Nyutonning chiziqli sizish qonuniga bo'yсинmaydi.

Anomal qovushqoq neft (рус. Аномально вязкая нефть, ing. Quasi-viscous oil (petroleum)) - Nyutonning taranglik oqim qonuniga bo'y sunmaydigan neftlar.

Antifrizlar (рус. Антифризы, ing. Antifreezes) - o'ta past haroratda muzlamaydigan spirt, glikol, glitserin va ba'zi bir noorganik tuzlarning suvli eritmalarini. A. ichki yonuv dvigatellarining sovutish tizimlarida, deraza va avtomobil oynalarini terlashdan saqlashda va past harorat sharoitida yong'inga qarshi quvurlarni to'ldirishda ishlataladi. A.da etilenglikollar (di-, va trietilenglikol) va spirt (asosan, metanol va etanol) ning suvli eritmalarini ko'p bo'ladi. Bular gazni uzatish va qayta ishlashda gidratlarni hosil bo'lishini bartaraf etishda qo'llaniladi.

Antiklinal (рус. Антиклинал, ing. Anticline) – qatlamlangan cho'kindi, effuziv va o'zgargan jinslarning yotish shakli bo'lib,

yoyi yuqoriga qaragan bukilmadir.

Aralashtirgichlar (рус. Мешалки, инг. Mixers) - suyuq muhitda mexanik aralashtirish uchun jihozlar. Turli sohalarda, xususan, neftni qayta ishlash jarayonida moylar, surkovlar, qo'ndirmalar, surkov-sovutish texnologik muhitlari, sintetik yog ' kislotalari ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Areometr (рус. Ареометр, инг. Areometer) - suyuqlik zichligini o'lchaydigan asbob. Areometr doimiy og'irlilikli va doimiy hajmli bo'ladi. Doimiy og'irlilikli oreometribilan o'lchashda zichlik areometrning suyuqlikda botish darajasiga qarab aniqlanadi. Doimiy og'irlilikli areometr bilan zichlikni o'lchashda uni suyuqlik halqasimon tamg'asigacha botiriladi, shunda suyuqlik zichligi palladan olingen yoki unda qo'yilgan toshlar bilan aniqlanadi. Areometr uvalanuvchan jinslarni granulometrik tahlil qilishda ham keng qo'llaniladi.

Aromatik uglevodorodlar (рус. Ароматические углеводороды, инг. Aromatics hidrocarbon) - Markovnikov va Ogloblin, Baku konidan chiqadigan neft tarkibini urganayotib, sul'fokislotalar orqali toluol, benzol, ksilol etilbenzol 1, 2, 4, - trimetilbenzol va shu sinfga oid bir qanchalarni ajratib oldi. Hozirgi kunda neftni tarkibini

tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, benzol gomologlarining yaqin gomologlari ($C_7 - C_{10}$) ko'plab uchraydi. Neftning kerosin - gazoyl qismida, qaynash harorati (200 - 350 $^{\circ}$ S) bo'lgan benzolni hosilaridan tashqari naftalin va uning yaqin gomologlari bisiklli kondensirlangan aromatik uglevodorodlar ya'ni C_nH_{2n-12} uchraydi.

Artezian suvlari (рус. Артезианские воды, инг. Artesian water) - o'zidan suv o'tkazmaydigan qatlamlar orasidagi va suv havza tashkil qiluvchi ma'lum chuqurlikdagi suvli qatlamlarda joylashgan yer osti suvlari.

Arximed qonuni (рус. Закон Архимеда, инг. Archimedes Law) - suyuqlikka (yoki gazga) botgan jism o'zi itarib chiqargan suyuqlik (yoki gaz) og'irligiga teng bo'lgan kuch bilan ta'sir qiladi va bu Arximed kuchi deyiladi.

Asfalt (рус. Асфальт, инг. Asphalt) - organik erituvchilarda to'laligicha eruvchi yuqori qovushqoqli, yarim qattiq yoki qattiq yengil eruvchi bitum, shuningdek qum, shag'al va boshqalar ko'rinishidagi mineral komponentlarni saqlagan tabiiy yoki sun'iy tabiatli moddalar aralashmasi. Yo'l qoplamasasi va izolyasion material sifatida ishlataladi.

Asfaltenlar (рус. Асфальтены, ingl. Asphaltenes) - neftni qayta

ishlashda olinadigan yuqori molekulyar birikmalar aralashmasi; CCl_4 va CS_2 da eruvchan, biroq geksan va petroleum efirida erimaydi.

Asosiy moy (рус. Базовое масло, ing. Pure oil) - moyning asosiy qismini tashkil qiluvchi moddalar birikmasi. A.m. dan uning sifatini yaxshilaydigan qo'shimchalar qo'shib motor moylari tayyorlanadi. Moylar, asosan, neftni qayta ishslashda atmosfera bilan haydaydigan qurilmaning ostki qismidan chiqadigan gudronni fenol yordamida selektiv tozalab olinadi.

Asoslar (рус. Основание, ing. Footing) - tarkibida metal atomi bilan birikkan bitta yoki undan ortiq gidroksil guruh saqlaydigan moddalar. Ular suvda eruvchanligiga qarab 2 ga bo'linadi: suvda yomon eriydigan asoslar ($\text{Cu}(\text{OH})_2$, $\text{Fe}(\text{OH})_2$, $\text{Fe}(\text{OH})_3$ va boshqalar), suvda yaxshi eriydigan asoslar (KOH , NaOH , $\text{Ca}(\text{OH})_2$ va boshqalar).

Atom (рус. Атом, ing. Atom) - musbat zaryadlangan yadro va uning atrofida harakatlanadigan elektronlardan tashkil topgan elektroneytral zarracha.

Atomning nisbiy massasi (рус. Относительная атомная масса, ing. Relative atomic mass) - berilgan element atomini o'rtacha massasini C atom massasining o'n

ikkidan bir qismiga teng bo'lgan kattalikka aytildi. C elementi barqaror bo'lganligi uchun ham nisbiy atom massasini hisoblashda tanlangan.

Atsetilen (рус. Ацетилен, ing. Acetylene) - strukturali bog'lanishi $\text{CH} = \text{CH}$ bo'lgan to'yinmagan eng sodda uglevodorod. Kimyoviy formulasi C_2H_2 , rangsiz gaz, erish harorati $-80,8^\circ\text{S}$, qaynash harorati $-83,6^\circ\text{S}$, 335°S da o'z-o'zidan alangananadi, zichligi $1,171 \text{ kg/m}^3$. A.ning havo bilan aralashmasi (hajmi bo'yicha A.ning 2,3% dan 80,7% gacha bo'lgan miqdori) portlashga xavfli. Kuchsiz narkotik modda xususiyatiga ega. Suvda yomon, atsetonda, dimetilformamidda yaxshi eriydi. Kaltsiy karbidning suv bilan birikishidan hosil bo'ladi. $\text{CaC}_2 + 2\text{H}_2\text{O} = \text{C}_2\text{H}_2 + \text{Ca}(\text{OH})_2$, Metanning yuqori haroratda oksidlanishi pirolizidan, suyuq neft fraktsiyalari – to'g'ridan-to'g'ri haydalgan benzin va kerosin krekingi hamda gazning suyultirish va piroliz jarayonida tarkib topadi.

Aviatsiya benzini (рус. Бензин авиационный, ing. Aviation petrol) - neft va gaz kondensatining bevosita haydalgan katalitik kreking va riforming mahsulotlariga yuqori sifatli komponentlar - alkilat, izomerizat, texnik izooktan, etil suyuqligi va

boshqa qo'shimchalar qo'shib tayyorlangan suyuqlik. Qaynash harorati 40-180°S, A. b.ning fraktsiya tarkibi va oktan soni asosiy ko'rsatkich hisoblanali.

Avtoklav (рус. Автоклав, анг. Autoclave) - yuqori bosim va haroratda turli tekshirish jarayonlarini bajaradigan uskuna. Geofizik (akustik, elektrik va b.) asboblarni ishlatalishdan avval, ishlatalish chog'ida va joriy ta'mirlashda ularni quduqlardagi tabiiy sharoitlarda uchraydigan bosim va haroratga chidamliligini A. yordamida tekshiriladi. A. da turli fizik-kimyoviy jarayonlar bajariladi.

Avtomatlashtirilgan geofizik tizim (рус. Автоматизированная геофизическая система, анг. Automated geophysical system) - geofizik ma'lumotlarni tez va uzlusiz talqin qilish tizimi. A.g.s.-lar geofizik dasturlar majmuasi, servis, shuningdek, ish boshqaruvchi dasturdan iborat.

Avtomatlashtirilgan ish joyi (рус. Автоматизированное рабочее место, анг. Automated workplace) - geofizik tadqiqotlar ma'lumotlarni raqamli hisoblash va qayd qilishni boshqarish uchun shaxsiy kompyuterlar asosida avtomatlashtirilgan ish joyi (AIJ). AIJ texnik vositalar majmuasi, dasturli ma'lumotlar va texnologik ta'minotga ega.

Avtomobil benzinlari (рус. Бензины автомобильные, анг. Automobile petrol) - neft va gaz kondensatini 40-205°S oralig'ida qizdirilganda ajralib chiqadigan fraktsiyalar. Karbyurator dvigatelli avtomobilarga mo'ljallangan. A.b.ga xomashyoni bevosita haydab olinadigan katalitik kreking, termik kreking benzinlari taalluqli. A.b. etillashtirilib yoki etillashtirilmasdan tayyorlanadi.

Aylanish tizimi (рус. Круговая система, анг. Circular system) - burg'ilanayotgan rotorli quduqdagi tizim. Quduqni gillashga mo'ljallangan. Maxsus nasos, egiluvchan rezina quvurdan iborat. Gilli eritma nasos va rezina quvurlar yordamida vertlyug orqali quduqqa yuboriladi.

Aylantirgichlar (рус. Вращатели, анг. Rotators) - aylanma burg'ilash chog'ida BQBni harakatga keltiradigan moslamalar. A. yasalish konstruktsiyasiga ko'ra uch turga bo'linadi: qo'zg'aladigan A., rotorli A., shpindelli A.

Azot (рус. Азот, анг. Nitrogen) - rangsiz va hidsiz gaz. «Azot» - «hayotiy emas» degan ma'noni bildiradi. A. - D.I. Mendeleev davriy tizimining beshinchi guruhiga mansub kimyoviy element. Atom tartib raqami 7, atom massasi 14,0067. A. ning suyuqlanish harorati - 196 °S, qaynash harorati - 210 °S.

Azotning molekulasi ikki atom- li. Uning molekulasini parchalash uchun 954,6 kJ/mol energiya sarflanadi. Atomar azot ancha faol. Odatdagi haroratda oltin-gugurt, fosfor, margimush va simob bilan reaktsiyaga kirishadi. A.dan neft kimyosi sanoatida birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi aminlar (DEA, MDEA) olinadi. Azot va uning birikmalari mineral o'git va portlovchi moddalar olishda, tibbiyotda, metallurgiyada va boshqa sohalarda ishlatalidi.

B

Ballon (pyc. Баллон, ing. Container,cylinder) - metall, polimer, rezina, shisha, gazmol va b.dan tayyorlanadigan gaz o'tkazmaydigan idish. Mas., avtomobil kamerasi rezinadan, gaz balloni metalldan, gaz namunasi olinadigan idishlar shisha, metall, rezina va polimerlardan tayyorlanadi.

Barbotaj (pyc. Барботаж, ing. Bubbling) - suyuqlik qavati orqali havo yoki bug' pufaklarini o'tkazish. B. usuli absorbsiya, rektifikatsiya, kimyoviy parchalash va boshqa jarayonlarda q'llaniladi. B. maxsus qurilmalar - barboterlarda bajariladi. Bunda mayda teshikli naychasimon, teshikli tarelkasimon, qalpoqchali va boshqa turdag'i barboterlardan

foydalaniladi. B. qilish jarayoni davriy va uzlksiz bo'lishi mumkin.

Barqaror kondensat (pyc. Стабильный конденсат, ing. Stable condensate) - C₅H₁₂ va undan yuqori og'ir uglevodorodlardan tarkib topgan, unda ko'pi bilan 2-3 % mass. propan-butan fraktsiyalari va yengilroq uglevodorod va nouglevodorod komponentlar saqlangan suyuqlik.

Barqaror neft (pyc. Стабильная нефть, ingl. stable petroleum; stable oil) - og'ir uglevodorodlardan tarkib topgan, unda ko'pi bilan 2-3 % mass. propan-butan fraktsiyalari va yyengilroq uglevodorod va nouglevodorod komponentlar saqlangan suyuqlik.

Barqarorlik (kimyoviy, oksidlovchi, termoooksidlovchi) (pyc. Стабильность, ingl. Stability, chemical stability) - kimyoviy barqarorlik, oxidation stability - oksidlanishga barqarorlik, thermal oxidation stability - termo-oksidlanishga barqarorlik) - neft mahsulotining saqlanishida va ishlatalishida (shu jumladan uni isitishning yuqori haroratlariida, masalan tovushdan ham tez uchadigan samolyot baklarida) oksidlanish reaksiyalariga chidamliligi xususiyati.

Barrel (pyc. Баррель, ing. Barrel) - suyuq, kukunsimon va ba'zi qattiq

materiallarning hajm o'lchovi. Amerika va Angliyada qo'llaniladi. Amerika neft barreli 158.76 l (31.5 gallon). Angliya barreli 163.65 l.

Baypas (рус. Байпас, англ. Bypass) - quvuruzatgichning ba'zi joylarini aylanib o'tkazishga mo'ljallangan qo'shimcha parallel, berkitish yoki muvofiglashtirish uskunalarini yoki asboblari bilan jihozlangan qismi (masalan, gaz yoki suyuqlik miqdorini o'lchaydigan asboblar o'rnatiladigan joylar). Quvuruzatgichning asbob yoki uskunala ridagi nosozlikni bartaraf qilishda texnologik jarayonni boshqarish uchun texnologik jarayonni to'xtatmasdan ularni zudlik bilan almashtirishga xizmat qiladi.

Bentonit (рус. Бентонит, англ. Bentonite) - burg'ulash eritmasiga qo'shilgan tabiiy gilning bir turi.

Bentonitli gil (рус. Глина бентонитовая, англ. Bentonite clay) - montmorillonit va beydelitdan iborat gil. Ba'zan «tosh sovun» ham deyiladi. Bentonitli gil nordon va o'rta asosli vulkan ko'llari va tuflarning nurashidan paydo bo'ladi. Bentonitli gillar suv shimanish, ko'pchish va qayishqoqlik xususiyatlariga ega. Unda gidroslyuda, kaolin, sepiolit, poligorskit, kristobalit, seolit va boshqa minerallar uchraydi. U tabiatda bo'z, sariq va kumush rangda bo'ladi. Bentonitli gillar

sanoatda vino, moy va neft mahsulotlarini tozalashda va burg'ilash ishlari uchun qimmatli hom ashyodir.

Bentonitli surkov moylari (рус. Бентонитовые смазки, англ. Bentonitic fats) - moylarni quyuqlashtirish uchun qo'shiladigan maxsus qayta ishlangan gillarning bir turi. Plastik moylar tayyorlashda qo'llaniladi. Bentonitli surkov moylari gilli surkov moylari deb ham ataladi.

Benzin (рус. Бензин, англ. Petrol, gasoline, gas) - Rangsiz, osongina bug'lanadigan suyuqlik, qaynash chegarasi 200°C dan oshmaydigan oson qaynaydigan uglevodorodlar aralashmasidir. Barcha turdag'i benzirlarning asosiy ko'rsatkichlari fraksion tarkibi va oktan soni. Ko'p sonli benzin navlari: aviatsion (juda yengil), avtomobil (og'ir), erituvchi.

Benzinsizlantirilgan neft (рус. Обензиненная нефть, англ. Reduced crude) - yyengil (benzin) fraksiyalari haydalanneft.

Beqaror emulsiya (рус. Неустойчивая эмульсия, англ. Unstable emulsion) - ikkita o'zaro erimaydigan suyuqliklardan tashkil topgan ikki fazali dispers tizim, shunda ulardan bittasi tomchilar shaklida tarqaladi, ularning yuzasida boshqa turg'un qobiqlar bo'lmaydi.

Berk armatura (рус. Запорная арматура, инг. Stop valves) - ishchi muhit oqimini belgilangan germetiklikda ochish-yopish uchun saqlovchi armatura.

Bir valli gidroqorishtirgich (рус. Гидромешалька одновальная, инг. Single-shaft hydraulic mixer) - romga mustahkamlangan, ikki ustunga joylashgan, diametri 0,965 m, uzunligi 1,2 m bo'lgan gorizontal temir silindrik barabandan iborat qorishtirgich. Baraban ichida va uning o'qi bo'yicha 10 dan ortiq vertikal parrakli gorizontal val joylashgan. Unga quruq gil yuqori teshik orqali tashlanadi va suv quyiladi. Qorishtirgich 40-50 min. davomida ishlaydi. Keyin barabanning pastki lyuki (teshigi) orqali gilli eritma novga uzatiladi va undan qabulxona chaniga tushadi.

Bitum (рус. Битум, ingl. Bitumen) - 1. Kislotali bitum, neft moylarini sulfat kislota bilan tozalashdan olinadi; 2.Uglevodorodlar va ularning hosilalaridan tashkil topgan qattiq va suyuq organik moddalar, yo'l qurilishida va izolyasyon materiallarni ishlab chiqarishda ishlatiladi; 3. Sun'iy bitum gudron, mazut yoki neft moylarini sulfat kislota bilan tozalashdan qolgan qoldiqlarni qayta ishlashdan olinadi; 4. Tabiiy bitumlar neft, toshko'mir va

qo'ng'ir ko'mir, torf va cho'kma tog' jinslari tarkibiga kiradi.

Bo'shliqlar (рус. Вывалы, инг. Inrushes) - tog' jinslarining parchalanishi natijasida quduqda hosil bo'lgan bo'shliqlar.

Boksit (рус. Боксит, ingl. Bauxite) - asosan alyuminiy oksidi gidratlari va turli xil qo'shimchalar: temir oksidlari va gidrooksidlari, shuningdek gilli minerallar aralashmasidan iborat. Neft-gazni qayta ishlashda katalizatorlar, adsorbentlaryoki ularning komponentlari sifatida ishlatiladi.

Boshlang'ich olinadigan zahiralar (рус. Начальные извлекаемые запасы, инг. Initial recoverable reserves) - konni ishlatish yakuniga qadar qazib olinadigan konni ishlatish boshlanishidan oldin baholangan uglevodorod zahiralari.

Boshqaruvchi burg'ilash quvurlari (рус. Ведущие бурильные трубы, инг. Lead drill pipe) - rotordan burg'ilash quvuriga aylanma harakat uza-tuvchi hamda vertlyug bilan burg'ilash quvurlarini birik-tiruvchi bo'g'in. Ular asosan to'rtburchak (kvadrat), ba'zan oltiqirrali ko'rinishda bo'lib, rezbali birikitirishga moslangan. Yuqoridaagi chap rezba o'tkaz-gichga va u o'z navbatida, vertlyugga ulanadi, pastdagi o'ng rezba esa qulflri bo'ladi. Vert-

lyugning chap rezbasi o'ng tomonga aylanayotgan burg'ilash birikmasi bilan mustahkam birikadi. B.b.q. kvadrat tomoni 65, 80, 115, 140 va 155 mm bo'ladi. B.b.q. D va K mustahkamlit guruhiga kiruvchi po'latlardan, o'tkazgichlar esa 40XN markali po'latdan 4543—71 GOST bo'yicha tayyorlanadi.

Bosim depressiyasi (рус. Депрессия давления, ing. Pressure depression) -a) konni ishlab chiqarishda dinamik qatlam bosimini uning boshlang'ich bosimi (neft uyumini ishlatishdan oldin o'lchangan qatlam bosimi) ga nisbatan pasayishi; b) ishlatilayotgan quduqlar uchun – dinamik qatlam bosimi bilan quduq tubidagi bosim orasidagi farq.

Bosim(рус. Давление, ing. Pressure) - muayyan sathdan suv ustuni balandligi bilan ifodalanuvchi bosimi.

Bosim farqi (рус. Перепад давления, ing. Pressure drop) - oqimning ikki xil kesimlari bo'yicha bosim farqi.

Bosim gradienti (рус. Градиент давления, ing. Pressure gradient) - suyuqlikning harakat yuli uzunligi birligiga (m, km) nisbatan bosimning pasayishi.

Bosim to'sig'i (рус. Барьер давления, ing. Pressure barrier) - uyumning qo'shni qismlari oraliq'ida suyuqlik va gazning o'zaro

oqib o'tishi oldini olish maqsadida, chegara ichida chizmasimon joylashgan haydash quduqdaliga suv yuborish yo'li bilan hosil qilinadigan qatlamning yuqori bosimli zonasasi.

Bosimning tazyiqqli gradienti (рус. Напорный градиент давления, ing. Differential pressure) - sizish masofasining uzunlik birligiga nisbatan bosimning kamayishi.

Boyler (suv isitgich) (рус. Бойлер (нагреватель воды), ing. Boiler) - suyuqliknini (suv, suyuq moddalar, suvli eritmalar va h.k.) issiq suv yoki bug' bilan isituvchi trubkali issiqlik almashtirgich.

Brent (рус. Брент, ing. Brent) – neft etalon markasi. Shimoliy dengizda, 2007 yildan qirg'oqdagi konlardan qazib olinadigan neft aralashmalarining xalqaro neft birjasidagi markasi.

Bufer suyuqliklari (рус. Буферные жидкости, ing. Buffer Fluids) -quduqdarni sementlash jarayonida quduq devorini tozalash va ikkita yoki undan ko'proq, bir-biri bilan muddatidan ilgari aralashib ketadigan suyuqliklarni ajratish uchun ishlatiladigan va maxsus tayyorlanadigan suyuqlik. MQBni quduqqa tushirgandan so'ng unga burg'ilash eritmasi va sement qorishmasi haydaladi, qatamlarga kislota (HCl yoki H₂S₀4) bilan ishlov beriladi.

Bug' kondensatsiyasi (рус. Конденсация паров, ingl. Vapor condensation) - moddaning gazsimon holatdan suyuq yoki qattiq holatga o'tishi.

Bug' (рус. Пар, ingl. Vapor) - moddaning gazsimon holatinig turi bo'lib, unda aynan shu moddaning kondensasiyalangan (suyuq) holati bilan muvozanati kuzatiladi. Quyidagi turlari farqlanadi: berk bug'(ингл. closed vapor) – apparatning devori orqali issiqlikni beruvchi isitish bug'i; isituvchi bug'(ингл. heatingvapor) -issiqlik tashuvchi sifatida ishlatiladigan bug'; to'yingan bug' (ингл. saturated vapor) – aynan shu tarkibdagi suyuqlik yoki qattiq jism bilan termodinamik muvozanatda bo'ladigan bug'; o'tkir bug' (ингл. direct heating vapor) – bevosita isitiladigan suyuqlikka kiritiladigan issiq bug'; ortiqcha isitilgan bug' (ингл. Excessive-heating vapor) – berilgan bosimda to'yinish haroratidan ortiq bo'lган haroratga ega bug'.

Bug'lanish (рус. Испарение, ingl. Vaporability) – neft mahsulotining fizik-kimyoviy tavsiflari bo'lib, ma'lum haroratlarda bug' fazasini hosil qilish qobiliyatini aniqlab beradi: to'yingan bug'lar bosimi, fraksion tarkib, zichlik, bug'lanishning yashirin issiqligi, bug'lar diffuziyasi koeffisiyenti,

govushqoqlik, sirt tarangligi, issiqlik sig'imi.

Bug'lanish issiqligi (рус. Темперация испарения, ingl. Evaporation heat) - suyuqlikning burg'i aylanishiga sarf bo'ladigan issiqlik. 1 kg suyuqlikni, haroratni o'zgartirmay, burg'i aylantirish uchun zarur bo'lган issiqlik miqdorini ifodalaydigan fizik kattalik solish-tirma B.i. deb yuritiladi.

Burg'ilash qudug'i sarfini o'lchash (рус. Измерение расхода буровой скважины, ingl. Measuring the flow rate of a drilling well) - ishlayotgan neft quduqlarida harakatlanayotgan suyuqlik oqimi tavsifini yoki haydash quduqlaridagi jinslarning suv qabul qila olish imkoniyatini aniqlash maqsadida quduq tomon harakatlanayotgan suyuqlik oqimi tezligini o'lchash.

Burg'ilash qudug'ini ishlatisch (рус. Эксплуатация буровой скважины, ingl. Operation of the borehole) - burg'ilash qudug'i ichidagi suyuqlikni yeryuziga chiqarish. B.q.i.ning quyidagi usullari ajratiladi: favvorali – suyuqlikni yer yuziga chiqarishga qatlam bosimi yetarli; mexanik – qatlam bosimi suyuqlikni yer yuziga chiqarishga yetarli bo'lmaydi, bunday vaqtda suyuqlik kompressorlar yordamida tortib chiqariladi; chuqurlik nasosi usuli orqali – quduq ichiga nasos

tushirib suyuqlik yuqoriga tortib chiqariladi.

Burg'lashning texnologik rejimi (рус. Буровой технологический режим, инг. Drilling process mode) – qudug’ini burg’lashda jinslarni maydalash uchun foydalilaniladigan burg’i ishining samaradorligini aniqlash. Bu maqsadda: 1) burg’iga bo’ladigan bosim; 2) burg’ining aylanish soni; 3) loyli eritmanning sifati va miqdori; 4) asbobni quduqqqa tushirish va x.k. aniqlanadi.

Burg’u qudug’i geologik kesimi (рус. Геологический разрез буровой скважины, инг. Geological section of a drilling well) – tog’ jinslari qatlamlarining joylashishi, qavatlanishi va ketma-ketligini ifodalaydigan chizma. Burg’ qudug’i geologik kesimi burg’ quduqlari bo’yicha tuziladi va maydonning ma’lum bir nuqtasi kesimini ifodalaydi.

Burg’ quduq devori (рус. Стенка буровой скважины, инг. The wall of the borehole) - quduq ustuning yon yuzasi.

Burg’ quduqlarni geofizik tadqiq qilish (рус. Геофизическое исследование скважин, инг. Well logging) - geofizik metodlar yordamida burg’ quduqlarining egilishi, yo’nilish azmchlari aniqlanadi, kovlayotgan burg’ quduqlarining mahsuldar qatlamga yaqinlashib burayotgani nazorat qilib turiladi.

Burg’ qudug’i bilan ochilayotgan qatlamlarining tarkibiy qismini o’rganish, ma’danli jinslarni aniqlash mumkin demak, konchilikka va ma’danshunoslikka oid masalalarini hal qilishda geofizik metodlar ahamiyati beqiyos, shu boisdan ular amaliyotda keng qo’llaniladi.

Burg’ quduqlarni gillash (рус. Глинизация скважин, инг. Well claymation) - burg’lash jarayonida sodir bo’lib turadigan har xil o’pirilish va cho’kishlarning oldini olish maqsadida burg’ qudug’ini gil yoki boshqa qorishmalardan tayyorlangan eritmalarlar bilan beto’xtov yuvib turish tufayli shu eritmalar gidrostatik gil. Qatlami hosil bo’ladi. Bu qatlam quduq devorlarini mustahkamlaydi.

Burg’ quduqlarni torpedalash (рус. Торпедирование скважин, инг. Well torpedoing) - torpedalashning asosiy maqsadi: mahsuldar qatlamda teshiklar ochish hamda tutilib qolning asboblarni, mustahkamlovchi quvurlar birikmasini bo’shatish va shuningdek quduqning keyingi kovlanishini ta’minlashmaqsadida quduq tubida yotgan mayda metall predmetlarni iborat.

Burg’lash dastgohining hidrotizimi (рус. Гидросистема бурового станка, инг. Hydraulic system of the drilling machine) - quyidagi ishlarni bajarishga

mo'ljallangan: 1. Foydasiz aylanishda asbobni ko'tarib turish; 2. Asboblarni quduq tubiga qo'shimcha yuk bilan uzatish; 3. Shpindelei tez ko'tarish; 4. Yuqori patron qisqichi bilan burg' quvurlari birikmasini mustahkamlash; 5. Burg'ilash asboblarini nasos yordamida ko'tarish; 6. Aylantirgichni quduq og'zidan quduq og'ziga ko'chirish.

Burg'ilash eritmalar (рус. Буровые растворы, ing. Drilling fluid) - quduq tubida burg'ilash uskunasi (doloto, koronka va b.)ni sovutish, jinslarning maydalanihini yengillashtirish, maydalangan jins zarralari (shlam)ni yer yuzasiga chiqarish, eritma aylanishi to'xtatilganda zarralarni muallaq saqlanishini ta'minlash; quduqda suv-, neft- va gaz namoyonlanishining oldini olish, quduq devorlariga ta'sir etadigan bosim hosil qilish, quduq devorini o'pirilishidan saqlash va unga fizik-kimyoviy ta'sir etish uchun ishlatalidigan eritma.

Burg'ilash eritmasini utilash ambari (рус. Амбар утилизации

бурового шлама, ing. The barn of drilling waste disposal) - sanoat burg'ulash chiqindilarini markazlashtirilgan yig'ish, zararsizlantirish va xavfsiz ko'mish uchun mo'ljallangan sig'im.

Burg'ilash eritmasining og'irlash-tirgichlari (рус. Утяжелители

буровых растворов, ing. The weighting of drilling fluids) - burg'ilash jarayonida asosiy og'irlashtirgich sifatida zichligi $4200-4500 \text{ kg/m}^3$ va undan ko'p bo'lgan barit-gemotit magnetitdan foydalinadi. Boshqa og'irlash-tirgichlar maxsus sharoitlarda ishlataladi. Masalan, mahsuldar qatlamlarni ochishda burg'ilash eritmalariga kislotada eriydigan karbonat mineral-siderit, marmar uni (zichligi $3700-3900 \text{ kg/m}^3$) qo'shiladi. Odatda anomaliyalı qatlamlarni o'chishda burg'ilash eritmasiga galenit ($7400-7700 \text{ kg/m}^3$), gematit ($4900-5300 \text{ kg/m}^3$), magnetit ($5000-5200 \text{ kg/m}^3$) kabi minerallarning qo'shilishi hisobiga eritmaning zichligi $2350-2400 \text{ kg/m}^3$ gacha ko'payadi.

Burg'ilash kaliti (рус. Ключ буровой, ing. Drilling key) - neft va gaz quduqlarini burg'ilashda ko'tarib-tushirish operatsiyalarini tezlashtirish imkonini beruvchi mexanizatsiyalash vositasi. Quvurlarning rezbali ulanishlarini ochish va ulash uchun mo'ljallangan.

Burg'inining aylanish chastotasi (рус. Частота вращения долота, ing. Rotation speed of the bit) - burg'i tishlarining quduq, tubi bilan o'zaro ta'sir tezligi orqali ifodalanadi. Turbinali burg'ilashda B.a.ch. minutiga $600-700$ dan ortadi, burg'inining chidamliligi esa

rotori burg'ilashda, minutiga 50-100 marotaba aylanayotgan burg'inikidan ancha past bo'ladi. Shu sababli B.a.ch.ni belgilashda burg'ilash jarayonining samadarligiga va jinslarni maydalovchi uskunaning chidamliligiga e'tibor berish lozim.

Burg'ilash chig'iri (рус. Буровая лебедка, анг. Drawworks) - BQBni tushirish, ko'tarish, MQENni quduqqa tushirish, harakatlanmayotgan BQBni tutib turish, quduq tubida burg'ining ishlash jarayonida quduqni chuqurlash-tirish va kengaytirish, uni astasekin pastga tushirish, burg'ilash shamlarini burab olish va burab kiritish, yuklarni va quvurlarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish hamda boshqa yordamchi ishlarni bajarishga mo'ljallangan.

Burg'ilash jarayoni (рус. Процесс бурения, анг. Drilling process) - quduqlarni burg'ilash jarayoni. Burg'ilash qurilmalari va agregatlari o'rnatilgandan so'ng quduqni qazish boshlanadi. Tog' jinslari mexanik, termik, fizikkimyoviy, elektr uchqunli va boshqa usullarda maydalanadi. Amaliyotda, asosan, jinslarni mexanik ravishda maydalash keng qo'llaniladi. Neft va gaz quduqlarini aylanma burg'ilash usulida kovlash keng tarqalgan.

Burg'ilash minoralari (рус. Буровые вышки, анг. Boring

frames)-burg'ilash chog'ida burg'ini almashtirish, burg'ilash quvurlarini ko'tarib tushirish, quduq devorlarini MQB bilan jihozlash va boshqa maqsadlarda foydalilaniladigan qurilma. Quduqlar turiga, chuqurligiga va konstruksiyasiga ko'ra turli texnik parametrli B.m. mavjud. B.m.ning turi, asosan, qabul qilingan quduq konstruktsiyasidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Quduqlarni burg'ilashda A turidagi B.m. ishlatiladi, ular panjara shaklidagi metall konstruktsiyали uch va to'rt qirrali minoralardan iborat.

Burg'ilash nasoslari (рус. Буровые насосы, анг. Mud pumps) - burg'ilash jarayonida quduq tubini shlamdan tozalash, jins maydalovchi uskunalarni sovish, gidravlik tub dvigatellarini harakatga keltirish uchun yuvuvchi suyuqlikni quduqqa haydashga mo'ljallangan. Rotor va elektrobur yordamida burg'ilashda B.n. ko'p zo'riqmaydi, turbobur bilan burg'ilashda esa katta bosim bilan ishlaydi. Nasos qismlari katta bosimga va korroziyaga chidamli metallardan tayyorlanadi. B.n. gidravlik (ishchi) qismlarining tuzilishiga ko'ra: a) porshenli, b) markazdan qochma va v) plunjjerli turlarga bo'linadi. Neft, gaz va strukturalizlov quduqlarini burg'ilashda, asosan, ikki silindrli, uch silindrli

porshenli hamda plunjерli nasoslar ishlatalmoqda.

Burg'lash quvurlari (рус. Бурильные трубы, анг. Drill pipes) - rotorli burg'lashda burg'iga aylanma harakat uzatish, gidravlik tub dvigatellariga va quduq tubiga bosim ostida burg'lash eritmasini yuborish, burg'ini almashtirish, quduq tanasining qiyshayishini boshqa-rish va shukabilarni bajarishda foydalaniлади. B.q boshqaruvchi burg'lash quvurlari va OBQ bilan birgalikda BQBni hosil qiladi.

Burg'lash quvurlari birikmasi (BQB) (рус. Бурильная колонна (БК), анг. Drillstem) - yer yuzasidagi uskunalarini jins maydalovchi uskuna bilan bog'lovchi bo'g'in. U rotorli burg'lashda aylanma harakatni uzatish; turbinali burg'lashda reaktiv momentni qabul qilish, burg'lash eritmasini quduq tubiga uzatish, tubdagi gidravlik dvigatellar (ishini ta'minlash, burg'iga tashqi og'irlilik berish, ishdan chiqqan burg'ini yuqoriga ko'tarish va boshqa yordamchi ishlarni bajarish uchun xizmat qiladi.

Burg'lash uskunasi (рус. Буровой инструмент, анг. Drilling tool) - quduqni burg'lash maqsadida ishlataladigan uskuna-lar. Bu. texnologik, yordamchi, falokat va maxsus turlarga bo'lindi. Texnologik B.u.ga qu-duqni burg'lashda ishlataladigan: jins

maydalovchi uskunalar (koronka, burg'i, kengaytir-gichlar), namuna uzgichlar, bog'-lovchilar, burg'i-lash quvurlari birikmasi va boshqa uskunalar kiradi. Yordamchi B.u. quduq devorini mahkamlash va texno-logik uskunalarga xizmat qilishga mo'ljallangan. Unga: mustah-kamlash quvurlari, muf-talari, nipellar, qisqichlar, kalitlar, elevatorlar va sh.k. kiradi.

Burg'ilsh qurilmalari (рус. Буровые установки, анг. Drilling rigs)-neft va gaz konlarini ishlatish hamda yer po'stining yuqori qismidagi qatlamlar tuzilishini o'rghanish maqsadida quduqlarni burg'lash uchun mo'ljallangan qurilmalar. B.q. majmuasiga quyidagilar kiradi: minora, kranblok, tal bloki, kryuk bloki, kryuk, vertlyug, tushirish-ko'tarishni amalga oshiradigan mexanizmlar, rotor, ponani pnevmatik tutish moslamasi, kalit, yordamchi chi-g'iri, burg'lash chig'iri, hidro-tormoz, burg'lash nasosi, kom-pensator, kompressor va b.

Butan fraksiyasi (рус. Бутановая фракция, англ. Butane fraction) - asosan butanlardan iborat bo'lgan va eng oxirgi gazlarni qayta ishlashdan olinadigan tor uglevodorod fraksiyasi. Sintetik kau-chuk ishlab chiqarish uchun xomashyo, maishiy suyultirilgan gaz sifatida qo'llaniladi, shuning-dek qish kunlarida tovar avto-mobil

benzinlarga to'yingan bug'larning talab qilingan bosimini ta'minlash uchun qo'shiladi.

Butan-butilen fraksiya(BBF) (рус. Бутан-бутиленовая фракция (ББФ), ingl. Butane-butylene fraction) – asosan butan va butilenlardan iborat bo'lgan va eng oxirgi bo'lmanagan (neft zavodlari) gazlarni qayta ish-lashdan olinadigan tor uglevo-dorod fraksiyasi. Polimerlash, alkillash qurilmalari va turli neft kimyosi ishlab chiqarish uchun xom-ashyo sifatida qo'llaniladi.

Buxoro neftni qayta ishlash zavodi (рус. Бухарский нефтеперерабатывающий завод, ing. Bukhara oil refinery) - Buxorodagi neft mahsulotlarini ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonasi. Turli neft mahsulotlari yuqori oktanli benzin (AI-93, A-76), dizel yoqilg'isi, aviaakerosin, qoramoy, suyultirilgan neft gazlari (butan, texnik propan, propan-butan) va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi.

C

Chekka ho'llanish burchagi (рус. Краевой угол смачивания, ing. Interfacial angle) - muhitning yuzalar tarangligining o'zaro nisbatini va suv, neft, jinslarning o'zaro tutashishidan jinsning taniyma ho'llanishini tavsiflovchi ko'rsatkich. Jins yuzasi bilan suv

tomchisining tutashgan eng chekka nuqtasidan o'tkazilgan urinma oralig'idagi burchak ho'llanish o'lchovi hisoblanadi. Buning qiymati urinmadan boshlab yuqori zichlikka ega bo'lgan suv-suyuqlik tomonga qarab hisoblanadi.

Chig'ir barabani (рус. Барабан лебёдки, ing. Winch drum) - chig'irning asosiy qismi hisoblanib, chig'ir bilan birga ishlaydi.

Chig'irning to'xtatgich qurilmasi (рус. Тормозное устройство лебедки, ing. The braking device of the winch) - chig'ir ishini boshqarish ikki kolokali tushirish to'xtatgichi va ko'tarish to'xtatgichi yordamida amalga oshiriladi. Tushirish to'xtatgichi chig'ir barabanini to'liq to'xtashini ta'minlashga, ko'tarish to'htatgichi esa burg'ilash asboblarini ko'tarish jarayonida to'xtatgich shaybalarini to'xtatishga xizmat qiladi.

Chiziqli oqim (рус. Линейный поток, ing. Linear flow) - g'ovakli muhitda suyuqlik va gaz harakati. Bunda barcha trayektoriyalar yig'indisi parallel to'g'ri chiziqlardan iborat. Ular har bir tekis kesimda sizilish tezligining harakat yo'nalishiga, hamma nuqtalarda parallel hamda bir-biriga teng bo'ladi.

Cho'kindi jinslar (рус. Осадочные породы, ing. Sedimentary rocks) - yer usti po'sti ustki qismilari uchun xarakterli termo-

dinamik sharoitlarda hosil bo'lgan jinslar.

Cho'kindi qatlam (рус. Осадочный слой, ing. Sedimentary layer) - yer po'sti ustki qism-lari uchun xarakterli termodinamik sharoitlarda hosil bo'lgan jinslar.

Cho'kindi tog' jinslari (рус. Осадочные горные породы, ing. Sedimentary rock) - yer yuzasidagi jinslarning suvda erib cho'kishi, havo, shamol va muzliklar harakatidan yemirilib to'planishidan hosil bo'ladi. Cho'kish jarayoni bir vaqtning o'zida mexanik, kimyoviy va biogen o'zgarishlar bilan birqalikda bo'ladi. Shunday qilib, cho'kindi tog' jinslari litosferaning fizik, kimyoviy va biogen ta'sirlari ostida yemirilgan va qayta to'plangan mahsulotdir. Bu jinslar quruqlikda ham, suv havzalari ostida ham to'planadi.

Cho'ktirma markazdan qochma nasos (рус. Электроцентробежный погружной насос, ing. Electric submersible pump) - ko'p pog'onali (50-600 pog'ona) markazdan qochma nasos umumiy valiga vertikal ravishda joylashtirilgan elektr motor (dielektrik moy bilan to'ldirilgan assinxron elektr motor) va elektromotorni suyuqlikdan himoya qilish uchun xizmat qiluvchi taglikdan iborat bo'lgan

shtangasiz chuqurlik nasosi.

Chuqur burg'ulash (рус. Бурение глубокое, ing. Deep drilling) - yuzlab-minglab metr chuqurlikdagi turli xil va toifadagi quduqlarni qurish.

Chuqurlik debitometri (рус. Глубинный дебитометр, ing. Deep debit meter) - burg' qudug'i tubiga nisbatan har xil chuqurlikdagi suyuqlikning sarf-lanish miqdorini o'lchaydigan asbob. U har bir qatlamning ayrim qismidan chiqayotgan neft va suv debitini o'lchaydi.

Chuqurlik nasosi qurilmalari (рус. Установка глубинного насоса, ing. Installation of a depth pump) - chuqur burg' quduqlaridan yer osti suvlarini yer yuzasiga chiqarishga xizmat qiladi. U suvning harorati 35°C, minerallanishi 2000 mg/l, mexanik aralashmalar miqdori 1000 mg/l bo'lganda qo'llaniladi.

Chuqurlik termometri (рус. Термометр глубинный, ing. deep-seated (subsurface) thermometer) - Burg'ilash va ishlatalish quduqlari tanasida va tubida neft, gaz, suv va hokazolarning haroratini aniqlash uchun o'lchash vositasi.

D Darsi (рус. Дарси, ing. Darcy) - g'ovakli muhit o'tkazuvchanligini o'lchash birligi. 1 Darsi uzunligi 1sm va 1 sm² yuzali

namuna orqali bosimlar farqi 1 atm. (0,1 MPa) va qovushqoqlik 1 mPa*s bo'lgan sizishdagi o'tkazuv-chanlikni bildiradi. Bunda suyuqlik sarfi 1 sm³/s ni tashkil etadi.

Darzli g'ovaklik (рус. Трещинная пористость, ing. Crack porosity) - ma'lum qalinlikdagi tog' jinsini kesib o'tuvchi yoriqlar hajmini shu jins hajmiga nisbati bilan o'lchanadigan kattalik.

Darzli o'tkazuvchanlik (рус. Трещинная проницаемость, ing. Crack permeability) - tog' jinsida yoriqlarning mavjudligi bilan ifodalanadi. Yoriqlarda flyuidlarning harakatlanish qonunlari bilan yoriqlarning ochilishi va yoriqlar tizimining geometriyasi bilan aniqlanadi.

Darzlik (рус. Трещина, ing. Crack) - tektonik kuchlar ta'sirida tog' jinslari tarkibida sodir bo'ladigan makro va mikrodarzliklar majmui. Paydo bo'lishga ko'ra darzlik tektonik va notekonik bo'lishi mumkin. Harakat kuchining harakteriga qarab cho'zilish, sindirish, kengayish va bo'shoq darzliklarga bo'linadi. Tog' jinsi qatlamlariga nisbatan mos, kesuvchi va normal kesuvchi darzliklarga ajraladi.

Darzlilik (рус. Трещиноватость, ing. Fracture) - tog' jinslarida dinamik radial (qatlam usti va

tagiga nisbatan me'yorli) siuvchi yoki tangensial (qatlam usti va tagiga nisbatan parallel) kuchlanishlari ta'sirida paydo bo'lgan va har xil kattalikdagi, o'zaro birlashib ketgan darzliklar tizimi. D. miqdori jihatidan ma'lum jins namunasidagi darzliklar hajmini uning umumiy hajmiga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi. Yer po'stida sodir bo'ladigan geologik jarayonlar D. paydo bo'lishiga olib keladi.

Darzlilik maydoni (рус. Площадь шероховатости, ing. Area of roughness) - yer po'stida hosil bo'ladigan kuchlanishlar ta'sirida paydo bo'lgan ko'p darzli maydonlar.

Deemulgator (рус. Деэмультагор, ingl. Demulsifier) - emulsiyaga uni buzish uchun qo'shiladigan modda. Neft-gazni qayta ishlashda - neft va moylardagi suv emulsiyalari sirtida adsorbsiyalana oladigan sirt-faol modda bo'lib, u suv zarrachalarining birikishi va cho'kishiga qarshilik qiluvchi himoya plyonkalarini buzadi.

Deemulsatsiya (рус. Деэмультация, ing. Demulsification) - suyuq dispersiyali muhit va suyuq dispers fazali dispers tizim. Emulsiyalar aralashmaydigan suyuqliklardan iborat.

Deflyatsiya (рус. Дефляция, ing. Deflation) - shamol ta'sirida yer

yuzasining ochilib qolishi va nuragan bo'shaq jinslarning bir joydan boshqa joyga ko'chishi.

Deformatsiya (рус. Деформация, ing. Deformation) - bu jismning massasi o'zgarmagan holda tashqi kuchlar ta'sirida hajm va shaklning o'zgarishidir. Tog' jinslari shartli ravishda mustahkam, plastik va sochiluvchan turlarga bo'linadi.

Dekompressiya (рус. Декомпрессия, ing. Decompression) - siqilish kuchining kamayishi. Yuqori bosimli muhitdan nisbatan past bosimki muhitga o'tish.

Dendritlar (рус. Дендриты, ing. Dendrites) - mineral moddalarining tolasimon yoriqlarda tez kristallanib tolasimon daraxtga o'xshash kristallar hosil bo'ladi.

Desorbsiya (рус. Десорбция, ing. Desorption) - Adsorbsiyaga teskarli jarayon bo'lib, adsorbent yuzasidan unga yutilgan moddalarini ajratish.

Detander (рус. Дегандер, ing. Expander) - gazning potentsial energiyasini mexanik energiyaga aylantiradigan qurilma. Shu bilan birga, ishlaydigan gaz soviydi. Havo va geliy kabi suyuq gazlarni ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladi. Eng keng tarqalgani porshenli va turbodetanderlar hisoblanadi.

Diagenez (рус. Диагенез, ing. Diagenesis) - «qayta tug'ilish»

yoki «qayta hosil bo'lish» degan ma'noni bildiradigan ma'noni bildiradi va shuning uchun uni ikki xil izohlash mumkin. Moddaning bir turdan ikkinchi turga o'tishi, masalan, suv havzalari tagidagi cho'kindilarini cho'kindi tog' jinslariga aylanishi bilan bog'liq jarayonlar majmuasidir.

Dietilenglikol (DEG) (рус. Диэтиленгликоль, ing. Diethylene glycol) - tabiiy va yo'ldosh gazlarni quritadigan absorbent va gidrat ingibitori. DEG glikol asosli ingibitorlardan (asosan, etilenglikol - EG, DEG va trietylenglikol - TEG) biri, rangsiz (texnik navlari och sariq. Molekulyar massasi 106,12, nisbiy (suv bo'yicha) zichligi 1,117, P=0,1013 MPa bosimda qaynash harorati 518 K. DEG ikki atomli spirtlar efiri hisoblanadi, shuning uchun ularda spirt va efirlarning kimyoviy xususiyatlari mujassamlangan. O'zbekistan gaz sanoatida gazni tayyorlash, qayta ishlash va uzatishda DEG keng qo'llaniladi.

Diffuziya (рус. Диффузия, ing. Diffusion) - egallangan hajmda ularning konsentratsiyasini o'z-o'zidan tenglashtirishga olib keladigan ikkita moddaning aralashishi (o'zaro kirib borishi) jarayoni. Ba'zi holatlarda, moddalardan biri allaqachon teng

kontsentratsiyaga ega va ular bitta moddaning boshqasida tarqalishi haqida bildiradi. Bunday holda, moddaning kontsentratsiyasi yuqori bo'lgan joydan past konsentratsiyaga ega bo'lgan joyga o'tish jarayoni sodir bo'ladi. Diffuziyaning misoli gazlarni aralashtirish (masalan, hidrlarning tarqalishi) yoki suyuqliklar (agar siyoh suvga qo'shilsa, bir munkha vaqt o'tgach suyuqlik teng rangga aylanadi).

Dinamik sath (рус. Уровень динамический, ingl. The level of dynamic) - quduqdagi suyuqlik sathi, uning ishlashi natijasida o'zgargan va hali asl tabiiy (statik) holatiga qaytmagan. Dinamik sath quduqtubi hududida dinamik qatlam bosim bilan mos keladi.

Dinamik tavsiflar (рус. Характеристики динамические, ingl. Dynamic characteristics) - seysmik razvedka metodining parametrlari. D.t. seismogram-madan aniqlanadigan vaqt bo'yicha kesimda to'lqinning xususiyatlari: tebranish shakli, amplituda va faza spektrlari, ko'r uchraydigan chastota hamda to'lqinlarning amplitudasi va energiyasi haqidagi ma'lumotlardan iborat.

Dispers tizimlar (рус. Дисперсные системы, ingl. Dispersion) - Bir modda zarrachalar ko'rinishida boshqa modda tarkibida bo'ladigan tizim

Distillyyat (рус. Дистиллят, ingl. distillate) - uglevodorod xomashyosini haydash yoki rektifikasiyalashda ajratib olinadigan fraksiya.

Distillyatsiya (рус. Дистилляция (перегонка), ingl. Distillation (sublimation)) - suyuq aralashmaning tarkib jihatdan bir-biridan farq qiluychi fraksiyalarga ajralishi. D. aralashma tarkibidagi komponentlarning qaynash harorati turlichaligiga asoslangan uch bosqichdan (bug'lanish, bug'larni uzatilishi va suyuqlikka kondensatsiyalanishi) iborat jarayon.

Divergent chegaralar (рус. Дивергентные границы, ingl. Divergent borders) - litosfera plitalarini bir-biridan ajralish chegaralari. Aslida divergentsiya ikki ajralayotgan plitalar chegarasini anglatadi. Riftlar uchun xos.

Divergentsiya (рус. Дивергенция, ingl. Divergence) - geologiyada qit'alar, plitalarni ikki tomonga ajralishi va tarqalishi. Plitalar tektonikasida riftogenet natijasida qit'alarni bir - biridan ajralishi. Masalan, Shimoliy Amerika va Yevropa plitasini ajralishi va Atlantika okeanini ochilishi. Hosil bo'lgan chegaralar divergent deb ataladi.

Dizel (setan) indeksi (рус. Дизельный индекс, ingl. Diesel index) - dizel yoqilgisi sifat

ko'rsatkichi bo'lib uning alangalanishi va bug'lanishini tavsiflaydi, va ko'p jihatdan ushbu yoqilg'ining (ayniqsa past haroratlarda) ishga tushirish tavsifi bo'lib hisoblanadi.

Dizel yoqilg'isi (рус. Дизельное топливо, ingl. diesel fuel) – ushbu atama «dizel dvigatel» atamasidan kelib chiqqan. Dvigatel uning ixtirochisi – 1892 yilda ushbu dvigatelnинг ilk namunasini ixtiro qilgan nemis mexanigi Rudolf Dizel nomiga atab qo'yilgan. Shuningdek «yoqilg'i» atmasiga ham qarang.

Doza (рус. Доза, ingl. dose) - ma'lum biror moddaning, nurlanish va shunga o'xshashlarning aniq o'lchangan miqdori.

Drossel (рус. Дроссель, ingl. Butterfly governor) - yonilg'i, gaz, bug' o'tishining ma'lum bir kesimda torayishi, siqilishi. Gazni drossellash burama klapan, jo'mrak, quvur uzatgichning torayishi, siqilishi orqali amalga oshiriladi.

Drossellash (рус. Дросселирование, ingl. Throttling) - quvur o'tish kanalining torayishi (drossel) orqali oqishida gaz yoki bug 'bosimining pasayishi.

Dumcha(Xvostovik) (рус. Хвостовик, ingl. Shank) - ishlatalish quvurining pastki, toraygan qismi. Burg'ulash paytida o'tish samaradorligini oshirish va tejash

uchun toraytirish amalga oshiriladi.

Dyunalar (рус. Дюны, ingl. Links) – dengiz, ko'l va daryoning sohilga yaqin qismida shamol ta'sirida qumli material to'planishidan hosil bo'ladi.

E

Effuziv jinslar (рус. Эффузивные породы, ingl. Effusive rocks) – magmaning yer yuziga oqib chiqib qotishidan hosil bo'ladigan jinslar.

Effuziv magmatizm (рус. Эффузивный магматизм, ingl. Effusive magmatism) – yer yuziga vulqon mahsulotlari lavalar, qattiq jism bo'laklari, gazlar va bug'larning otolib chiqishi.

Ehtimoliy geologik baholash (рус. Вероятностная геологическая оценка, ingl. Probabilistic geological assessment) – geologiya-qidiruv ishlari bo'yicha texnologik strategiya loyiha-laridan biri. Ehtimoliy geologik baholash moduli, asosan, seysmorama-zvedka, burg'ulash, namunani tahlil qilish va qatlam suyuqliklari natijalari asosida olingan ma'lumotlar asosida inventarizasiya va resurslarni baholash sifatini yaxshilashi kerak.

Ekspluatatsion quvurlar birikmasi (рус. Соединения эксплуатационных колонн, ingl. Connections of

production columns) - neft, gaz va suvlarni qatlamlardan quduq og'zigacha yo'qotmasdan uzatishga mo'ljallangan quvurlar birikmasi.

Ekstragent (рус. Экстрагент, ingl. extractant) – ekstraksiya uchun ishlataladigan selektiv erituvchi.

Ekstraksiya (рус. Экстракция, ingl. Extraction) – tanlovchi erituvchilar yordamida suyuq va qattiq moddalarini bo'lish jarayoni.

Ekstrakt (рус. Экстракт, ingl. extract, solvent extract) – neft xom-ashyosi komponentlarini ekstragent (selektiv erituvchi) bilan ajratib olingan aralashma.

Ekzogen geologik jarayonlar (рус. Экзогенные геологические процессы, ingl. Exogenous geological processes) – yer po'stining yuzasida tashqi kuchlar tufayli paydo bo'ladigan geologik jarayonlar.

Elektr detonator (рус. Электродетонатор, ingl. Electric detonator) – portlatish moddalarida detonasiyani qo'zgatishda qo'llaniladigan vosita. E.d. mexanik yoki issiqlik impulsi yordamida ishlaydi. Kapsyl-detonator (KD), elektr detonator (ED) va poroxli generator (PG) turlari bor. Burg' qudug'ida otish va portlatish apparatlarida qo'llaniladi.

Elektr dvigatel (рус. Электродвигатель, ingl. Electromotor) – elektr energiyasini mexanik

energiyada aylantiruvchi mashina. Tok turiga qarab u o'zgarmas va o'zgaruvchan tok dvigateliga bo'linadi.

Elektr teshkich (рус. Электроперфоратор, ingl. Electro-perforator) – mahsuldor qatlamlarni ochish, ulardan quduqqa neft, gaz va suvni kirishi uchun quduq devorida mayda teshiklar hosil qilish. O'qli, torpedali, kumulyativli teshish usullari mavjud. O'qli teshishda quduqqa elektr uzatgichda o'q otuvchi moslama tushirilib, elektr impulsi beriladi va kerakli yo'nalishda barobar o'q otiladi. O'qlar quvurlar birikmasini, sement halqaasini teshib jinslarga kirdi. Torpedali teshgichlar ham elektr uzatgichda tushiriladigan moslamalarda tushiriladi va diametri 22 mm li parchalanuvchi zaryadlar otiladi. Kumulyativ teshish o'qsiz va zaryadsiz otadigan teshgichlarda bajariladi.

Elektrobur (рус. Электробур, ingl. electrical drill, electrodrill) – chuqur quduqlarni, asosan, neft va gaz uchun burg'ilashga mo'ljallangan, cho'ktirma elektr motoriga ega tub burg'ulash mashinasi.

Elektrod (рус. Электрод, ingl. Electrode) – elektr maydonini hosil qilish yoki maydonni o'rGANISHDA mo'ljallanilgan har xil shakl (nuqtali, sharsimon, silindrik) va

turdagi o'tkazgich. Geofizik ishlarda E. ning o'lchovchi, tok b-n ta'minlovchi va fokuslovchi turlari qo'llaniladi.

Elektrodegidrator (рус. Электро-дегидратор, ing. Electrical-dehydrator) - elektr maydonida neft xomashyosidan suvni ajratuvchi jihoz.

Elektroizolyasion moy (рус. Электроизолирующее масло, ingl. electric isolating oil) - elektr qurilmalar (transformatorlar, kondensatorlar, kabellar va boshq.) ingichka tashuvchi qismlari izolyasiyasini ta'minlash uchun suyuq dielektrik. Elektroizolyasion moylarga transformator, kondensatorva kabel moylari, o'chirgichlar uchun moylar kiradi (muvofig atamalarga qarang).

Elektron (рус. Электрон, ing. Electron) - bir manfiy zaryadli elementar zarracha. E. barcha atom va molekulalarning tarkibiga kiradi hamda moddaning tuzilishi va xossalarda muhim o'rinn egallaydi. Bir hajm birligidagi tog' jinslarida mavjud bo'lgan E.lar miqdori ularning zichligiga to'g'ri proporsional. Gamma-gamma karotajda tarqalgan gamma-nurlarning jadalligi E.lar miqdoriga bog'liq. Jinslarning zichligi qancha katta bo'lsa, o'lchanayotgan gamma-

nurlarning jadalligi shuncha kichik bo'ladi.

Emulgator (рус. Эмульгатор, ingl. Emulgator) - emulsiyalar (sovun, jelatina va ko'plab sintetik sirt-fao moddalar) hosil qilishga ko'maklashuvchchi modda.

Emulgator reagentlar (рус. Pearentsy emul'gatorov, ingl. Emulsifier reagents) - burg'ilash eritmasi turg'unligini ta'minlaydigan va ularning sifatini yaxshilaydigan emulgator (emulsiya hosil qilishga yordam beradigan modda)lar. E.r. sifatida naften va sulfonaften kislotalar yog'larining turli hosilalari - neftni qayta ishlaydigan va neft-kimyo zavodlari chiqindilari ishlataladi.

Emulsion burg'ilash eritmalar (рус. Эмульсионные буровые растворы, ingl. Emulsion drilling fluids) - burg'ilash eritmasi sifatini yaxshilash maqsadida neft mahsulotlari qo'shib tayyorlangan eritma. Ikki turdag'i emulsiyalar ajratiladi. Birinchi turdag'i emulsiyalar da suvli muhit neft mayda zarra-globul, ikkinchi - neftli muhitda suv zarrachalar ko'rinishida bo'ladi. Ikkinchi turdag'i emulsiyalar, shuningdek invert emulsiyalar deb ham ataladi.

Emulsiya (рус. Эмульсия, ingl. Emulsion) - ikkita o'zaro bir-birida erimaydigan suyuqliklardan iborat dispers tizim

bo'lib, ularning bittasi (dispersfaza) ikkinchisida (dispersnoy srede) taqsimlangan bo'ladi.

Endogen geologik jarayonlar (рус. Эндогенные геологические процессы, ingl. Endogenous geological processes) - asosan ichki kuchlar tufayli arning ichki qismida paydo bo'ladigan geologik jarayonlar.

Energetik moy (рус. Энергетическое масло, ingl. Energetic oil) – turbina, elektroizolyasyon va kompressor moylar (muvofig atamalarga qarang).

Eol yotqiziqlari (рус. Отложение эола, ingl. The deposition of Eola) – qumli va changli mahsulotlarni o'trindi holatda shamol uchirib kuchirishi va ularni havodan yerga yog'dirishi yoki yer yuzasi bo'ylab ilashtirib, yumalatib uchirishi natijasida hosil bo'ladi.

Eol jarayonlar (рус. Процессы эола, ingl. Eol processes) - shamol harakatidan relyef paydo bo'ladigan jarayonlar.

Eriqan gaz rejimi (рус. Режим растворённого газа, ingl. Dissolved gas mode) - neft uyumi rejimi bo'lib, qatlama bosimi to'yinish bosimidan pasayganda gaz eritmadan ajralib chiqadi, ajralayotgan gaz pufakchalar kengayib, neftni quduq tomon itaradi.

Erish harorati (рус. Температура плавления, ingl. Melting

temperature) – qattiq jismning suyuqlikka fazaviy o'tishi boshlanadigan neft mahsuloti minimal harorati.

Erish issiqligi (рус. Терплота плавления, ingl. Fusion heat) - moddaning kritik holatdan suyuq holatga o'tishida sarf bo'ladigan issiqlik. Bunday jarayon har bir modda uchun o'ziga xos haroratda sodir bo'ladi. Modda eriy boshlagan harorat uning erish harorati deb ataladi. Solishtirma E.i. 1 kg qattiq kristalli moddani suyuqlikka aylantirish uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdorini ifodalovchi fizik kattalik bilan tavsiflanadi.

Erituvchi (selektiv, ajratib oluvchi) (рус. Растворитель, ingl. Selective solvent) – tozalanadigan neft mahsulotining nomaqbui, yoki aksincha, kerakli komponentlarini ajratib eritish va ushbu suyuqlikni keyingi regenerasiysi uchun suyuqlik.

Erkin suvlar (рус. Свободные воды, ingl. Free waters) – yer po'stlog'ida erkin harakat qiladigan tog' jinsidagi katta bo'shilqlarni to'ldiruvchi tortish kuchi ta'siridagi suvlar.

Erlift (рус. Эрлифт, ingl. Airlift) – siqilgan havo bilan aralashtirilgan pufakchalar energiyasi tufayli suyuqlikni ko'tarish uchun qurilma.

Eroziya (рус. Эрозия, ing. Erosion) - tog' jinslari, tuproq va boshqa tabiiy hosilalarining xususiyatlari o'zgarib, ularning yaxlit sirti parchalanisi va zarralarining bir joydan boshqa joylarga ko'chib ketishi. Tuproq eroziysi ikki xil bo'ladi: tabiiy (geologik) va sun'iy (tezlashgan)

Eruvchanlik (рус. Растворимость, ing. Solubility) - moddaning suvda yoki boshqa erituvchida erish xususiyatidir. Suvda qattiq, suyuq va gaz holatidagi moddalar erishi mumkin. Barcha moddalar suvda eruvchanligiga ko'ra uch guruhga bo'linadi: 1) yaxshi eriydigan, 2) oz eriydigan va 3) deyarli erimaydigan moddalar. Ammo shuni qayd etib o'tish kerakki, mutlaqo erimaydigan modda yo'q. Agar suvgaga shisha yoki oltin yoki kumushdan yasalgan tayoqcha botirib qo'yilsa, ular suvda oz miqdorda bo'lsa-da eriydi. Ma'lumki, kumush yoki oltinning suvdagi eritmasi barcha mikroblarni o'ldiradi. Eritmaning yoki erituvchining muayyan miqdorida bo'ladijan erigan modda miqdori eritmaning kontsentratsiyasi deyiladi.

Etalonlashtirish (рус. Этalonирование, ing. Calibration) - geofizik asbob ko'rsatkichlarini standart birliklarda ifodalash (%. Graduirovka). Tog' jinslarining

(minerallarning) fizik xossalarini o'lhashda asbob ko'rsatgan ma'lumotlarni standart birliklarda ifodalashda hamda ularning radioaktiv nur tarqatishini, magnitga ta'sirchanligini va boshqa xossalarini o'lhashda qo'llaniladi.

Etan (рус. Этан, ing. Ethane) - C₂H₆, rangsiz, hidsiz, ta'msiz gaz, suv bilan aralashmaydi, yonuvchan, portlash xavfi juda katta. Havoga nisbatan zichligi - 1,04. O'z-o'zidan yonish harorati - 510°C, Portlash oralig'i (PO) - 3%-5%, Ruxsat etilgan miqdori (REM) - 300 mg/m³.

Etan fraksiyasi (рус. Этановая фракция, ingl. ethane fraction) - asosan etandan iborat bo'lgan va eng oxirgi gazlarni qayta ishlashdan olinadigan tor uglevodorod fraksiyasi. Piroliz uchun xom-ashyo, sovituvchi agent sifatida va boshqa maqsadlarda qo'llaniladi.

F

Farg'ona neftni qayta ishslash zavodi (рус. Ферганский нефтеперерабатывающий завод, ing. The Fergana oil refinery) - Farg'ona neftni qayta ishslash zavodi 1958 yildan ishlay boshlagan. F.n.q.i.z.da neft birlamchi qayta ishlanadi va katalitik o'zgartiriladi, asfalsizlantiriladi, surkov moylari

selektiv va gidravlik tozalanadi, qoramoy, parafin va b. ishlab chiqariladi.

Favvora archasi (рус. Фонтанная арматура, ing. Christmas tree) – favvorali burg'ilash quduqlari og'ziga o'rnatiladigan asbob. Suyuqlik oqimi ko'tariladigan favvorali quvurlarni tortib turishni va favvorali quvurlar va ishlatish quvurlar ustuni orasidagi bo'shliqni berkitib q'oyishni ta'minlaydi. F.a. kuchli qarshi bosimni ushlab, hatto favvorali quduqni butunlay berkitib turishi lozim. F.a. uch asosiy qismidan iborat: 1) quvurlar ustuni boshchasi- F.a. ning pastki qismi; 2) quvur boshchasi –F.a. ning o'rtasida joylashgan; 3) favvora uskunasi – F.a. ning yuqori qismida joylashgan.

Favvora quvvati (рус. Мощность фонтанизирования, ing. The power flowing) - bir kecha-kunduzgi debiti bo'yicha gaz va neft favvoralari to'rtta toifaga bo'linadi: Kichik (gaz<0,5 mln m³, neft <100 m³); o'rtacha (gaz 0,5-1 mln m³, neft 100-300 m³); kuchli (gaz 1-10 mln m³, neft 300-1000 m³); juda kuchli (gaz > 10 mln m³, neft >1000 m³).

Favvorali burg'ilash qudug'i (рус. Фонтанная буровая скважина, ing. The fountain is a borehole) – neft qatlaming tabiiy energiyasi tufayli yer yuzasiga

neft oqib chiqadigan quduq. Quduqni favvoralanishida qulay sharoit yaratish maqsadida quduqqa neft qatlaming ustigacha maxsus favvorali quvurlar (odatda diametri 2dan 4 dyumgacha) tushiriladi. Har qaysi burg'ilash qudug'i og'ziga favvora armaturasi o'rnatiladi.

Favvorali gorizont (рус. Фонтанный горизонт, ing. Fountain horizon) – qatlam energiyasi neftni erkin holda favvora ko'rinishda yer yuzasiga chiqara oladigan neftli gorizont. F.g. dagi neft favvorali neft deb ataladi.

Favvorali ishlatish (рус. Фонтанная эксплуатация, ing. Fountain operation) – quduq yoki qatlamni ishlatish usuli. Bunday usulda quduqdan neft faqat qatlam energiyasi evaziga yoki sarflangan qatlam energiyasini tashqaridan to'ldirish hisobiga oqib chiqadi.

Favvorali quduqlarning asbob-uskunalar (рус. Оборудование фонтанных скважин, ing. Equipment for fountain wells) - neft va gaz burg'ilash qudug'ining favvoralanishini ogohlantirishga va quduq og'zini germetik-lashtirishga mo'ljalangan moslamalar majmui. Bu asbob-uskunalarga preventor, ploshkali preventor, manifold, burg'ilash surilmasi, satuser, favvora armaturasi va boshqalar kiradi. Bu

moslama yordamida favvora quduqlari nazorat qilinib tartibga solinadi, zarus paytlarda esa favvoralar bekitiladi.

Faza muvozanati doimiysi (рус. Константа фазового равновесия, ing. Phase equilibrium constant) - Bug' va suyuq muvozanat fazalarida komponentning molyar kontsentratsiyasining nisbati

Fazali holat (рус. Фазовое состояние, ing. Phase state) - qatlamni to'yintiradigan moddalarning qatlam bosimi va haroratiga bogaikligi. Qatlardagi neft va gaz asosan ugolvodorodli moddalarning murakkab aralashmasi bo'lib, neft va gaz uyumlarini ishlashda qatlam bo'shliqlaridagi suv muhim rol o'ynaydi. Qatlam bosimi va haroratining o'zgarishi qatlamni to'yintiruvchi moddalarning fazali holatini o'zgarishiga sabab bo'ladi. Neft va gaz uyumlarini ishlashda neft, gaz, kondensat va suvning olish miqdorini bashorat qilish va ishslashni boshqarishda ularning fazali holatini bilish zarur.

Fazaviy o'tish kritik harorati (рус. Критическая температура фазового перехода, ing. Critical phase transition temperature) - kritik nuqtada harorat qiymati. Kritik haroratdan yuqori haroratlarda gaz har qanday bosimda kondensatsiyalanmaydi.

Filtrat (рус. Фильтрат, ingl. filtrate) -filtrlash yo'li bilan tozalangan mahsulot.

Filtratsiya (рус. Фильтрация, ing. Filtration) - suyuqlik yoki gazning g'ovakli muhit yoki donli qatlam orqali harakati.

Filtrash (рус. Фильтрация, ing. Filtration) - turli jinsli tizimlarni g'ovak filtr to'siqlar yordamida fazalarga ajratish jarayoni. Filtr to'siqlar aralashmaning qattiq (dispers) fazasini ushlab qoladi, suyuq (dispersion) fazasini o'tkazib yuborish qobiliyatiga ega. Filtr to'siqlar yoki bundan buyon filtrlar sifatida g'ovakli materiallar qo'llaniladi (masalan, tur pardalar, karton, gazlamalar, sochiluvchan materiallar, shag'al, qum, g'ovak polimer materiallar, keramika, metallokeramika va boshqalar). Filtrash jarayoni bosimlar farqi yoki markazdan qochma kuchlar maydoni ta'sirida amalga oshiriladi.

Fizik bog'liq suv (рус. Физически связанные воды, ing. Physically bound water) - jinslarning mineral zarrachalari yuzasini yupqa parda bilan o'rab turgan suv. Parda qalinligi suv molekulasi diametridan bir necha yuz marotaba katta bo'lishi va minerallar yuzasida molekulyartortishish kuchlari ta'sirida ushlanib turishi mumkin.

Fizik bo'shliqlik (рус. Физическая пустотность, ing. Physical emptiness) - tog' jinslaridagi ochiq va yopiq bo'shliqliklari yig'indisi. Bo'shliqlarning shakli, o'lchami, o'zaro joylashishi inobatga olinmaydi.

Fizik o'zgarishlar (рус. Физические изменения, ing. Physical changes) - moddalarning tarkibi o'zgarmasdan sodir bo'ladigan hodisalar fizik o'zgarishlar deyiladi.

Flanets (рус. Фланец, ing. Flange) - quvur, armatura, rezervuar, vallar va boshqalarning birlashtiruvchi qismi; odatda, boltlar yoki shpilkalar o'tkazish uchun bir tekisda joylashgan teshiklari bo'lgan yassi halqa yoki diskdan iborat bo'ladi.

Flegma (рус. Флегма, ingl. Fluid flow; condensate; reflux) - rektifikastion yoki absorbstion kolonnadagi suyuq oqimlar.

Fluktuatsiya (рус. Флуктуация, ing. Fluctuation) - fizik kattaliklarning qiymatini o'rtacha ko'rsatkichdan tasodifan chetga chiqishi. F. radioaktiv karotajda ko'r uchraydi. Gamma-nurlanish va neytronlar zinchligi miqdorlarining o'rtacha qiymati atrofida tartibsiz o'zgarish jarayoni bilan bog'liq. Uni hisobga olmaslik geofizik parametrлarni hisoblashda xatoga olib keladi. F.ni kamaytirish uchun integrallovchi

uyaning vaqtin kattaroq olinishi lozim. Bu esa, o'z paytida radioaktiv karotaj egri chiziqlarining, burg' quduqda qayd qilish tezligining o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun texnik yo'riqnomalar talabi batafsil bajarilishi kerak.

Flyuid (рус. Флюид, ing. fluid) - deformatsiyada suyuqlik mexanikasi qonunlari bilan ta'riflanishi mumkin bo'lgan har qanday modda. Neft va gaz ishlarida flyuid, odatda, qatlam gazi, neft va suv deb tushuniladi.

Formatsiyalar (рус. Формации, ing. Formations) - mintaqaning tektonik evolyutsiyasining muayyan bosqichlari bilan bog'liq genetik, stratigrafik yoki boshqa xususiyatlar bilan birlashtirilgan jinslar jamoalari.

Fotokalorimetriya usuli (рус. Метод фотокалориметрии, ing. The method of photocalorimetry) - suyuqliklardan yorug'lik oqimi o'tayotganda, bu oqim suyuqlik bilan yutilishini o'lchashga asoslangan. Har xil suyuqliklarga bir xil yorug'lik nuri tushirilsa, ularning bu suyuqliklarda yutilishi (to'g'rirogi sinishi) har xil bo'ladi.

Foydali qazilmalar turlari (рус. Типы полезных ископаемых, ing. Types of minerals) - foydali qazilmalar uch guruhg'a bo'linadi: 1) metall foydali qazilmalari - sof

metallar, qora, rangli, siyrak va radioaktiv metall ma'danlari, shuningdek nodir yer element ma'danlaridan iborat; 2) nometall foydali qazilmalarga tog' konkimyo xom ashyosi (turli tuzlar, gips, barit, oltingugurt, fosforit, apatit), qurilish materiallari, qimmatbaho texnik toshlar kiradi; 3) yonuvchi foydali qazilmalarga neft, gaz, torf, toshko'mir, yonuvchi slanetslar kiradi. Foydali qazilmalar fizik holatiga ko'r'a qattiq, suyuq va gazsimon bo'ladi.

Fraksiya (рус. Фракция, ingl. Fraction) – neft-gazni qayta ishlashda uglevodorod xom-ashyosining ma'lum harorat intervalida uzluksiz qaynab chiqadigan organik birikmalar majmui; yoki boshqacha, ma'lum harorat intervalida ushbu uglevodorod xom-ashyosining bir qismi.

Fraksiya tarkibi (рус. Состав фракции, ingl. Fractional concentration) – qaynab chiqadi gan mahsulot miqdorining qaynab chiqish haroratidan bog'liqligi bo'lib, olingan mahsulot umumiyl miqdoriga nisbatan massa yoki hajm foizlarda ifodalangan bo'ladi.

Frez (рус. Фреза, ingl. Cutter) – quduqqal tushib qolgan quvur boshidagi singan va egilgan metallni kesish hamda tutuvchi

asbob bilan egallab olishni ta'minlovchi qirrali asbob.

Frezerli burg'i (рус. Фрезерное долото, ingl. Milling bit) - monolit kubikdan iborat qattiq qotishma bilan mustahkamlangan burg'i. Parrakli burg'iga nisbatan tuzilishi oddiy. F.d. bilan quduq; tubida qolib ketgan sharoshka, metall predmetlar, beton va boshqa tiqinlar burg'ilanadi. F.d. ba'zi bir kamchiliklarga ega: burg'ilash mexanik tezligining kamligi, qattiq jinslarni burg'ilashda samaradorligining pastligi, gil va boshqa qovushqoq, plastik jinslarni burg'ilashga yaroqsizligi va b.

G

Gach (рус. Гач, ingl. Slack wax; slop wax) – distillyat moylarni parafinsizlantirishda olinadigan xom-ashyo-parafin (tozalanmagan parafin) nomlash uchun ishlatiladigan atama. XIX asr o'rtalarida Avstriyada parafin ishlab chiqarish rivojlanishi endi boshlangan paytda paydo bo'lgan: nemis tilining mahalliy dialektlaridan birida «gach» (yoki «xach») «bo'tqa, pyure» ma'nosini anglatadi. Parafin ishlab chiqaruvchi ishchilar oddiy bo't-qaga o'xshab ketadigan xom, moyli parafinni aynan shunday ataganlar.

Gamma karotaj (GK) (рус. Гамма

каротаж (ГК), ing. Gamma logging (GL)) - radioaktiv karotaj turi. GK usuli bilan tog' jinslarining tabiy radioaktivligi o'rGANiladi. Quduqda gamma karotaj radiometri tushiriladi. Uning tarkibiy qismini gamma nurlarning indikator (hisoblagich)lari tashkil etadi. Hisoblagichdan tashqari, quduqda tushirilgan zondda indikatori elektr toki bilan ta'minlovchi manba va hisoblagichda hosil bo'lgan tok impulsining amplitudasini oshiruvchi elektron kuchaytirgich ham bo'ladi.

Gamma-gamma karotaj (GGK) (рус. Гамма-гамма каротаж (ГГК), ing. Gamma-gamma logging (GGL)) - radioaktiv karotaj turi. GGKda burg'ilash qudug'idagi tog' jinslarini gamma nurlar bilan nurlantirib, ular atomlaridan qaytgan gamma nurlar o'lchanadi. Tog' jinslarni nurlantirish uchun radioaktivli seziy qo'llaniladi. Geofizik apparatrining RKS-1, RGP-2 va SGP-2 turlari keng ishlatiladi.

Gamma-syomka (рус. Гамма-съёмка, ing. Gamma shooting) - foydali qazilma konlarini ishlash va razvedka qilishning radioimetrik usuli. G.-s. radiometri SRP-68-01 b-n bajariladi. Tadqiqot olib borilayotgan hudud gamma-nurlatuvchi elementlarni aniqlashda foydalaniladi.

Gayka (рус. Гайка, ing. Nut) - burg'ilash mexanizmlari qislamarini bir-biriga mahkam-lashda ishlatilayotgan detal; vint yoki boltga kiritiladi. Gayka ichi kertikli, olti yoki to'rt qirrali va dumaloq bo'ladi. Tojsimon va qulolqi gaykalar ham bor. Gaykalarning o'lchamlari standartlardan olinadi, lekin balandligi 0,8 d dan kichik bo'lmasligi kerak. (d-bolt yoki vintdag'i kertikli qismning tashqi diametri). Gayka turli po'latlar, rangli metall va polimerlardan tayyorlanadi. Ular tokarlik dastgohlarda dumaloq yoki qirrali qilib qirqib olinadi; keyin maxsus dastgohlarda kertik ochiladi.

Gaz o'tkazuvchanlik (рус. Газопроницаемость, ing. Gas permeability) - har xil tog' jinslarining gaz o'tkazish qobiliyati. Suvdan, neftdan bo'sh g'ovak, kovak, teshik va yoriqlardan gazning tarqalishi har xil bosimlar bilan belgilanadi. Gaz o'tkazuvchanlik darsi birliklarida ifodalanadi. Qum va qumtoshlarning gaz o'tkazuvchanligi 2-3 darsi, ko'pincha bir necha o'nlab millidarsini tashkil etadi. Lekin ko'p o'tkazuvchan jinslarda gaz o'tkazuvchanlik 10^3 dan 10^6 gacha darsini tashkil qiladi.

Gaz (neft, kondensat) ombori (рус. Хранилище газа (нефти, конденсата), ing. Storage of gas

(oil, condensate)) - mavsumiy gaz (neft, kondensat) iste'molining nomutanosibligini qoplash maqsadida (ishlab bo'lingan yoki oxirgi ishlash davridagi) gaz, gazzkondensat, neft konlari, suvli qatlamlar va toshuzli yotqiziplarda, gaz (neft, kondensat)ni saqlashga mo'ljallangan omborlar. Gaz (neft, kondensat) ombori tabiiy yoki sun'iy yaratiladi. G.o. yer osti va usti texnologik us-kunalari yordamida gaz (neft, kondensat)ni qabul qilish, saqlash va olishni ta'minlashi zarur.

Gaz bosim (рус. Давление газа, ing. Gas pressure) - gaz molekulalarining issiqlik ta'sirida kengayishidan hosil bo'lgan bosim. Odatda kgs/sm^2 yoki atm ($1 \text{ atm}=1,03 \text{ kgs}/\text{sm}^2$) da ifodalanadi.

Gaz bosimli rejim (рус. Газонапорный режим, ing. Gas-pressure mode) - neft-gazli uyumning rejimi, bunda gaz qalpog'idagi gazning bosimi ta'sirida neft qatlamdan siqib chiqariladi.

Gaz haydash qudug'i (рус. Газонагнетательная скважина, ing. Gas injection well) - neft yoki gaz uyumidagi quduq bo'lib, qatlamga gaz haydash uchun xizmat qiladi.

Gaz holatining asosiy qonunlari (рус. Основные законы газового состояния, ing. The basic laws of

the gas state) - Boyl-Mariott, Gey-Lyussak, Dalton, SHarl, Klayperon-Mendeleev, Van-der-Vals, Avogadro va boshqa qonunlar. Bu qonunlar bosim, harorat va hajm orasidagi o'zaro nisbatni aniqlab, gazning holatini tavsiflaydi.

Gaz kondensati (рус. Конденсат газовый, ing. Condensed fluid) - tabiiy gazdan ajratilgan va suyuq uglevodorodlar aralashmasidan iborat mahsulot.

Gaz namunasi (рус. Проба газа, ing. Gas sample) - quduqlarga maxsus asboblar (odatda, atmosfera havosi kirishining oldini olib aspirator yordamida) tushirilib olingan va zichlikda saqlanadigan, tajribaxonalarda fizik-kimyoviy xossalari tahlil qilinadigan gaz namunasi.

Gaz omili (рус. Газовый фактор, ing. Gas-input factor, gas-oil ratio, output gas-oil ratio) - neft quduqlari mahsulotidagi gaz miqdori. m^3/m^3 , m^3/t da o'lchanadi.

Gaz shudring nuqtasi (рус. Точка росы газа, ing. Gas dew point) - uglevodorodlarni suyuqlikka aylantirish shartlarini belgilovchi ko'rsatkichdir; uglevodorod gazini bir fazali holatda tashish uchun muhimdir, bu gaz quvurining samaradorligini oshiradi,

Gazdag'i namlik miqdori (рус. Благосодержание газа, ing.

Moisture content of gas) - qatlamda 1m³ gazdagi bug'simon suvning miqdori.

Gazga to'yingan neft (рус. Нефть насыщенная газом, ing. Oil rich with gas) - qatlam bosimi gazga to'yinganlik bosimiga teng yoki yuqori bo'lмаган qatlamdagи neft.

Gazga to'yinmagan neft (рус. Нефть недонасыщенная газом, ing. Oil undersaturated with gas) - qatlam bosimi neftning gazga to'yinganlik bosimidan yuqori bo'lган qatlamdagи neft.

Gazgolder (рус. Газгольдер, ing. Gasholder) - gazni qabul qilish, saqlash va uni taqsimlash, gaz quvurlarga yoki gaz qayta ishlanadigan qurilmalarga uzatadigan statsionar po'lat inshoot. G.ning o'zgaruvchan va o'zgarmas hajmli xillari mavjud. SHaharda o'zgarmas hajmli (yuqori bosimli)si qo'llaniladi. G. shakli 1,8 MPa bosimga mo'ljallangan sferik tubli silindr (uzunligi 17 m, diametri 3 m) yoki shar (diametri 10 m)dan iborat. Boshqa turlari ham bor.

Gazkompressor stantsiyasi (рус. Газокомпрессорная станция, ing. Gas compressor station) - bosimni ko'tarish va gazni magistral quvurlar orqali uzatish uchun xizmat qiluvchi qurilma. U magistral gaz quvuriga kiruvchi qurilmalar majmuasining boshqarish elementi bo'lib hisoblanadi.

Kompressor stantsiyalari neft (neft-gaz, neft- gazkondensat) uymulariga gaz haydashda, gazliftli neft olishda ishchi omil - gaz bosimini ko'tarishga ham xizmat qiladi.

Gaz-kondensat koni (рус. Газоконденсатное месторождение, ing. Gascondensate field) - gaz kondensati uyumi bor kon. Kondagi tog' jinslarida uglevodorodlar gazsimon holatda bo'ladi. Qatlam bosimi kamayishi bilan uglevodorodlarning ma'lum qismi suyuq holatga o'tadi. G.k. oddiy gaz konidan gazning tarkibida yuqori molekulalgi uglevodorodlar mavjudligi bilan farqlanadi. Qaynash haroratiga qarab uglevodorodlar benzin, kerosin va gazoyl fraktsiyasiga ajraladi. Mazkur fraktsiyalar qayta bug'lanish natijasida gaz tarkibiga qaytadan qo'shilib ketadi.

Gazlarni benzinsizlantirish (рус. Отбензинивание газа, ing. Gas-gasoline processing) - uglevodorod gazlaridan etan, propan, butan va gaz benzini komponentlarini ajratib olish.

Gazlarni quritish (рус. Осушка газов, ing. Gas dewatering) - gaz va gaz aralashmalaridan namlikni ajratish.

Gazlift (рус. Газлифт, газлифтная добыча, ing. Gaslift) - ortiqcha bosim ostida bo'lган gaz

energiyasi tufayli quduqdan suyuqlikni ko'tarish usuli. Neft va qatlam suvlarini ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Ishchi agent-kompressor tomonidan siqilgan gaz (kompressor gazlift) yoki havo (erlift), shuningdek tabiiy bosim ostida tabiiy gaz (kompressor gazlift).

Gazlilikning ichki chegarasi (рус. Внутренний контур газоносности, ing. Gas contour) - gaz-neft yoki gaz-suv tutash yuzasining gaz saqlovchi qatlam tagi bilan kesishgan chizig'ining gorizontal tekislikdagi proyeksiyasi.

Gazlilikning tashqi chegarasi (рус. Внешний контур газоносности, ing. External gas contour) - gaz-neft yoki gaz-suv tutash yuzasining gazli qatlam usti bilan kesishgan chizig'ining gorizontal tekislikdagi proyeksiyasi. Gazlilik chegarasidan pastga tomon qatlamning yotishi bo'yicha neft yoki suv uyumi joylashadi.

Gaz-neft olgich (рус. Пробоотборник, ing. Sampler) - burg' quduqlaridan gaz va neft namunalarini olishga mo'ljalangan moslama.

Gaz-neft separatori (рус. Газонефтяной сепаратор, ing. Oil and gas separator) - neft va yo'-yo'lakay gaz zichliklari farqi hisobiga ularni ajratadigan asbob.

Ish tartibiga qarab gaz-neft separator gravitatsion, markazdan qochma va murakkab; shakliga qarab sferik va silindrik (tik, qiya va gorizontal); ish bosimiga qarab vakuumli, past, o'rtacha va yuqori bosimli xillariga bo'linadi.

Gazni absorbsion tozalash (рус. Абсорбционная очистка газа, ing. Absorption gas sweetening (treating)) - tabiiy gaz va gaz aralashmali tarkibidan vodorod-sulfid, karbonat angidrid, oltingugurtning organik birikmalari va boshqalarni suyuq absorbentlar bilan ajratish.

Gazni adsorbsion tozalash (рус. Адсорбционная очистка газа, ing. Adsorption gas sweetening (treating)) - adsorbentlar bilan gaz tarkibidan nordon komponentlarni ajratib olish.

Gazni qayta ishlash zavodi (рус. Газоперерабатывающий завод (ГПЗ), ing. Gasrefinery) - tabiiy va yo'ldosh neft gazidan alohida texnik toza uglevodorodlar va ularning aralashmasi, suyulitirilgan gaz, geliy, oltingugurt hamda texnik uglerod ishlab chiqaruvchi sanoat korxonasi.

Gazni tozalash (рус. Газочистка, ing. Gas purification) - sanoat va energetika korxonalardan atmosferaga tashlanadigan gazlar tarkibidagi qattiq, suyuq va gazsimon holatdagi

iflosliklami tutib qolish texnologiyasi yoki tadbirlari kompleksi. **Gazning kritik harorati** (T_{kr}) (рус. Критическая температура газа, инг. The critical temperature of the gas) - shunday maksimal haroratgaaytiladiki, bu haroratda modda bir vaqtning o'zida gaz va suyuq holatidagi tenglikda bo'ladi yoki kritik haroratda gazning o'rtacha molekulyar kinetik energiyasi molekulalarning tortilish potensial energiyasiga teng bo'ladi.

Gazning nisbiy namligi (рус. Относительная влажность газа, инг. Relative humidity of gas) - ma'lum bir sharoitda gazdagi suv bug'lari miqdorining gazdagi suv bug'larining maksimal miqdoriga bo'lgan nisbati. G.n.n. gazning suv bug'lari bilan to'yinganlik darajasini tavsiflaydi. Nisbiy namlik birlik ulushlarida yoki foizda ifodalanadi. Gazning birlik hajmi yoki massasidagi namlik miqdori mutlaq namlik deb yuritiladi. Mutlaq namlik g/m³ yoki g/kg da ifodalanadi.

Gazning solishtirma sarfi (рус. Удельный расход газа, инг. specific gas discharge) - lift boshmog'iga yetkazib beriladigan va kompressorli ishlatalishda yuzaga 1 m³ neftni ko'tarish uchun sarflanadigan gaz miqdori. **Gazning yonish issiqligi** (рус. Теплота сгорания газа, инг.

Combustion heat of gas) - 1m³ yoki 1 kg gaz yonganda ajraladigan issiqlik miqdori (kJ). Quruq gaz (suv bug'larisiz) yuqori issiqlik beradi, nam gaz (suv bug'i) kam issiqlik chiqaradi. Uglevodordlarning yonish issiqligi molekula massasi oshishi bilan ko'payib boradi.

Gazoanalizatorlar (рус. Газоанализаторы, инг. Gas analyzer) - havo muhitida yoki tashlama gazlar aralashmasi tarkibida mavjud bo'lgan turli gazlarni va ularning miqdorini aniqlashda foydalilanadigan asboblar. Individual, ko'chma va statsionar G. farqlanadi.

Gazoturbina moyi (рус. Газотурбинное масло, инг. Gas turbine lubricating oil) - turbo-reakтив, turbovintiva gazoturbina dvigatellar uchun neft yoki sintetik moylash moyi.

Gazoturbina yoqilg'isi (рус. Газотурбинное топливо, инг. Gas turbine fuel; turbine fuel). «Yoqilg'i» atamasiga qarang.

Gazoyl (рус. Газойл, Gasoil) - qaynash chegaralari 200–400 °S bo'lgan neftning o'rta fraksiyalari bo'lib, ilgari yoritish gazlari uchun xom-ashyo sifatida ishlatilgan.

Geofizik anomaliya (рус. Аномалия геофизическая, инг. Geophysical anomaly) - geofizik maydonning mo'tadil (normal) miqdoridan farqi. Gravitatsiya,

magnit, elektr, geotermik va boshqa anomaliyalar uchraydi. Kattaligi va tarqalish maydoniga ko'ra anomaliyalar regional va mahalliy bo'ladi. G.a. lar tog' jinslarning tarkibi va yotish sharoitiga bog'liq holda o'zgaradi. **Geofizik mezonlar** (рус. Геофизические критерии, ing. Geophysical criteria) - tabiiy fizik maydonlarni o'rganishga asoslangan mezonlar. Bu mezonlar orqali har xil anomaliyalar ajratiladi. Bu anomaliyalar foydali qazilmalarni topishga imkon beradi. Bunday mezonlarga magnit, radioaktiv, gravitatsion va elektr maydon anomaliyalarni ko'rsatish mumkin. Magnit anomaliyalari orqali temir, mis va nikel' ma'danlarini qidirish mumkin.

Geofizik tasvirlash (рус. Геофизическая съёмка, ing. Geophysical survey) - yerning tabiiy maydonini muntazam o'lchab borish. Geofizim tasvirlash jarayonida yerning tabiiy magnit, gravitatsiya, issiqlik, elektr maydonlari va shuningdek seysmik va elektromagnit maydonlari mukammal o'rGANILADI. Odatda geofizik tasvirlash ishlari yer yuzida, yer ostida, chuqurlikda, havoda, dengizda, dengiz tubida, piyoda, mashinada, vertolyotda o'tkazilishi mumkin. Bu geofizik

tasvirlash geologiyada, geodeziyada va boshqa sohalarda qo'llaniladi.

Geofizik tavsiflar (рус. Характеристики геофизические, ing. Geophysical characteristics) - tog' jinslarning fizik xususiyatlarini aks ettiruvchi geofizik ma'lumotlar. G.t. jinslarning ikkilamchi jarayonlar ta'sirida o'zgarishi, asosiy gorizontlar chegarasi, o'rganilayotgan ob'yekt ustidagi regional va lokal geofizik maydon anomaliyalari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Burg' quduqda bajarilgan karotaj ishlar natijasi, seysmik razvedka va b. dala usullari bo'yicha olingen ma'lumotlar G.t.ning asosidir.

Geofizik xarita (рус. Геофизическая карта, ing. Geophysical map) - foydali qazilmalarni qidirish, razvedka qilish, geologik xaritalash uchun o'tkaziladigan maxsus geofizik ish natijalari grafik asosda tasvirlanadigan xarita.

Geofizika (рус. Геофизика, ing. Geophysics) - Yer po'sti va yarosida bo'ladijan tabiiy hodisalar va jarayonlari o'rGANADIGAN fan. Geofizika uchta katta sohaga - atmosfyera fizikasi, gidrofizika, Yer fizikasiga bo'linadi. Razvedka geofizikasidan yer po'stining yuqori qismini o'rGANISHDA, foydali

qazilma konlarini izlashda, neft, gaz va gidrogeologiya tadqi-qotlarini bajarishda keng foydalilanadi. Razvedka geofizikasi - geologik maqsadlarda bajarildagan ishlar. Bu metod bilan neft, gaz, suv, ruda yoki ko'mir konlarini izlash, hudud tektonikasini o'rganish, muhandislik-geologiyasi masalalarini yechish mumkin.

Geokimyo (рус. Геохимия, ing. Geochemistry) - yer po'stining kimyoviy elementlarning tarqalish qonuniyatlarini va ularning bir joyda to'planish va siljish sabablarini o'rganadigan soha.

Geokimyoviy jarayon (рус. Геохимический процесс, ing. Geochemical process) - yer po'stida endagen va ekzogen sharoitlarida sodir bo'ladigan kimyoviy jarayonlar majmui.

Geokimyoviy ko'chish (рус. Геохимическая миграция, ing. Geochemical migration) - kimyoviy elementlarning ma'lum maydonlarda to'planishlarini o'zgartirib bir joydan boshqa joyda ko'chishiga sababchi jarayonlar majmui.

Geokimyoviy mezonlar (рус. Геохимические критерии, ing. Geochemical criteria) - kimyoviy elementlarning har xil tog' jinslarida, tuproqda, suvlarda tarqalish qonuniyatlarini o'rganuvchi mezonlar. Ular geokim-

yoviy qidirishning asosini tashkil qiladi. Sanoatga yaroqli yuqori miqdorlarga ega bo'lgan element va ularning hamrohlari tarqalgan joylarni qidirishning eng qulay maydoni hisoblanadi. Masalan, qo'rg'oshin va ruxning o'rtacha yuqori miqdori polimetal konlariga boy ma'danli effuzif cho'kindi jinslariga xosdir.

Geokimyoviy xarita (рус. Геохимическая карта, ing. Geochemical map) - tog' jinslarda, ma'dan va ularning uyumlarida, suvlarda, o'simliklarda kimyoviy elementlarning tarqalish qonuniyatlarini ifodalashga mo'ljallangan xarita.

Geologik izlov ishlari (рус. Геологоразведочные работы, ing. Geological exploration) - hududning geologik tuzilishi, neft-gazliligi va neft topish uchun burg' qudug'i qaziladigan joyini aniqlash ishlar.

Geologik jarayonlar (рус. Геологические процессы, ing. Geological process) - yer po'stining, strukturasini, relyefini va chuqurlikdagi tuzilishlarini o'zgartiruvchi jarayonlar.

Geologik-geofizik kesim (рус. Геолого-геофизический разрез, ing. Geological and geophysical section) - quduqning namunali karotaj diagrammasi bilan ifodalangan kesimi. Odatda kesim mazmuni namunaviy

elektrokarotaj egri chizig'i, ayrim hollarda tog' jinsining fizik parametrlarini ifodalovchi ma'lumotlar bilan boyitiladi. Geologik-geofizik kesim umumiyligi va namunaviy xili ajratiladi. Ulardan qatlamlarni o'rtacha va haqiqiy qalnligini aniqlashda foydalaniladi. Amaliyotda asosan umumiyligi Geologik-geofizik kesim qo'llaniladi.

Geologik-statistik kesim (рус. Геолого-статистический разрез, англ. Geological and statistical section)-kesimning ba'zi bir intervallarida kollektor bo'lishi ehtimolliliginini ifodalaydigan egri chiziq. G.-s.k. litologik tarkibi har xil bo'lgan mahsuldor qalin qatlamlarni o'rganish uchun tuziladi. Qalin qatlamlarda juda ko'p, yo'nalishi izchil bo'lмаган, suv o'tkazmaydigan mayda qatchalar uchraydi. G.-s.k.da mahsuldor qatlamning eng xarakterli xususiyatlari ifodalanadi.

Geologik-texnologik tadqiqotlar (рус. Геолого-технологические исследования, англ. Geological and technological research) - quduqni burg'ilashda bajariladigan geologik geofizik geokimyoiy va texnologik tadqiqotlar majmuasi. G.-t.t.ni geofizik tashkilotlar bajaradi. G.-t.t. yordamida olinadigan geologik materiallar - shlam, suyuqlik namunalari AJJ geolog tomonidan

ishlanadi va talqin qilinadi.

Geologiya (рус. Геология, англ. Geology) - yerning tarkibini, ichki va tashqi tuzilishini, tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini, tektonik harakatlarini, cho'kindi, metamorfik va magmatik jinslar bilan bog'liq bo'lgan ma'dan konlarini, neft-gaz va yer osti suvlaring paydo bo'lishini, shuningdek yer po'stida sodir bo'ladigan har xil geologik jarayonlarni o'rganadigan fan. Bu fan bir-biriga bog'liq bir necha sohalarni o'z ichiga oladi.

Geometrik seysmika (рус. Геометрическая сейсмика, англ. Geometric seismics)- seysmologiya va seysmorazvedkaning bir bo'limi. Turli ko'rinishdagi to'lqin godograflari xususiyatlarini va maydonning geologik tuzilishini o'rganish maqsadida godograflarni izohlash metodlari ishlab chiqiladi.

Geomorfologik mezonlar (рус. Геоморфологические критерии, англ. Geomorphological criteria) - yer yuzi relyefining paydo bo'lishi, tub tog' jinslarining parchalanishi va boshqa materialarning qayta yig'ilishi bilan bog'liq bo'lgan konlarining fazoviy holatini aniqlashga asoslangan. Bularga har xil sochilmalar va shag'allar kiradi. Shuningdek geomorfologik mezon yer po'stining hozirgi zamон

tektonik harakati bilan bog'liq yosh ko'tarmalarini aniqlashga, neft va gaz konlarini qidirishga yordam beradi.

Geomorfologiya (рус. Геоморфология, ing. Geomorphology) - geologiyaning yer yuzasida sodir bo'ladicidan shakllarining paydo bo'lish sharoitlarni, tashqi belgilarini, taraqqiyot qonuniyatlarini, tuzilishlarini, shakllar o'rtaсидаги о'заро генетик bog'-lanishlarini o'рганувчи bir qismi. Geomorfologiya o'z navbatida umumiy, regional, amaliy qismalarga bo'linadi.

Geosferalar, yer sferalari (рус. Геосфераы, ing. Geospheres) - yer kurrasini tashkil qiluvchi va uni o'rab turgan qavatlar. Yer sferasi ichida tashqi (atmosfera, gidrosfera) va ichki (yer po'sti, litosfera va mantiya) qismlariga bo'linadi.

Geosinklinal (рус. Геосинклиналь, ing. Geosyncline) - o'zining serharakatchanligi, cho'kindi jinslarning ketma-ket yotishi, katta qalnlik (15-20 km)ga ega bo'lishi, yotish qiyaligining kattaligi, burmachenlik jarayonlarining jiddiyligi, magma va effuziv harakatlarining qudratligi, geokimyoiy jarayon-larining faoligi, metamorfizmning kuchliligi, har xil turdag'i foydali qazilma konlarining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Geosink-

linalning rivojlanishi ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqichda cho'kish jarayonlari ko'tarilishga nisbatan faol bo'ladi. Bu jarayon dengiz suvining quruqlikka bosib chiqishi bilan xarakterlanadi. Ikkinci bosqichda shiddatli ko'tarilish jarayonlari faollahshadi. Natijada dengiz suvi qirg'oqdan orqaga qarab qaytadi. Geosinklinalda namoyon bo'lgan cho'kish va ko'tarilish natijasida yer qobog'ida to'lqinsimon katta antiklinal va sinklinal tog' burma tizmalari vujudga keladi. Geosinklinalning uzunligi 2000 km gacha, eni 50 dan 15 km ga yetadi.

Geosinklinal (рус. Геосинклиналь, ing. Geosyncline) - yer po'sting harakatchan hududi bo'lib, tektonik harakatlar va magma jarayonlari o'ta harakatchan bo'lgan qismi.

Geotektonik bosim (рус. Геотектоническое давление, ing. Geotectonic pressure) - burmalanish, surilish, siqilish va zilzila jarayonida bug' flyuidlar anomaliyali yuqori bosimning namoyon bo'lishi.

Geotektonika (рус. Геотектоника, ing. Geotectonics) - yer tuzilishida ishtrok qiladigan tektonik harakat natijasida yuz beradigan o'zgarish tarixini, yerning ichki o'zgarishlarini va bunga sabab bo'lgan kuchlarni,

yer hayotida bo'ladigan taraqqiyot qonunlarini va ularning bog'-lanishlarini o'rganuvchi fan.

Geotermik gradient (рус. Геотермический градиент, ing. Geothermal gradient) - yer ostiga tik tushirilganda har 100 m chuqurlikda haroratning qancha oshib borishini ko'rsatadigan miqdor. O'rta hisobida 30 ga teng. Geotermik gradient yer osti qatlamlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Geotermik xarita (рус. Геотермическая карта, ing. Geothermal map) - yer po'stining qalil qatlamlaridagi bir hil haroratdagi nuqtalarni birlashtiruvchi chiziqlar aks etirilgan xarita.

Geotermiya (рус. Геотермия, ing. Geothermy) - geofizikaning yer bag'rida issiqlik jarayonlarini o'rganuvchi maxsus qismi. Quyosh nurlanishi sababli, yer sirtining ustki qatlamlarida harorat o'zgaradi; sutkalik o'zgarishlar bir necha o'n sm, yillik o'zgarishlar esa 10-20-30 metr chuqurlikgacha ta'sir qiladi. Ana shu qatlamlardan pastda harorat asta-sekin o'zgaradigan nuqta boshlanadi. Ma'lumki, yer sharining har xil nuqtalarida har yuz metr chuqurlikda harorat 30 oshib borishi kuzatilgan; lekin bu miqdor chuqurlik oshgan sayin o'zgarib boradi. Chuqurlik oshgan sari haroratning ko'tarilib borishi

natijasida yer qobig'idan issiq oqim hosil bo'ladi. Yer sirtiga yo'nalgan issiqlik miqdori yiliga har kvadrat santimetrdra 50-60 kal. ga, butun yer sharida esa 2,5-1020 kal.ga teng. Bu quyoshdan yer sirtiga tishadigan issiqliknинг 0,001% ga teng. Yer issiqlik yo'qotishi bilan birga radioaktiv parchalanish hisobiga o'zida issiq hosil qiladi. Geotermiya natijalari orqali yer qobig'i strukturalari, suyuq yonuvchi va qattiq foydalari qazilmalari, chuqur quduqlari o'rganiladi.

Geoxronologiya (рус. Геохронология, ing. Geochronology) - tog' jinslarining hosil bilish vaqtini aniqlaydigan geologik yilnomalar. Geologik jinslarning yoshi nisbiy va mutlaq bo'ladi. Geoxronologitani o'rganish orqali qatlamlarning paydo bo'lgan vaqtlarini bilish va ularning bir-biriga nisbatan aloqasini aniqlash mumkin. Hozir qadimgi jinslarning yoshi radioaktiv, qo'rg'oshin, kaliy-argon, rubidiy-strontsiy, radiouglerod kabi metodlar orqali aniqlanadi.

Germetiklash (рус. Герметизация, ing. Sealing) - zichlash, havo kirmaydigan-chiqmaydigan qilish. Burg'ilash qudug'i ichini o'rovchi mustahkamlivchi quvurning zichligini ta'minlash va shuningdek quduq og'zini mukammal zichlash.

Geterogen kataliz (рус. Гетерогенный катализ, ing. Heterogeneous Catalysis) - reagent va katalizator xar xil aggregat holatidabo'lgan kataliz Geterogen kataliz deyiladi.

Geterogen tizimlar (рус. Гетерогенные системы, ing. Heterogeneous system) - makroskopik bir xil bo'limgan fizik - kimyoviy tizim, har xil xossalarga suyuq, qattiq, gaz ega bo'lgan bo'laklardan iboratdir.

Geterogen yoki fazaviy muvozanat (рус. Гетерогенное или фазовое равновесие, ing. Heterogeneous or phase equilibrium) - bu bir necha fazadan iborat bo'lgan tizimdag'i muvozanat.

Geyzer (рус. Гейзер, ing. Geyser) - hozirgi vaqtida harakatdagi vulqonlar joylashgan hududlardagi issiq suv manbalari. Vernadskiy fikricha, Geyzer bug'larda biosfera, stratosfera, metamorfik hamda magmatik geosferaning chuchuk, sho'r bug'lari va bug' namokoblari.

Gidrat hosil bo'lishi (рус. Гидратообразование, ing. Hydrate formation) - ma'lum harorat va bosimda gaz yoki tez qaynaydigan suyuqlik molekulalarni suv molekulalarining kristall panjarasi bo'shlqlariga kirib borib kristallogidrat yoki «qattiq gaz» hosil qilishi.

Gidratlanish (рус. Гидратация, ing. Hydration) - moddaning suv bilan birikishi. Gidratlanishda moddalar suvda eriydi. Tuzlarning gidratlanish ko'p uchraydigan hodisadir. Chunki tuzlar ionlardan iborat. Jonlar esa kattagina elektr maydoniga ega bo'lgani uchun suyuqlikning qutbli molekulalarini o'ziga tortadi. Suyuqlikda erigan tuzning ayrim ionlari ham gidratlangan bo'ladi. Ionlar gidratlanganda anchagina issiqlik ajrab chiqadi. Ionlarning gidratlangan issiqligi eriyotgan tuz kristalining yemirilishiga ketgan issiqlikning o'rni ni bemalol qoplaydi. Shuning uchun ko'p tuzlar issiqlik chiqarib eriydi.

Gidratlanish energiyasi (рус. Энергия гидратации, ing. Energy of hydration) - suv molekulalarining eriyotgan modda ionlari bilan o'zaro ta'siridan ajralib chiqadigan energiya.

Gidravlik aralashirgichlar (рус. Гидравлические мешалки, ing. Hydraulic agitators) - kukunsimon materiallardan burg'ilash eritmasisini tayyorlashga va og'irlash tirishga, shuningdek eritmalarga quruq kukunsimon reogentlar yordamida kimyoviy ishlov berishga mo'ljallangan qurilma.

Gidravlik dvigatellar (рус. Гидравлические двигатели, ing. Hydraulic motor) - suyuqlikning

mexanik energiyasini valning mexanik energiyasiga (gidravlik turbinalardan) yoki porshenning ilgarilanma-qayta harakatiga (suv ustuni dvigatelida) aylantirib beradigan mashina.

Gidravlik isrof (рус. Гидравлическая потеря, ing. Hydraulic loss) - quduq ichidagi turli qarshiliklarni yengish uchun suv oqimi bosimi bir qismining yo'qolishi.

Gidravlik moy (рус. Гидравлическое масло, ingl. Hydraulic oil) - gidravlik tizim (uchar apparat, harakatlanuvchan yeri, daryo va dengiz texnikasi, gidrotormoz va amortizasion qurilma, gidrouzatma va aylanma moylash tizimi) uchun ishchi vosita. Gidravlik moyning asosiy vazifasi bo'lib mexanik energiyani uning manbasidan boshlab ishlatish joyigacha qo'yilgan kuch qiymati yoki yo'nalishini o'zgartirib uzatish hisoblanadi.

Gidravlik namuna olgich (рус. Гидравлический пробоотборник, ing. Hydraulic sampler)-burg' quduq devorlari-dagi foydali qazilmalardan jo'yak usuli bilan namuna oluvchi moslama.

Gidravlik porshenli nasos (рус. Гидравлический поршневой насос, ing. Hydraulic piston pump) - burg' quduq'iga suv yoki gilli eritmani berishga mo'ljalangan nasos.

Gidravlik press (рус. Гидравлический пресс, ing. Hydraulic press) - yuqori bosimli suyuqlik ta'sirida ishlaydigan qurilma. Sanoatning deyarli hamma sohalarida ishlatiladi.

Gidravlik qarshilik (рус. Гидравлическое сопротивление, ing. Hydraulic resistance) - quvur yuritmalarining eritma (gaz) harakatiga ko'rsatadigan qarshiligi.

Gidravlik qisuvchi patron (рус. Гидравлический зажимной патрон, ing. Hydraulic clamping chuck) - shpindelni ko'tarish jarayonida shtangani avtomatik ravishda bo'shatishga xizmat qiladi.

Gidravlik qo'shimchalar (рус. Гидравлические добавки, ing. Hydraulic additives) - o'pkasimon maydalangan modda. Yopishadigan materiallarga qotishma va suv ostida ularning qotishini ko'paytiruvchi aralashma sifatida foydalaniladi. Gidravlik qo'shimcha sement qotayotganda undan ajralib chiqayotgan ohakni tutib qolib sementning suvgaga chidamlilagini oshiradi. Vulkan kuli, opoka, pemza, tuf sementlarning tabiiy gidravlik qo'shimcha hisoblanadi.

Gidravlik qorishtirgichlar (рус. Гидравлические смесители, ing. Hydraulic mixers) - kukunsimon gillardan gil eritmasini tayyorlash,

ularni og'irlashtirish hamda kukunsimon va suyuq reagentlar bilan ishlov berishga mo'ljalangan qorishtirgichlar.

Gidravlik quvurtutqich (рус. Гидравлическая труболовка, ing. Hydraulic pipe catcher) - mustahkamlivchi va kolonkali quvurlarni tutish va chiqarishga mo'ljallangan asbob.

Gidravlik uzelish (рус. Гидравлический разрыв, ing. Hydraulic break) - neft qudug'i debitini ko'paytirish va neft chiqarishning asosiy usuli. Gidravlik uzelishlar, burg' quduqlaridagi kollektor hisoblangan tog' jinslarining neft o'tkazuvchanlik qobiliyatlariga ma'lum darajada ta'sir qiladi. Shuningdek burg' qudug'i tubida katta bosim ta'sirida har xil yoriq va darzliklar hosil qilinadi. Bu yoriq orqali quduq ichiga neft oqib kelishiga imkon tug'iladi.

Gidravlik yuvish (рус. Гидравлическая промывка, ing. Hydraulic flushing) - suv tindirigichlarida cho'kib qolgan bo'yoqlarni mexanik va gidravlik metod bilan tozalash.

Gidravlik zarba (рус. Гидравлический удар, ing. Water hammer) - quvurlardagi suyuqlik oqimining tezligi birdan o'zgarganda bosimning ortishi. Bu ta'sir ma'lum tezlik bilan elastik to'lqin ko'rinishida quvur bo'ylab tar-

qaladi. Gidravlik zarba quvurlarga shikast yetkazishi, quvurni yorib yuborishi mumkin.

Gidravlika (рус. Гидравлика, ing. Hydraulics) - suyuqliklarning muvozanat va harakati shartlari va qonunlari hamda shu qonunlarni amaliy masala yechishda qo'llash metodlari to'g'risidagi fan.

Gidroaromatik birikmalar (рус. Гидроароматические соединения, ing. Hydroaromatic compounds) - neftlar tarkibiga kiradigan alitsiklik to'yingan uglevodorodlar molekulasida besh yoki olti a'zoli uglerod halqalari mavjud birikmalar.

Gidroburg'ilash (рус. Гидробурение, ing. Hydraulic drilling) - doimiy yuqori bosimli suv oqimi ta'sirida burg'ilash. Burg'ilash asosan suv ajratuvchi, mustahkamlovchi va bosim quvurlari birikmasi yordamida amalgalashiriladi. Bosim quvurining pastki qismida yuvuvchi poynak joylashgan. Burg' qudug'i tubiga suv yuborish natijasida gruntlar yuviladi. Mustaxkamlovchi quvurlar birikmasi esa gruntga botadi.

Gidrodinamik bosim (рус. Гидродинамическое давление, ing. Hydrodynamic pressure) - oqar suyuqliklarning jins zarrachalariga ta'siri bo'lgan bosimi. U son jihatdan bosim

gradientiga teng. Gidrodinamik bosim gradienti bilan keskin (kritik) qiymatga teng bo'lganda jinslarni yumshatib umumiy siljishga olib kelishi mumkin.

Gidrodinamik bosim (рус. Гидродинамическое давление, ing. Hydrodynamic pressure) - oqar suyuqliklarning jins zarra-chalariga ta'siri bo'lgan bosimi. U son jihatdan bosim gradientiga teng. Gidrodinamik bosim gradienti bilan keskin (kritik) qiymatga teng bo'lganda jinslarni yumshatib umumiy siljishga olib kelishi mumkin.

Gidrodinamik qarshilik (рус. Гидродинамическое сопротивление, ing. Hydrodynamic resistance) - suyuqlikning jism harakatiga yoki quvur devorining oqayotgan suyuqlikka qarshiligi. Jism harakatlanmay turganda, suyuqlik (gaz) oqsa yoki jism harakatsiz muhit (suyuqlik yoki gaz)da harakatlansa gidrodinamik qarshilik jismga ta'sir qilayotgan barcha kuchlar bosh vektori proyektsiyasiga teng bo'ladi. Gidrodinamik qarshilik texnik qurilmalarda hisobga olinadi.

Gidrodinamika (рус. Гидродинамика, ing. Hydrodynamics) - gidromexanikaning siqilmaydigan suyuqliklar harakatini va ularning qattiq jismlar bilan o'zaro ta'sirini o'rganadigan bo'limi. Gaz hara-

katte tezligi tovushining shu gazdagagi tezligidan archa kichik bo'lganda gidrodinamika metodlari gazlar harakatiga ham tadbiq qilinadi. Gidrodinamika nazariy va eksperimental xillarga bo'linadi. Gidrodinamika suyuqlik xossalari, oqim tezligi, bosimi, suyuqliklarning har xil nuqtadagi ta'sir kuchi aniqlanadi; bu esa suyuqlikning qattiq jismlar bilan o'zaro ta'sirini o'rganishga imkon beradi.

Gidrofil kolloidlar (рус. Гидрофильные коллоиды, ing. Hydrophilic colloids) - dispers muhiti suv hisoblangan liofilli kolloidlar.

Gidrofil modda (рус. Гидрофильные вещества, ing. hydrophilic matters (substances)) - suvni shimib olish xususiyatiga ega qattiq modda. Moysimon suyuqliklar shimplaydi.

Gidrofizika (рус. Гидрофизика, ing. Hydrophysics) - geofizikaning bir bo'limi. Suvning fizik xossalari va gidrosferada yuz beradigan fizik jinslarni o'rganadi. Bundan tashqari, suvning molekulyar tuzilishi, suv, qor va muzning fizik-mexanik xossalari, radiation, elektr, radioaktivlik va akustik xususiyatlari, suv havzasidagi jarayonlar, oqimlar, to'lqinlar hosil bo'lishi va rivojlanishi; suv loyqalarining harakati; suv havzalarining isishi, sovishi va

bug'lanishi; qor erishi, quyosh nurining suv sirtiga tushishi va tarqalishini tekshirish bilan shug'llanadi.

Gidrofob modda (рус. Гидрофобные вещества, ing. Hydrophobic matters (substances)) - suvni shimib olmaydigan qattiq modda. Moysimon suyuqliklar shimaladi.

Gidrogel (рус. Гидрогель, ing. Hydrogel) - atalasimon, tarkibida suvi bo'lgan gel.

Gidrogenizat (рус. Гидрогенезат, ingl. Hydrogenate) – neft yoki gazokondensat xom-ashyosini qayta ishlash yoki yaxshilash gidrogenlash jarayonlari mahsulotlari.

Gidrogenlanish (рус. Гидрогенизация, ing. Hydrogenation) - kimyoiy elementlar yoki ularning birikmalariga vodorodni biriktirish jarayoni. Katalizator biriktiriladi. Gidrogenlanishdan neftni tozalashda, ammiak metil spirti, benzin va boshqa moddalar olishda foydalaniлади.

Gidrogeologik quduq (рус. Гидрогеологическая скважина, ing. Hydrogeological well) - tog' jinsi turlarining sizilishi (fil'tratsion) xossalarni, yer osti suvlarining rejimini, geofizik hodisalarни o'rganishga mo'ljallangan quduq. Odatda mukammal va nomukammal hidrogeologik quduqlar mavjud. Mukammal hidrogeologik quduqlarda suvli qatlamlar qalinligi to'liq kovlangan nomukammal quduqlarda esa quduq tubi suvli qatlam tagiga yetmagan bo'ladi. Gidrogeologik quduqning chuqurligi bir necha metrdan 1000 metrgacha yetishi mumkin. Gidrogeologik quduq tuzilishi quduqning kovlanish maqsadiga, chuqurligiga, geologik tuzilishiga, hidrogeologik sharoitlariga, burg'ilash usuliga va uskunalariga bog'liq.

geologik quduqlarda suvli qatlamlar qalinligi to'liq kovlangan nomukammal quduqlarda esa quduq tubi suvli qatlam tagiga yetmagan bo'ladi. Gidrogeologik quduqning chuqurligi bir necha metrdan 1000 metrgacha yetishi mumkin. Gidrogeologik quduq tuzilishi quduqning kovlanish maqsadiga, chuqurligiga, geologik tuzilishiga, hidrogeologik sharoitlariga, burg'ilash usuliga va uskunalariga bog'liq.

Gidrogeologik quduq (рус. Гидрогеологическая скважина, ing. Hydrogeological well) - tog' jinsi turlarining sizilishi (fil'tratsion) xossalarni, yer osti suvlarining rejimini, geofizik hodisalarни o'rganishga mo'ljallangan quduq. Odatda mukammal va nomukammal hidrogeologik quduqlar mavjud. Mukammal hidrogeologik quduqlarda suvli qatlamlar qalinligi to'liq kovlangan nomukammal quduqlarda esa quduq tubi suvli qatlam tagiga yetmagan bo'ladi. Gidrogeologik quduqning chuqurligi bir necha metrdan 1000 metrgacha yetishi mumkin. Gidrogeologik quduq tuzilishi quduqning kovlanish maqsadiga, chuqurligiga, geologik tuzilishiga, hidrogeologik sharoitlariga, burg'ilash usuliga va uskunalariga bog'liq.

Gidrogeologik xarita (рус.

Гидрогеологическая карта, ing. Hydrogeological map) - tog' jinslarda yer osti suvlarining tarqalish sharoitini, ularning tuz va gaz tarkibini, jinsnning (suvli gorizontning, suvli majmuuning) suvga mo'lligini va sh.k.larni xaritada ifodalash. Xarita mazmuni uning maqsadi va mashtabiga qarab belgilanadi. Neft-gaz gidrogeologiyasi amaliyotida har bir suvli gorizont va majmua uchun alohida G.x. tuziladi.

Gidrogeologiya (рус. Гидро-геология, ing. Hydrogeology) - yer osti suvlari haqidagi fan. Gidrogeologiya yer osti suvlarining paydo bo'lishini, dinamikasini, tarqalish va harakatlanish qonuniyatlarini, fizik va kimyoviy xossalalarini, gaz tarkibini, sifat va miqdorini, yer yuzasidagi suvlar munosabatlarini, tog' jinslari bilan o'zaro ta'sirini o'rganishga asoslangan.

Gidrokimyo xaritasi (рус. Гидрохимическая карта, ing. Hydro-chemical map) - yer osti suvlarining tarkibi va ulardagisi har xil komponentlarning tarqalish qonuniyatlarini aks ettirishga asoslangan xarita.

Gidroliz (рус. Гидролиз, ing. Hydrolysis) - minerallar dissotsiatsiyalangan suvlar ta'sirida parchalanib, yangi birikmalar hosil qilishi va ayrim

elementlarni erigan holda ajratib chiqarishi.

Gidromexanik burg'ilash (рус. Гидромеханическое бурение, ing. Hydro-mechanical drilling) - quduq kovlashning aylanma burg'ilash usuli. Bunda tog' jinslaring yemirilishi yuqori bosimli yuvish eritmalari oqimi va mexanik jins yemiruvchi asboblar ta'sirida sodir bo'ladi.

Gidromonitor (рус. Гидромонитор, ing. Giant) - suv oqimini hosil qiladigan va uning otlishi bilan tog' jinslai hamda sun'iy massivlarni yemirish va yuvish boshqaradigan apparat. U foydali qazilma boyliklari konlariga ochiq yer osti usullarida ishlov berishda keng qo'llaniladi.

Gidromonitor moslama (рус. Гидромониторные насадки, ing. Hydromonitor attachments) - quduq tubini burg'ilangan tog' jinslaridan tozalashga va quduq tubi ustunini yemirishga mo'ljalangan moslama bo'lib, tog' jinslarini emiruvchi asbob (doloto)ga o'rnatiladi.

Gidromufta (рус. Гидромуфта, ing. Fluid coupling) - ikki parrakli g'ildiragi (nasosli) bo'lgan hidrodinamik uzatma. U yetakchi va yetaklanuvchi vallarda bir xilda aylantirish momentlariga ega. Burg'ilash qurilmalari va ta'mirlash nasoslarida ishlataladi.

Gidroporshenli nasos qurilmasi (рус. Установка гидропоршневого насоса, ing. Installing a hydraulic piston pump) – chuqurlik nasos plunjeringin orqaga qaytadigan va olg'a intiladigan harakati hisobiga burg' qudug'i dan eritmalarни yer yuziga ko'tarish uchun qo'llaniladigan qurilmalar majmui. Bunday harakatlar chuqurlik porshenli dvigateli yordamida amalga oshiriladi.

Gidroqorishtirgich (рус. Гидро-смеситель, ing. Hydraulic mixer) - burg'ilash eritmalarini tayyorlashga mo'ljallangan apparat. Uning gidromonitorli va gideroejektorli turlari mavjud. Gidromonitorli qorishtirgich aso-san qumoq-qumoq materiallardan, gideroejektorli qorishtirgich esa kukunsimon materiallardan burg'ilash eritmasini tayyorlashda qo'llaniladi.

Gidrosfera (рус. Гидросфера, ing. Hydrosphere) - yer sharining okean va dengizlar, daryo va ko'llar, qor va muzliklar, tuproq, botqoqlik va yer osti suvlaridan iborat qobig'i. Gidrosfera yer po'sti bilan atmosfera oralig'ida joylashgan. Uning umumiyligi hajmi 1460000 ming km³ ga teng. Gidrosfera yer massasining atigi 1/4100 qismini tashkil etadi. Gidrosferaning eng asosiy qismi dunyo okeani yer sharining 70,8% maydonini qoplab olgan, ko'l va

daryolardagi suvlar esa quruqlik maydonining 3% ni egallab turadi. Gidrosfera atmosfera, litosfera va biosfera bilan chambarchas bog'lanishda bo'ladi.

Gidrostatik podshipnik (рус. Гидростатический подшипник, ing. Hydrostatic bearing) - ishqalanuvchi sirtlar orasidagi moy qatlami nasosdan bosim ostida keltirilgan moy bilan hosil qilinadigan sirparish podshipnigi.

Gidrostatik sath (рус. Гидростатический уровень, ing. Hydrostatic level) - sayoz va chuqur quduqlarda suv va neft-ning yuqoriga ko'tarishdan paydo bo'ladigan yuza. Gidrostatik sath taqqoslash tekisligidan (masalan, yer yuzasidan, suv to'siq qatlam yuzasidan va boshqalardan) boshlab metr hisobida o'lchanadi.

Gidrotebratgich (рус. Гидровибратор, ing. Hydrovibrator) - suv bosimida tebranuvchi moslama. Bu moslama burg' qudug'i devorlardagi tog' jinslarining o'pirilishi natijasida qisilib qolgan burg'ilash quvurlarini bo'shatib olishga xizmat qiladi.

Gidrotermal jarayonlar (рус. Гидротермальные процессы, ing. Hydrothermal proces) - magmadan ajralib chiqqan issiq suvli eritmalarining jins g'ovaklarida va ochiq yoriqlarida sovishidan minerallarning hosil bo'lish jarayoni.

Gidrotermal kon (рус.

Гидротермальное

месторождение, ing. Hydrot-
ermal field) - yet po'stida
magmaning qotishi, sovushi,
kristallanishi natijasida undan
ajralib chiqadigan yuqori haroratli
suv va gazli eritmalaridan hosil
bo'lgan konlar. Bu eritmalar turli
kimyoviy komponentlarga nihoyatda
boy bo'lib uzilma va
darzliklar bo'yicha harakat qiladi.
Yer yuziga chiqish paytida
ularning bosim va harorati pasa-
yadi va tog' jinsi bo'shliqlarida,
darzliklarda har xil minerallar
to'planadi. Natijada shakli va
hajmi turlicha bo'lgan konlar
vujudga keladi. Konlar hosil
bo'lish sharotlariga qarab yuqori
haroratlari ($400\text{-}500^{\circ}\text{C}$), o'rta haro-
ratli ($300\text{-}200^{\circ}\text{C}$) va past harorat
($200\text{-}50^{\circ}\text{C}$) li bo'ladi. Gidrotermal
konlar 10 km dan ko'proq chuqur-
likda hosil bo'lishi mumkin.

Gidrotsiklon (рус. Гидроциклон, ing. Hydrocyclone) - suyuqlikdagi
zichligi yoki zarrachalarning
kattaligi bilan farqlanadigan dona-
dor tog' jinsilarini ajratadigan
moslama. Bu moslama kattaligi
bo'yicha tasniflashda, donador
materiallardan ortiqcha suv va
shlamni ajratishda, foydali
qazilmalarni zichligi bo'yicha
umumlashtirishda, eritmani qattiq
zarrachalardan tozalashda keng
foydalaniladi. Shuningdek, neft va

gaz quduqlarini burg'ilash
jarayonida gilli eritmalarini
burg'ilab maydalangan tog'
jinslaridan tozalashda va eritmani
qaytadan ishga yaroqli qilishda,
texnologik operatsiyalarni
bajarishda qo'llaniladi.

Gidroturbina (рус. Гидро-
турбина, ing. Hydroturbine) -
suvning mexanik energiyasi
hisobiga valga aylanma harakat
beradigan dvigatel.

Gidrozarbalagich (рус. Гидро-
ударник, ing. Hydraulic hammer)
- razvedka quduqlarini kovlashda
burg'ilanishi IV-XII toifaga
mansub bo'lgan tog' jinslarini
burg'ilashga mo'ljal-langan. U
zarbali va yuqori tezlik rejimida
ishlashni ta'minlaydi.

Gidrozarbali mashina (рус.
Гидроударная машина, ing.
Water hammer machine) -
burg'ilanishi bo'yicha o'rta va
yuqori toifa (VII-X)ga mansub
bo'lgan tog' jinslarida aylanma
zarbali va zarbali-aylanma usulida
burg' quduqlarini kovlashga mo'l-
jallangan.

Gigroskopik suv (рус.
Гигроскопичная вода, ing.
Hygroscopic water) - molekulalar
kuchlari orqali tabiiy jihatdan
zarralarning yuzasi bilan
mustahkam bog'langan suv.

Gigroskopiklik (рус. Гигрос-
копичность, ing. Hygroscopicity)
- fizik-mexanik jihatdan o'zgar-

gan, serg'ovak tog' jinslarining havodagi bug' holatidagi namliklarni o'ziga o'zlashtirish xususiyati.

Gil (рус. Глина, ing. Clay) - cho'kindi jins. Kaolinit, montmorillonit va gidroslyuda minerallaridan iborat. Yer po'stining 80 %, og'irligining esa 4% ni tashkil etadi. Gil 0,01 mm va undan kichik gil minerallari zarrachalaridan iborat, yopishqoq-cho'zi-luvchan, suv bilan aralashganda xamirsimon massaga aylanadi, kuydirilganda toshdek qotadi. Gil bosim ta'sirida o'zgarib, gilli slanets va argilitga aylanadi. Gilning boshqa turlariga gilmoya va lyoslar kiradi. Umuman gillar sanoatda, qishloq xo'jaligidagi va burg'ilash ishlarida foydalaniladigan zarur xom ashyo hisoblanadi.

Gil ajratgich (рус. Глиноотделитель, ing. Clay separator) - burg'ilash eritmasiga og'irlash-tirgich bilan gilning nisbatini tartibga solish va ortiqcha gillarni chiqarib yuborishga mo'ljallangan qurilma.

Gil eritmasi (рус. Глинистый раствор, ing. Clay solution) - quduq devorlaridagi g'ovaklarni berkitish, burg'ilangan tog' jinslarini eritmada muallaq saqlash vazifasini bajaradi. Gil eritmasi maydalangan tog' jinsini quduqdan tashqariga chiqarishga,

burg'ilarni qazib ketishdan saqlashga mo'ljallangan. Gil eritmasi gillning montmorillonitli, poligorskitali, kaolinitli xillaridan tayyorlanadi. Burg'ilash ishlarida zichligi 1,18-1,22 g/sm³ gilli eritmalar ishlatalidi. Bunday gillar suv bilan qo'shilganda tez cho'k-maydigan eritma hosil bo'ladi. Bu eritma yupqa qobiq hosil qilish xususiyatiga ega. Shuning uchun suv, gaz, neft favoralarining otlishiga yo'l qo'ymaydi. Kovlanadigan tog' jinslarining xususiyatlariga yer ostidagi neft, gaz va suvli qatlamlarning bosimiga qarab gil eritmasiga barit, qo'rgoshin, polimer preporatlar va boshqalar qo'shiladi.

O'zbekistonda gil eritmasi tayyorlanadigan gillar yuqori bo'r va eotsen davri qatlamlarida mavjud.

Gil kukuni (рус. Глинопорошок, ing. Mud powder) - bentonit, kaolinit, montmorillonit va boshqa gillarning maydalangan kukuni.

Gil qorishtirgich (рус. Глиномешалка, ing. Agitator mud) - burg'ilash gilli eritmalarini tayyorlashga mo'ljallangan qurilma. Uning mexanik, hidravlik, bug'li, bir valli, ikki balli va boshqa turlari mavjud.

Gilli cho'kindilar (рус. Глинистые осадки, ing. Clay deposits) - gilli minerallardan (suqli silikat va alyumosilikatlar - Al, Mg

shuningdek Cu, Fe, K, Na, kam holda Cr, Zn, Li, Ni) lardan tashkil topgan cho'kindilar. Ular tarkibida pelit fraktsiyasi ko'proq uchraydi.

Gilli fraktsiya (рус. Глинистая фракция, анг. Clay fraction) - ajralib chiqqan loy (gil) li modda.

Gilli jinslar (рус. Глинистые породы, анг. Argillaceous rock) – cho'kindi jinslar bo'lib, tarkibida gili minerallar ko'pligi, molekulalararo kuchning mavjudligi va nihoyatda mayda zarrachalar orasida ilashish borligi tufayli ular bo'lak (yaxlit) holida turadi.

Gilli ohaktosh (рус. Глинистый известняк, анг. Clay limestone) - cho'kindi tog' jinsi. Tarkibiga gillar aralashgan ohaktosh.

Gilli qumtosh (рус. Глинистый песчаник, анг. Clay sandstone) - - cho'kindi tog' jinsi. Tarkibiga gillar aralashgan qumtosh.

Gilli slanets (рус. Глинистый сланец, анг. Clay shale) - - gillarning yer qobig'ida bosim ta'sirida siqilishidan paydo bo'ladigan metamorfik tog' jinsi.

Gilli slanets varaqasimon qotlanish, ajralish xossasiga ega. Suvda ivimaydi, gilga nisbatan ancha qattiq, dala shpati, slyuda va boshqa mineral zarrachalari bo'ladi. Qora-kulrang, ayrim holda yashil rangda uchraydi. Gilli slanetsning yonuvchi turlari ham mavjud.

Gilli suspenziya (рус. Глинистая суспензия, анг. Clay suspension) - dispers fazasi gil zarrachalaridan, dispers muhiti esa suvdan iborat bo'lgan dispers tizim.

Gilza (рус. Гильза, анг. Sleeve) - porshenli issiqlik dvigatellarining blok-karteriga o'rnatilib, almash-tiriladigan silindrik quyma. Gilza ichida porshen' aylanadi. U cho'yandan tayyorlanadi.

Gipabissal tog' jinslari (рус. Гипабиссальные горные породы, анг. Hypabyssal rocks) - yer po'stining uncha chuqur bo'lma-gan qismida hosil bo'lgan magma-tik jinslarning umumiy nomi. Yotish sharoitiga, tarkibiga, struk-turasiga qarab bu tog' jinslari chuqurlikda joylashgan intruziv jinslar va yer yuzida hosil bo'lgan effuziv jinslar o'rtasida joylash-gan. Bular kichikroq daykalar, sillar, stoklar, lakkolitlar, yer to-mirlar shaklida magmaning oxirgi to'xtagan o'mrida paydo bo'ladi. Gipabissal jinslar ko'pincha porfir strukturali va mayda kristall donali tuzilgan.

Gipan (рус. Гипан, анг. Hypan) - yopishqoq sarg'ish suyuqlik. Tuzlangan gil eritmasining past suv berish barqarorligini ta'min-lashga mo'ljallangan.

Gipergen minerallar (рус. Гипер-генные минералы, анг. Hyper-genic minerals) - yer po'sti-ning yuqori qismi va yuzasida cho'kish,

yemirilish va qayta shakllanishidan hosil bo'lgan minerallar-har xil gillar. Yangi paydo bo'lgan tuproq, temir, marganets va alyuminiy oksidlari. Gipergen minerallar past bosim va harorat (-50+50°) da paydo bo'ladi. Gipergen minerallar hosil bo'lischen dan kislород, suv hamda karbonat, sulfat, xlorid va fosfat kislotalarning ionlari asosiy ro'l o'ynaydi. Shuningdek iqlim, rel'ef, yemiriluvchi mineralarning fizik, tabiiy va kimyoviy xususiyatlari hamda o'simlik va hayvonlarning faoliyati ham katta ahamiyatga ega. Gipergen mineralarni o'rganish foydali qazilmalarini qidirishga yordam beradi.

Giperenez bosqich (рус. Стадия гипергенеза, ing. The stage of hypergenesis) – yer yuzasidagi tub tog' jinslari suv, muz, harorat va boshqa fizik, kimyoviy hodisalarga hamda organizmlar ta'sirida nurash hodisisi.

Gipsometrik xarita (рус. Гипсометрическая карта, ing. Hypsometric map) - yer yuzasi relyefi gorizontallarda balandlik po'gonalari esa ranglarda ifodalanadigan xarita.

Gisterizis (рус. Гистеризис, ing. Hysteresis) – chekinish, orqada qolish, kechikish ma'nosini bildiradi. Neft beraolishlik koefitsienti, kondan olinishi mumkin bo'lgan neft miqdorining shu

kondagi umumiy neft zaxirasiga bo'lgan nisbati orqali aniqlanadi. **Glaukonit** (рус. Глауконит, ing. Glauconite) - mineral, kimyoviy tarkibi murakkab; kaliy, magniy, temir alyuminiy, kremlniy va suvdan iborat. Rangi to'q yashildan qoramtil yashilgacha mo'rt. Qattiqligi 2-3, solishtirma og'irligi 2,2-2,8. Dengiz yotqa-ziqlardan hosil bo'lgan jinslarda hamda qum va qumtoshlarda mayda yumaloq, noto'g'ri kristallar shaklida uchraydi. Glaukonit sanoatining ko'p sohalarida ishlatalidi.

Gneys (рус. Гнейс, ing. Gneiss) – o'ta qattiq tog' jinsi bo'lib, kvarts, dala shpati va slyudaga boy, rangi va mineral tarkibiga ko'ra granitga o'xshab ketadi.

Gomogen kataliz (рус. Гомогенный катализ, ing. Homogeneous Catalysis) - reagent va katalizator bir xil agregat holatida bo'lgan kataliz gomogen kataliz deyiladi.

Horizontal quduq (рус. Горизонтальная скважина, ing. Horizontal well) - vertikalga nisbatan burg'ilash yo'nalishi qiyalik burchagi minimal 80° bo'lgan quduq.

Gradiyent (рус. Градиент, ing. Gradient) - makonda har qanday fizik o'lchami o'zgarishi (ko'payishi yoki kamayishi). yer harorat gradienti - chuqurlik bilan haroratni o'zgarib borishi

Granit qatlam (рус. Гранитный слой, инг. Granite layer) - yer po'stlog'ida juda yupqa qatlamda uchraydigan magmatik tog'jinslari.

Granitlanish (рус. Гранитизация, инг. Granitization) - nordon magmatik jinslarni xususan, granitlarni (dioritlar, grandioritlar, granitlarni) metosomatoz natijasida hosil bo'lish jarayoni. Tabiatda dokembriy o'lkalarida keng tarqalgan. Magmatik granitlardan farqi katta (struktura, tekstura va tarkibida). Ultrame-tomorfizm jarayonlari bilan uzviy ravishda bog'liq.

Granula (рус. Гранула, ingl. Granule) - qattiq fazali dispers tizimlarning o'lchami 10-3-10-2 mm bo'lgan struktura birligi.

Granulometr (рус. Гранулометр, инг. Granulometer) - sochiluvchi materiallarning granulometrik tarkibini o'lchovchi avtomatik yoki avtomatlashtirilgan moslama.

Gravimetriya (рус. Гравиметрия, инг. Gravimetry) - yer gravitasion maydonini o'rGANUVchi fan. Yerni har qanday nuqtasida og'irlilik kuchlarini taqsimlanishni o'rganadi. Yer fizikasining bir qismi.

Og'irlikni tarqalishi, uning Yerni ichki tuzulishini, qobig'ini o'rGANISHIDA keng foydalaniladi.

Gravitatsion cho'kish (рус. Гравитационное осаждение, инг. Gravity precipitation) - bu

apparatdan o'tayotganda tortishish ta'siri ostida zarralarning vertikal ravishda cho'kishi.

Gravitatsion rejim (рус. Гравитационный режим, инг. The gravity mode) - neftli uyumning rejimi. Bunda neftning quduq tubi tomon harakatlantiruvchi kuch neftning og'irlilik kuchi hisoblanadi.

Gravitatsiya (рус. Гравитация, инг. Gravitation) - tortish kuchi, hayot muhitining konstantasi, uning zarur sharoitlaridan biri hisoblanadi. Yeming tortish kuchi uning yuzasidan uncha uzoq bo'limgan (kosmik masshtab o'lchoviga ko'ra) masofada erkin tushishning 9,8 m/s tezlanishi bilan tavsiflanadi.

Gudron (рус. Гудрон, ingl. Tower bottoms; heavy still bottom; heavy (vacuum) distillation residue; asphaltum) - neftni atmosferavakuum haydash yoki mazutni vakuum haydash qoldig'i bo'lib 450-540 °S dan yuqori haroratda qaynab chiqadi. Kislotali gudron (ингл. acid residue) deb ba'zi neft mahsulotlarini sulfat kislotali tozalash qoldiqlariga ham aytildi.

H

Halokat (avaruya) (рус. Авария, инг. Crash) - geologik, tektonik, texnik va texnologik jarayonlar ta'sirida burg'ilash quvurlari

devorlarining o'pirilishi, burg'i-lash asboblarining shikastlanishi dvigatel, mexanizim, elektr simi va elektrapparatlarning buzilishi.

Halokat (avariya) signalizatsiyasi (рус. Аварийная сигнализация, ing. Alarm system) - vazifasiga qarab halokatning oldini olish, chaqirish, buyruq berish, o't o'chirish, favvora (fontan) otilishidan ogohlantirish, qidirish uchun mo'ljallangan qurilma. Signal qurilmalari mexanik, gidravlik, pnevmatik, elektr va radio tizimlari bilan ishga tushiriladi. Signallarni elektr orqali uzatish usuli keng tarqalgan, chunki u ayni vaqtda juda ko'p tarqalgan turli signallarni ancha uzoq masofaga uzatishga imkon beradi. Elektr signalizatsiya energotizimining markaziy boshqarish bo'limi hisoblanadi. U avtomatik vositalar bilan bajariladi. Uning vizual yoki akustik xillari bor. Vizual signalizatsiyasiga lampochkali tabloning yonishi, halokat bo'ladigan joy tasvirining yoritilishi kiradi. Halokatning oldini olish uchun, ko'pincha, yonib o'chadigan qurilmadan foydalaniladi. Akustik signallar sifatida sirena, qo'ng'iroq, gudok ishlatalidi.

Halokat (avariya)ni bartaraflash ishlari (рус. Аварийно-восстановительные работы, ing. Destruction (accident) disposal works)

- qurilma, uskuna, yer osti va yer usti inshootlarning to'satdan buzilishini, suyuq loy va bosimini, suvli gorizontlardan keladigan tog' jinsi qorishmasini, sodir bo'ladigan yong'lnarni gaz, ko'mir, tog' jins otqindilarining hosil bo'lishini, suv saqlagich va tindirgichlarning o'pirilishini, dvigatel, mexanizm, elektr simi va elektrapparatlarning buzilishini, burg'ilash asboblar, nasos kompressorlar, mustahkamlovchi quvurlar birikmasining uzilishini, sinishini, qisilishini, burg'ilash eritmasi ayylanishining to'xtab qolishini neft va gaz oqimlarining bir qatlamdan ikkinchi qatlamga o'tishi'kabi halokat jarayonlarini nazorat qilib turish ishlarining majmui.

Halokat (avariya)ni ta'mirlash (рус. Ремонт аварии, ing. Repair of Crash) - ancha shikastlangan burg'ilash dastgohi, dvigateli va asbob-uskunalarining buzilga qisimlarini ta'mirlash.

Halokat turlari (рус. Виды аварий, ing. Types of accidents) - burg'ilashda bir necha halokat turlarini ajratish mumkin: Mustahkamlovchi quvurlar va burg'ilash asboblarining sinishi, uzilishi; Mustahkamlovchi quvurlar, burg'ilash asbobi (rezbali-kertikli) qismlarining ishdan chiqishi; Arqon va karotaj simlarining uzilishi; Burg'ilash

asboblarining siqilib qolishi; Quduqqa burg'lash asboblari va begona jismalarning tushib ketishi. Halqa (рус. Кольцо, ing. Ring) - burg'lash jarayonida keng qo'llaniladigan moslama. Uning zichlagich, koronkali, qaytaruvchi, harakatchan prujinali, qoplamlali, sug'irish, tirgovich, sementli va boshqa turlari mavjud.

Halqasimon gidrozarbalagich (рус. Гидроударник кольцевой, ing. Ring water hammer) - chuqurligi 300 metr, koronka diametri 112 mm, suv sarfi 240-260 l/min bo'lgan burg' qudug'ini kovlashga mo'ljallangan.

Harakatdagi gidrostatik bosim (рус. Гидростатическое давление при движении, ing. Hydrostatic pressure when moving) - yer osti suv yoki neft oqiminining ikki nuqtasidagi bosimlar farqi.

Havoning mutloq namligi (рус. Абсолютная влажность воздуха, ing. Absolute humidity) - muayyan haroratda 1 m^3 havo tarkibidagi suv bug'ining shuncha hajmdagi havo og'irligiga teng miqdori. U g/sm^3 , mm.simob.ust. yoki Pa bilan ifodalanadi.

Havoning nisbiy namligi (рус. Относительная влажность воздуха, ing. Relative humidity) - muayyan haroratda havodagi suv bug'lari miqdorining shu haroratda havoni to'yintirish uchun zarur bo'lgan suv bug'i

miqdoriga nisbati. U foiz bilan ifodalanadi.

Haydash qudug'i (рус. Нагнетательная скважина, ing. Injection well) - qatlardagi bosimni saqlab turishni amalgalashirishda neft uyumlari chegarasining tashqi hududlariga yoki neft olishning ikkilamchi metodlari qo'llanilayotgan neftli maydonlardagi hamma uyumlar tashqi hududlarga suv (gaz) haydash uchun mo'ljallangan maxsus burg'lash qudug'i.

Haydovchi quduq (рус. Нагнетательная скважина, ing. Injection well) - qatlam bosimini saqlab turish va uglevodorodlarni olish tezligini boshqarib turish uchun mahsuldar qatlamlarga gaz, suv, issiqlik tashuvchilarni haydash uchun quduq.

I

Ikki valli gidroqorishtirgich (рус. Гидромешалька двухваловая, ing. Two-shaft hydraulic mixer) - 10 m^3 gilli eritma sig'adigan ikki valli gil qorishtirgich. U bir valli gil qorishtirgichdan farq qiladi. Bunda baraban korpusi va romi bir butun qilib yasaladi. Val yoniga kichik kesimli parrak ($25 \times 60 \text{ mm}$) lar o'rnatilgan. Bu esa ularning engilishiga bo'lgan qarshiligini oshiradi va parrakli doimo bir tomonga qarab aylanadi.

Ikkilamchi neft (рус. Вторичная нефть, ing. Secondary oil) – neftning dastlabki hosil bo'lgan joyidan sizib o'tib, boshqa joyga to'planishi.

Ikkilamchi neft (gaz) uyumi (рус. Вторичная залежь нефти(газа), ing. Secondary oil(gas) deposit) – hamma neft va gaz uyumlari aslida ikkilamchidir. Chunki neft va gaz dastlab paydo bo'lgan joydan siljib, ko'chib va harakatlanib boshqa joylarda uyumlar hosil qiladi.

Infiltratsiya suvlari (рус. Инфильтрационные воды, ing. Infiltration waters) – atmosfera suvlaringin tog' jinslari bo'liqlari orqali singishidan hosil bo'ladigan yer osti suvlari.

Infiltratsiya zonasi (рус. Зона инфильтрации, ing. Infiltration zone) – litosferaning yuqori qismi, bunda atmosfera suvlari tog' jinslari ichiga shimaladi.

Ingibitor (рус. Ингибитор, ing. Catalyst) - kimyoviy reaksiya tezligi va yo'nalishiga ta'sir etuvchi, ammo reaksiya so'nggi mahsuloti tarkibiga kirmaydigan modda.

InjectoR (рус. Инжектор, ing. Injector, inspiratory) - gazlar, bug'ar va suyuqliklarni turli jihozlar, rezervuarlar va quvur uzatgichlarga haydash, gazlar va bug'larni siqish uchun oqimli nasos.

Intruziv jinslar (рус. Интрузивные породы, ing. Intrusive rocks) – yer po'stining chuqur qismida magmaning kristallanishi natijasida hosil bo'ladigan magmatik jins.

Intruziya (рус. Интрузия, ing. Intrusion) – yer po'stining chuqur qismida magmaning kristallanishi natijasida hosil bo'ladigan magmatik jins.

Inversiya (рус. Инверсия, ing. Inversion) - o'rin almashish. Geofizikada Yerni magnit maydonini teskari o'zgarishi (shimoliy qutb janubiyga aylandi). Geologiyada keng tarqalgan atama (masalan, botiqlar va cho'kmalarni balandlikka aylanishi).

Ishchi agent (рус. Рабочий агент, ing. Working substance) - qatlam bosimini saqlash yoki ikkilamchi neft qazib olish usullari qo'llash uchun qatlamlarga haydaladigan suyuq yoki gazlar uchun umumiy nom. Bu nom kompressor usulida quduqlarni ishlatishda haydaladigan gaz (havo) ga nisbatan qo'llaniladi.

Ishlash bosqichlari(neftni suv bilan siqib chiqarishda) (рус. Этап разработки (при вытеснении нефти водой), ing. Stage of development (oil displacement by water)) – quduqlarni ko'p qatorli joylashtirishda,

olish quduqlari qatorining tashqi qator holida ishlagan davri.

Ishlash natijalarini namoyonlashtirish (рус. Визуализация результатов обработки, ing. Visualization of processing results) - elektron hisoblash mashinalari yoki talqin qiluvchi (interpretator) yordamida olingan natija (solishtirma elektr qarshiliq g'ovaklilik neft va gazlilik va h.k.)larni jadval, chizma va matn ko'rinishda plotter yordamida aks ettirish.

Ishlash qavati (рус. Этаж разработки, ing. Development floor) - ko'r qatlamlı konning ishlatish ob'yektlarining guruhi. I.k.ning chegarasidagi ostki bazis ob'yekti birinchi navbatda, qolganlari bazis ob'yektidagi quduqlar bilan qidiruv davom ettirilgandan so'ng ishga tushiriladi.

Ishlash tizimi varianti (рус. Вариант системы разработки, ing. Development system option) - muayyan texnologik qarorlar va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tavsiflanuvchi ishlatish ob'yektining loyihaviy ishlash tizimi turlaridan biri.

Ishlatish (qazib olish) qudug'i (рус. Эксплуатационная (добычающая) скважина, ing. Operational (mining) wells) - neft va gaz qazib chiqarish uchun mo'ljallangan quduq.

Ishlatish qatori (рус. Эксплуатационный ряд, ing. Operating range) - atrofidagi uyum zahirasini va suv bostirilgan qismidan siqb chiqarilgan neftri chiqarish quduqlari qatori. Amaniyyotda bir, uch va besh qatorli quduqlar sxemasi qo'llaniladi. Qatlamni yakuniy ishlash davrida boshqa hamma ishlatish qatoridagi quduqlar tugatilganda (suvlanganligi yoki iqtisodiy sababli) faqat markaziy ishlatish qatoridagi quduqlar harakatda bo'ladi.

Ishlatish quvuri (рус. Эксплуатационная колонна, ing. Production string) - quduq devorlarini mustahkamlash uchun quduqqa tushadigan quvurlar to'plami (odatda diametri 100 mm dan ortiq).

Ishlatish quvurlari birikmasi (рус. Эксплуатационная колонна, ing. Operating column) - quduq devorini o'tkazuvchan gorizontlardan ajratib turadigan ichki mustahkamlovchi quvurlar birikmasi. I.q.b. quduqning zichligini uzoq muddat ta'minlab, ichidagi ko'tarish quvurlari orqali qatlam flyuidi yuzaga chiqariladi. I.q.b. diametri qatlam flyuidining turi, quduqdan olinadigan mahsulot miqdoriga, qatlam bosimi va ishlatish sharoitiga bog'liq.

Ishqorlar (рус. Щелочки, ing.

Alkali, base) - suvda eruvchan asoslar. Ishqorlar suvli eritmalarini gidroksil ionlarining yuqori konsentratsiyasi bilan tavsiflanadi. **Isitish** (рус. Подогрев, инг. Heating) - issiqlikni muhitga uning haroratini oshirish, agregat holatini o'zgartirish yoki kimyoviy o'zgarishlar maqsadida keltirish. **Issiqlik balansi** (рус. Тепловой баланс, инг. Heat balance) - ajraladigan va sarflanadigan issiqlik nisbati.

Issiqlik o'tkazuvchanlik (рус. Теплопроводность, инг. Heat conductivity) - Issiqlik o'tkazuvchanlik deb, vaqt birligi ichida birlik yuzadan oqib utuvchi shunday teng birlik harorat gradientiga aytildi.

Issiqlik oqimi (рус. Тепловой поток, инг. Heat flow) - mantiyadan yer qobig'iga issiqlik harakati (m^3Vt/m^2). Yerning energiya rejimini tavsiflaydi. Termal (geotermik) maydonning differentsiatsiyasi kesish va gorizontal ravishda kuzatiladi va geologik organlarning termal fizikaviy xususiyatlarini aks ettiradi.

Issiqlik tashuvchi (рус. Теплоноситель, инг. Heat carrier) - issiqlik almashinuv jarayonini amalga oshirish uchun ishlataladigan harakatlanuvchan suyuq yoki gazsimon muhit.

Izlov burg'ilash (рус. Поисковое бурение, инг. Prospect drilling) -

razvedka burg'ilashning bir turi. Foydali qazilmalarni: neft, gaz, ko'mir, mis, suv va boshqalarni topish uchun burg'ilanadi. U yoki bu maydonda neft va gaz to'planganligi haqida ma'lumot izlov burg'ilash yordamida olingandan so'ng, unga asoslanib, razvedkaning keyingi mufassal bosqichiga o'tiladi va konning sanoat miqiyosidagi ahamiyati belgilanadi.

Izobarik jarayon (рус. Изобарный процесс, инг. Isobaric process) - ideal gazning doimiy bosimi va massasida tizimda sodir bo'ladigan termodynamik jarayon.

Izobutan fraksiya (рус. Изобутановая фракция, инг. Isobutene fraction) - asosan izobutandan iborat bo'lgan va eng oxirgi gazlarni qayta ishlashdan olinadigan tor uglevodorod frak-siyasi. Alkillash qurilmalari uchun va sintetik kauchuk ishlab chiqarish uchun xom-ashyo sifatida ishlatiladi.

Izomerizat (рус. Изомеризат, инг. Isomerizate) - parafin uglevodorodlar katalitik jarayonining maqsadli mahsuloti bo'lib, yuqori oktan soniga ega va benzin komponenti sifatida ishlatiladi.

Izopentan fraksiyasi (рус. Изопентановая фракция, инг. Isopentane fraction) - asosan izopentandan iborat bo'lgan va

eng oxirgi gazlarni qayta ishlashdan olinadigan tor uglevodorod fraksiyasi. Izopren kauchuk ishlab chiqarish va yuqori oktanli benzinlar komponenti sifatida ishlatiladi.

Izotoplар (рус. Изотопы, инг. Isotopes) - yadro zaryadlari bir xil, massasi jihatdan farq qiluvchi atomlar izotoplар deyiladi.

J

Jadallashtirilgan ishlatish (рус. Эксплуатация форсированная, инг. Forced operation) - suvlangan quduqlarda (uyumlarda) o'rtacha suyuqlik olish sur'atidan jadal sur'atda suyuqlik olishga o'tish. Jadal suyuqlik olish qatlamga gidrodinamik ta'sir etish usullaridan biri bo'lib, yakuniy ishlashda amalga oshiriladi. Jadal suyuqlik olish, uyumdan katta hajmda suv o'tishi sababli neft olishni oshirish, uyumni ishlash davrini qisqartirish va qatlamni yakuniy neft bera olishini oshirish imkoniyatini beradi.

Jelonka (рус. Желонка, инг. Bailer) - burg'ilash jarayonida maydalangan tog' jinslarini va eritmalarini yer yuziga chiqarishga mo'ljallangan silindr shaklidagi metall idish. U quduqlarini o'zlashtirishda qumli tiqinlarni tozalashga, quduqga sement eritmasini uzatishga, sinash uchun qatlamdan eritmani

tortib olishga mo'ljallangan. Jelonka quvursimon korpusdan iborat bo'lib, uning pastki qismiga boshmoqli to'sqich biriktirilgan. Jelonkaning yuqori qismi kertik (rezba) sanchqili bo'lib, burg'ilash quvuriga yoki arqonga ulangan. Jelonkaning avtomatik, quyuvchi, tozalash, porshenli, eritmani tortish, burg'ilangan tog' jinslarini chiqarish, sement eritmasini quyish, quduqlarни chuqurlash-tirish, yassi to'sqichli, shar to'sqichli, barabanli, chig'irli va boshqa turlari mavjud.

Jins-kollektorlarning fizik xususiyatlari (рус. Физические свойства половых коллекторов, инг. Physical properties of reservoir rocks) - kollektor jinslarning kon geologiyasi tomonidan inobatga olinadigan xususiyatlari: zichligi, govakligi, bo'shlqligi, o'tkazuvchanligi, bo'shlqlik strukturasining tavsifi, neft-gazni suvga to'yinganligi, yuza xususiyatlari, issiqlik sig'imi, siqiluvchanligi va b.

Jinslar o'tkazuvchanligi (рус. Пропускная способность породы, инг. The throughput of the breed) - bosimlar kamayganda tog' jinslarining o'zidan suyuqlik va gaz o'tkazish qobiliyati. Tabiatda odatdag'i gidrostatik bosimda suv va boshqa suyuqliklarni o'tkazadigan tog' jinslari o'tkazuvchan hisoblanadi.

O'tkazuvchanlik o'lchovi tog' jinslarining galvirakligi, shuningdek suyuqlik yoki gazdag'i bosimga bog'liq. O'tkazuvchanlik darajasiga ko'ra jinslar o'tkazuvchan (shag'al, qum, gravit), yarim o'tkazuvchan (mayda zarrali qum, torf, lyoss) va o'tkazuvchan emas (gil, zich cho'kindi va kristalli jinslar) ga bo'linadi.

Jinslarning g'ovakligi (рус. Пористость пород, ing. The porosity of rocks) - olingan hajmdagi tog' jinsi orasidagi umumiy bo'shliq.

Jinslarning kapillyarligi (рус. Капиллярность пород, ing. Capillarity of rocks) - jinsning kapillyar bo'shliq va yoriqlarida suvni ko'tarish va saqlash xususiyati.

Jinslarning nam sig'imi (рус. Влагоемкость пород, ing. Moisture capacity of rocks) - ularning ma'lum miqdorda suvni sig'dira olish va uni tutib turish xususiyati.

Jinslarning suv beruvchanligi (рус. Водоотдача пород, ing. Water recovery of rocks) - suvgaga to'yingan tog' jinsining suv berish qobiliyati.

Joul-Tomson koeffitsiyenti (рус. Коэффициент Джоуля-Томсона, ing. Joule-Tomson coefficient) - bosim 0,1 MPa ga pasayganda gaz haroratining harakatida kichik diametrli trubkadan katta

diametriga o'tishida haroratning pasayishi. Aks hollarda haroratning ortishi kuzatiladi. Bu hodisa Joul-Tomson yoki drossel effekti deb yuritiladi.

Juda chuqur burg'ulash (рус. Бурение сверхглубокое, ing. Ultra-deep drilling) - har xil turdag'i va toifadagi quduqlarni o'rtacha qiymatdan yuqori chuqurlikda qurish. Shartli ravishda bu daraja 5000 (ba'zan 6000) metr uchun olinadi. Juda chuqur quduqlarning aksariyati AQShda (dunyodagining 85%) burg'ulangan.

K

Kabel moyi (рус. Кабельное масло, ingl. cable oil) - moy to'ldirilgan kabellarda to'yintiruvchi va izolyasiyalovchi muhitni yaratish uchun mo'ljallangan moy.

Kam oltingugurtli neft (рус. Малосернистая нефть, ing. Sweet crude) - tarkibida 5% gacha oltingugurt bor neft.

Kam parafinli neft (рус. Малопарафинистая нефть, ing. Low paraffin oil) - Tarkib massasi bo'yicha 1,5% dan kam parafini bor neft.

Kam smolali neft (рус. Малосмолистая нефть, ing. Few resinous oil) - tarkibida 18% smola bo'lgan neft.

Kaolinli gil (рус. Глина каолиновая, ing. Kaolin clay) - tog' jinsi. U tog' shpati va silikatlarning nurashidan paydo bo'ladi. Kimyoviy tarkibi $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{SiO}_2 \cdot 2\text{N}_2\text{O}$. qattiqligi 1-2,5, solishtirma og'irligi 2,6. Rangi oq, sariq, pushti, bo'z rang, ushlanganda yog'dek tuyiladi. Kaolinli gillardan sanoatda, burlg'ilash ishlarida keng foydalaniladi.

Kapillyar bog'langan suvlar (рус. Капиллярные связанные воды, ing. Capillary bound waters) - bunday suvlar tog' jinslaridagi juda tor kanalchalarda (kapillyarlar) yig'ilib qolgan bo'lib, asosan kapillyar kuchlar ta'siri ostida bo'ladi;

Kapillyar bosim (рус. Капиллярное давление, ing. Capillary pressure) - suvning kapillyar ko'tarilish balandligining bosimi.

Kapillyar kanallar (рус. Капиллярные каналы, ing. Capillary channels) - tog' jinslaridagi bo'shilq va yoriqlar o'zaro tutashib kapillyar kanalni hosil qiladi.

Kapillyar ko'tarilish hududi (рус. Капиллярная повышенная зона, ing. Capillary elevated zone) - aeratsiya hududining eng pastki qismidan g'ovaklar, yoriqlar va boshqa bo'shilqlarda kapillyar kuchlar ta'sirida osilib turgan suvlar. Yer yuzasida va ichida

haroratning o'zgarishi tufayli kapillyar namlik sizot suvlarini sathidan yuqoriga ko'tariladi.

Kapillyar kondensatsiya (рус. Капилляр конденсация, ing. Rain drop condensation) - bug' va gazlarni katalizator g'ovaklarida kondensatsiyalanishi

Kapital (to'la) ta'mirlash (рус. Капитальный ремонт, ing. Overhaul) - ishlash imkoniyatini qisman yoki to'la yo'qotgan mashina, mexanizm va asbob-uskunalarining tiklanish jarayoni.

Karboksi-metiltsellyulozali reagent (KMTS) (рус.

Карбоксиметилцеллюлозовый реагент (КМЦ), ing. Carboxymethylcellulose reagent) - oqish rangli kukun bo'lib, sellyulozani monoxloruksus kislotasi bilan qayta ishlash orqali olinadi. Birinchi marotaba 1933 yili Gubkin nomidagi GP va MINXda ishlab chiqarilgan. Suvda sekin eriydi, 1% ga yaqin sulfanol qo'shib, suvda eruvchanligini oshirish mumkin. KMTS O'zbekistonda 1950 yildan, AQSHda 1944 yildan ishlatilgan.

KMTS reagentining sifati va amalii qo'llanishi uning polimelanish va almashinuv darajasiga bog'liq. Birinchisi qancha katta (>50) bo'lsa, eritmaning suv beruvchanligi shuncha pasayadi, ikkinchisi - KMTS suvda shuncha yaxshi eriydi.

Karotaj (pyc. Каротаж, ing. Logging) - geofizik tadqiqot zondini tushirish va ko'tarish or-qali amalgal oshiriladigan quduqni geofizik tekshirish usullarining umumiy nomi.

Katalitik reaksiya (рус.
Каталическая реакция, анг.
Catalyst reaction) - Katalizator
ishtirokida boruvchi reaksiyalar.

Katalitik tozalash (рус.
Каталитическая очистка, анг.
Catalytic cleaning) - газлар
аралашмасидаги захарли компонентларнинг катализаторлар юрда-
мида зарарсиз юки зарари кам-
бўлган моддаларга айлантириш
усули. К.т. максус камераларда
амалга оширилади. Катализатор-
ларнинг тозаланувчи газ оқими
билин то'qnashadigan сирти хаймини
oshirish маqsadida ular одатда
думалоq, halqa юки spiral
shakllarida tayyorlanadi.

Kataliz (рус. Катализ, ing. Catalysis) - Kataliz so'zigrekcha bo'lib, uning ma'nosi parchalanish yoki yemirilish demakdir. Lekin katalizator tushunchasi butunlay boshqa ma'noni bildiradi. Reaksiyani tezlatuvchi moddalar katalizatorlar deb, ular ishtirokida boruvchi reaksiyalar esa katalitik reaksiyalar va bunday reaksiyalarni borish hodisasini kataliz deb ataladi.

Katalizat (рус. Катализат, ingl. catalyst) — нефтъ юки

gazokondensat xom-ashyosini qayta ishlash katlitik jarayonlari mahsulotlari (koksdan tashqari).

Katalizator (рус. Катализатор, ing. Catalyst) - ajratib olinadigan agentlar bilan o'zaro ta'sirga kirishib oraliq moddalar hosil qiluvchi kimyoviy modda. K. sifatida metall va ularning birikmalari (platina va platina qatoridagi metallar, mis oksidi, marganes oksidi va boshq.) go'llaniladi.

Kavernogramma (рус. Кавернограмма, англ. Cavernosum) - chuqurlik bo'ylab quduq diametri o'zgarishini ifodalovchi egrichiziq.

Kaynozoy (рус. Кайнозой, англ. Cenozoic) - фанерозойный эон, включающий эру мезозоя и кайнозоя. Установлено, что в мезозое на территории Узбекистана существовали моря и озера, а также горные системы. В кайнозое на территории Узбекистана были распространены саванны и леса. В настоящее время в Узбекистане преобладают саванны и леса.

Kema yoqilg'isi (рус. Судовое топливо, ingl. Bunker fuel; admiralty fuel oil) – kema energetik qurilmalari uchun yoqilg'i.

Kengaytirgichlar (рус. Расширители, ing. Expanders) - quduqdi burg'ilashda qyui tog'jinslarini yemirib quduq, tarasini kengaytiradigan texnologik asbob. K. quduq kovlangandan so'ng

yoki kovlanayotgan paytda kengaytirishga mo'ljallangan.

Kerna(tog' jinsi namunasi) (рус. Керн, инг. Core) - burg'ulash boshi va kerna qabul qilish moslamasidan foydalanish orqali burg'ulash paytida quduqdan olingan silindrsimon shakldagi jinslarning namunasi.

Kerosin (рус. Керосин, ingl. Kerosene) – neftning 150 dan 320 °S gacha harorat oralig'ida qaynab chiqadigan fraksiyalari. Ushbu nomni A. Gesner (AQSh) taklif qilgan – «kerosene oil» («kerosen moyi »). XIX asrda uning nomi «kerosendan» «kerosinga» o'zgargan.

Kimyo (рус. Химия, ingl. Chemistry) - tabiiy va sun'iy moddalarning xossalari, ular tarkibining o'zgarishi tufayli yangi moddalar hosil bo'lish jarayonini o'rnatuvchi fandir.

Kimyoviy element (рус. Химический элемент, ingl. Chemical element) - yadro zaryadlari bir xil bo'lgan atomlarning muayyan turi kimyoviy element deb ataladi.

Kimyoviy eritmalar (рус. Химические растворы, ingl. Chemical solution) - eritadigan va eriydigan moddalarning molekula va zarrachalaridan tashkil topgan, bir- biriga fizik va kimyoviy ta'sir etadigan bir jinsli tizim. Termodynamik muvozanat tizimini

tashkil qiladigan, bir yoki bir necha moddalarning makroskopik bir jinsli aralashmasi hisoblanadi.

Kimyoviy formula (рус. Химическая формула, ingl. Chemical formula) - moddalar tarkibining kimyoviy elementlarning belgilari bilan yodlanishi kimyoviy formula deb ataladi.

Kimyoviy o'zgarishlar (рус. Химические изменения, ingl. Chemical change) - moddalarning tarkibi o'zgarishi bilan sodir bo'ladigan hodisalar kimyoviy o'zgarishlar deyiladi.

Kimyoviy reagentlar (рус. Реагенты химические, ingl. Chemical reagents) - burg'ilash eritmalarining xossalari (qovushqoqlik, suv beruvchanlik, siljishning statik kuchlanishi va h.k) boshqarish hamda eritmaning moylash va emulsiya hosil qilish qobiliyatini oshirish maqsadida foydalilanadigan reagentlar.

Kinematiq tavsiflar (рус. Характеристики кинематические, ingl. Kinematic characteristics) - seysmik razvedka metod parametrleri, seysmogrammalardagi muntazam to'l-qinlar godografining xususiyatlari va ko'rsatkichlari. Seismogrammada godograflar ko'rinishi, kinematik tuzatishlar va ularning portlatish punktidan kuzatish punktining qay masofada joylash-

gani bilan bog'liq o'zgarishlari va h.k.

Kinetik (cho'kindi) turg'unlik (рус. Кинетическая (седиментационная) устойчивость, ing. Kinetic (sedimentation) stability) - tizimning Arximed kuchlari ta'siri ostida cho'kishga bardosh berish qobiliyati.

Kislotalar (рус. Кислоты, ing. Acids) - metallarning atomlariga o'rnnini bera oladigan vodorod atomlari bilan kislota qoldiqlaridan tarkib topgan murakkab moddalar. Ularni kislorodli (H_2SO_4 , H_3PO_4 va boshqalar) va kislorodsiz (HCl , HBr , H_2S va boshqalar) guruhlarga ajratish mumkin.

Kislotali agregat (рус. Кислотный агрегат, ing. Acid aggregate) - burg'i quduqlariga kislota bilan ishlov berishga mo'ljallangan agregat.

Kislotalik (рус. Кислотность, ingl. Acidity) – neft mahsulotida organik kislotalar miqdorini tavsiflovchi sifat ko'rsatkichi.

Klapan (рус. Клапан, ing. Valve) - quvurlar orqali suyuqlik yoki gaz oqimini nazorat qilish va boshqarish qurilmasi. Klapan-larning asosiy turlari: membranali, qulflash, sharsimon, drosselli, to'xtatuvchi va saqlovchi.

Ko'chma burg'ilash qurilmasi (рус. Передвижная буровая установка, ing. Mobile drilling

rig) -hamma agregat minora bilan birgalikda chanaga yoki g'ildirakli gusenisali aravachaga o'rnatilgan bir yoki bir necha romga yig'iladi. Bunday qurilmalar burg' quduqlar orasidagi masofalar yaqin bo'lganda qo'llaniladi. Qurilmani bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish avtomashina yoki traktorda tortib o'tkaziladi.

Ko'rinadigan qalinlik (рус. Видимая мощность, ing. Apparent power) - qatlamning (ishlatish ob'yekti, gorizont, qatlamacha va b.) ustki va ostki qismi oralig'idagi masofa. K.q. qatlam yo'nalishi va maydonda ixtiyoriy yo'nalgan chiziq bo'yicha o'lchanadi.

Koagulyatsiya (рус. Коагуляция (свертывание), ing. Coagulation) - Kolloid eritmada o'zi bilan ko'p miqdorda erituvchini cho'kma korinishida olib tushuvchi modda.

Koalesensiya (рус. Коалесценция, ing. Coalescence) - globulalarni bir-biri bilan to'qnashganda birlashish jarayoni.

Kogerent elementlar (рус. Когерентные элементы, ing. Coherent elements) - geokimyoda bir-biri bilan uзви bog'langan, aloqador elementlar. Masalan, granit tarkibidagi Sc ni kaliy bilan, misni temir bilan bog'liqligi.

Kogeziya (рус. Когезия, ing. Cohesion) - alohida faza ichida atomlarni va molekulalarning

tortishishi. K. moddalarni kondensatsiyalanish zonalarda mavjudligini aniqlaydi. K. kuchlari ayrim hollarda attraktsiya (tortishish) kuchlari deb ham ataladi. K. ishi (maydon birligiga teng) kesim bo'yicha jism joyini qayta o'zgarishiga sarf qilingan energiya bilan aniqlanadi. K. gomogen fazalaridagi molekulalararo o'zaro ta'sirni aks etishi sababli, uning kristall panjaralari energiyasi, ichki bosimi, bug' hosil bo'lishi energiyasi, qaynash harorati va boshqa ko'sratkichlarini tavsiflaydi.

Koks (рус. Кокс, англ. Coke) – tabiiy yoqilg'ilarni (toshko'mir, torf va neft qoldiqlarini, asosan gudronni) 950–1050 °S gacha (neft koksini ishlab chiqarishda 440–560 °S gach havosiz kokslash) isitish jarayonining qattiq uglerodli qoldig'i.

Kokslanish (рус. Коксование, англ. Coking) – yoqilg'ini havosiz yuqori haroratlarda isitishda koks cho'kindilarini hosil qilish qobiliyati.

Kolloid eritmalar (рус. Коллоидные показатели, англ. Colloidal indicators) – bular dispersion muhit bilan dispers fazadan tarkib topgan ikki fazali tizimlardir. Ularda dispers fazalarining chiziqli o'lchamlari 0,001 dan 0,1 mkm gacha

bo'ladi. Kolloid eritmalar zollar deb ataladi.

Kompensator (рус. Компенсатор, англ. Compensator) – harorat o'zgarishini o'ziga olishi uchun moljallangan quvur uzatgichning berilgan egrilikdagi maxsus konstruksiysi yoki bo'limi.

Kompressor (рус. Компрессор, англ. Compressor) – havo yoki gazni 0,015 MPa dan kichik bo'limgagan ortiqcha bosimgacha siqadigan mashina. Tuzilishi bo'yicha hajmiy, kurakli va ishlash printsipiiga ko'ra oqimli xillari mavjud. Siqiladigan gaz (havo, kislorod)ning turiga qarab, hosil qilinadigan bosimga qarab past, o'rta va yuqori bosimli xillariga bo'linadi.

Kompressor moyi (рус. Компрессорное масло, англ. Compressor oil) – porshenli va rotorli kompressorlar, turbokompressor mashinalar va sovitish kompressorlarining uzellari va mexanizmlari uchun qo'llaniladigan moy.

Kompressor stantsiyasi (рус. Компрессорная станция, англ. Compressor station) – qisilgan havolarni o'ziga olish va u bilan har xil pnevmatik asboblarini ta'minlashga mo'ljallangan stantsiya.

Kompressorsiz gazlift (рус. Бескомпрессорный газлифт, англ. Natural pressure gas-lift) –

quduqlarni ishlatalish chog'ida gaz va gazkondensat konlaridagi quduqlardan o'z bosimi bilan kelayotgan tabiiy gazdan foydalanish. Agar neft va gaz uyumi bir maydonda joylashgan bo'lsa, u holda quduq ichida K. g. dan foydalanish mumkin. Uning o'ziga xos xususiyati - ustki yoki ostki gaz qatlidan gazni bevosita neft qudug'i orqali kelishidir.

Kon (рус. Месторождение, ing. Field)-yer po'stida foydali qazilmalar to'plangan joy. Kon-dagi foydali qazilmalarning miqdori va sifati hozirgi zamon iqtisodiyoti va texnika tarraqqiyoti talabiga javob bergandagina sanoat ahamiyatiga ega kon hisoblanadi. Foydali qazilma korlar gaz, suyuq va qattiq bo'ladi. Konlar zahirasiga, sifatiga va xalq xo'jaligidagi tutgan o'rniغا ko'ra kichik, o'rta va katta bo'ladi.

Kon gazi omili (рус. Фактор газовый промысловый, ing. Gas field factor) - olingan neftdan ajratilgan gazning hajmini gazeizlashtirilgan neft miqdoriga bo'lgan nisbati. Neft uyumini ishlashda K.g.o.ning o'zgarishi boshqa ko'rsatgichlar majmui bilan birgalik- da uyunning rejimini va qatlama yuz berayotgan jarayonlarni tavsiflaydi

Kon geofizikasi (рус. Промысловая геофизика, ing. Develop-

ment geophysics) - neft va gaz konlarini qidirish va razvedka qilishda burg' quduqda bajari-ligan geofizik tadqiqotlar. Unga karotajning turli metodlari, quduqning texnik holatini nazorat qilish metodlari; neft va gaz konlarini ishlashini nazorat qilishning geofizik metodlari kiradi.

Kon yer osti suvleri tasnifi (рус. Промысловая классификация подземных вод, ing. Field classification of groundwater) - neft va gaz konlari suvlarining neft(gaz) konlariga nisbatan geologik-maydoniy joylashishiga qarab tasniflash.

Kondensator moyi (рус. Конденсаторное масло, ingl. Capacitor oil; condenser oil) - elektro- va radiotexnikada qo'llaniladigan qog'oz-moy kondensatorlari izolyasiyasini solish va to'yintirish uchun ishlataligan izolyasion moy.

Konduktor (рус. Кондуктор, ing. Conductor) - burg'ilayotgan quduqlarga qo'yiladigan quvurlar. Ular quduqning to'g'ri yo'nalishi va yuqori qismi qatlamlaridagi jinslarning mustahkamligini ta-minlaydi va suvdan muhofaza qilish uchun xizmat qiladi.

Konni ishlashning bosh sxemasi (рус. Генеральная схема разработки месторождения, ing. General scheme of field

development)-ishlatish ob'yektlarini ajratish, ularni ishga tushirish tartibini belgilash, muhim texnologik qarorlarni, har bir ob'yektni va butun konni dastlabki texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlarini, qidiruv ishlarini davom ettirish tadbirlarini asoslash hamda konni bosh jihozlash rejisi tizimiga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida ko'p qatlamli yoki ancha katta neft koni uchun tuzilgan loyiha hujjati.

Konstentrasiya (рус. Концентрация, ing. Concentration) - berilgan komponentning tizimdagi (aralashma, eritmada, qotishmada) nisbiy miqdori.

Konveksiya (рус. Конвекция, ing. Convection) - bir jinsli suyuqliklar, gazlar va sochiluvchan muhitlarda turli haroratlarda turli qavatlarning zinchliklar farqiga ko'ra vertikal aralashishning namoyonlanishi

Ko'pik so'ndiruvchi reagentlar (рус. Пеагенты пеногасители, ing. Defoamer reagents) - burg'ilash eritmalaridagi ko'pikni so'ndiruvchi moddalar. Rezina yoki polietilen uvoqlari asosida tayyorlangan K.s.r. keng tarqalgan. Shuningdek, spirt sano-atichiqndisi - spirt tozalashda hosil bo'ladigan moy, sintetik yuqori molekulyar spirtlar, poli-siloskan asosli kremniyli organik emulsiyalar, yog'li kislota va ularning

hosilalari, damda neft-kimyo sanoati mahsulotlari va b. yaxshi ko'pik so'ndirurchi reagent disoblanadi.

Korrelyasiya (рус. Корреляция, ing. Correlation) - geologiyada bir-biri bilan bog'liq bo'lgan voqe va hodisalarni qiyoslash, taqqoslash. Stratigrafiyada kesmalarni bir-biri bilan taqqoslash va paleogeografik xulosalar chiqarish. Matematikada aloqadorligini bildiruvchi koefitsiyent - korrelyasiya koefissiyenti deb ataladi.

Korroziya (рус. Коррозия, ing. Corrosion) - metall materiallarning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida emirilishi jarayoni.

Kranblok (рус. Кранблок, ing. Crown block) -tal tizimining bir qismi bo'lib, burg'ilash minorasi romi tepasiga joylashtirilgan moslama. U burg' quvurlarni ko'tarish va tushirishga mo'ljalangan.

Krekingning (katalitik yoki termik) yoki kokslashning yengil gazoyli (рус. Легкий газойл крекинга(катализического, термического) или коксования, ingl. Light (catalytic or thermal) gas oil or light coking gas oil) - muvofiq jarayonning 200 dan 280-350 °S gacha qaynab chiqadigan mahsulotlari fraksiyasi.

Kristallanishning boshlanish harorati (рус. Начальная темпе-

ратура кристаллизации, ingl. Chilling temperature) – oddiy ko'z bilan qaraganda uglevodoroqlarning ilk kristallari kuzatiladigan maksimal harorat.

Kristallizatsiya (рус. Кристаллизация, ing. Cristalization) - neftda yuqori erish haroratiga ega bo'lgan, ya'ni og'ir uglevorodlarni ajratib olish uchun qo'llaniladi. eng yaxshi natijaga qiska fraktsiyalar bilan ish ko'rganda, hamda qisman qattiq moddalarning kontsentratsiya bo'lganda erishiladi.

Kristallogidratlar (рус. Кристаллогидраты, ing. Crystalline hydrate) - tashqi ko'rinishdan oq kristall modda bo'lib, muz yoki qattiq qorga o'xshaydi. Gidrallarning asosiy tarkibi suv molekulalarining karbonsuvchil molekulalari bilan birlashishidan hosil bo'ladi. Gaz va gazokondensat konlarini sovuq iqlim sharoitlarida ishlatishda gaz tarkibiga hosil bo'ladi.

Kritik bosim (рус. Критическое давление, ing. Critical pressure) - moddaning (yoki moddalar aralashmasining) uning kritik holatidagi bosimi. Kritik bosimdan past bosimlarda tizim ikkita muvozanat fazasiga - suyuq va bug'ga parchalanishi mumkin. Kritik bosimda suyuqlik va bug 'o'rtasidagi fizik farq yo'qoladi, modda bir fazali holatga o'tadi.

Shu sababli, kritik bosimni, shuningdek, suyuq faza va bug' borligi sharoitida maksimal (eng yuqori) to'yingan bug' bosimi sifatida aniqlash mumkin.

Kronblok (рус. Кронблок, ing. Crown block) - polispast (yuk ko'taruvchi) mexanizmnинг qo'zgalmas qismi. Bashnya turidagi burg'ilash qurilmalariga K. balkalariga o'rnatiladi va ko'tiriladi.

Kryukoblok (рус. Крюкоблок, ing. Hook-block) - polispast mexanizmining harakatchan qismi, unga tal bloki va K. jipslashtirib o'rnatiladi. Tal blokining yon tomoni biroz uzaytirilgan bo'lib, K. korpusi bilan bevosita ulanadi. K.ning texnik tavsifi U-5-300, UK- 225 tal blokiniki bilan monand.

Kub qoldig'i (рус. Кубовый остаток, ingl. Distillation residue) - uglevodorod xom-ashyosini rektifikasiyalash yoki haydash qoldig'i bo'lib, rektifikasiyalash kolonna yoki bug'latuvchining pastki qismidan chiqariladi; boshlang'ich xom-ashyoning yuqori qaynar komponentlari bilan boyitilgan.

Kuch (yuk) (рус. Сила (груз), ing. Power (load)) - jismlarning mexanik ta'sirlanishini ifodalaydigan kattalik. Kuch ta'sirida jismlar o'z holatini o'zgartiradi, tezligini o'zgartirib, tezlanish

oladi. Kuch vektor kattalik, o'zining quyilish nuqtasi, yo'nalishi va son qiymati bilan tavsiflanadi. U mexanik kuch, og'irlilik kuchi, ishqalanish kuchi va elastik kuchlarga bo'linadi. Shuningdek yukning mo'tadil, umumiy, foydali, ishchi xillari mavjud.

Kumulyativ perforator (рус. Кумулятивный перфоратор, ingl. Shaped-charge perforator) - quduqqa perforatorlarda tushiriladigan kumulyativ zaryadlarning portlashi natijasida hosil bo'ladi. Kumulyativ oqimning teshish qobiliyatiga asoslangan perforator. Portlashni amalgashirishda detonatsiya shnuri va portlovchi patron (yoki boshqa portlovchi modda)lardan foydalilanadi.

Kumulyativ zaryad (рус. Кумулятивный заряд, ingl. Shaped charge) - burg' quduq ichiga o'raladigan quvurlarni, sement halqalarni va neft-gaz qatlamlarini teshishga mo'ljalangan o'q-dori solingan asbob.

Kuzatish qudug'i (рус. Наблюдательная скважина, ingl. Observation well) - yer osti suv yuzasi sathini va rejimini, harakatini, kimyoviy tarkibini, bosimini, namuna olishni, suv chiqarishni, suvli qatlamlarning o'zaro boqliqligini kuzatishga mo'ljallangan quduq.

L

Langar (рус. Якорь, ingl. Anchor) - qo'zg'almas o'q atrofida tebranma harakat qiladigan bir yoki ikki yelkali richag; nasoslar, burg'ilash dastgohlari uchun xizmat qiladi.

Ligroin (рус. Лигроин, ingl. Naphtha, ligroin) - 120-240 °S harorat intervalida qaynab chiqadigan neft fraksiyasi; lak-bo'yq sanoatida erituvchi, va suyuqlikli asboblarda to'ldiruvchi siftida ishlatiladi. Ilgari ligroin traktorlar uchun motor yoqilg'isi sifatida ishlatilgan.

Listrik yoriqlar (рус. Листовые трещины, ingl. Leaf cracks) - qanday yo'l bilan hosil bo'lishidan qat'iy nazar, chuqurlik sari qiyalashib boruvchi yoriqlar

Litogenet (рус. Литогенез, ingl. Lithogenesis) - cho'kindi jinslar hosil bo'lishi va keyinchalik rivojlanishi, o'zgarish jarayonlarini umumiy nomi.

Litol (рус. Литол, ingl. Lithoil) - plastik antifriksion suvgaga chidamli moylovchi vosita, 12-oksistearin kislotasining litiyli tuzi bilan quyuqlashtirilgan neft moyidan iborat bo'ladi. Antioksidlovchi va antikorrozion prisadkalarni saqlaydi. Avtomobilarning turli ishqalanuvchi uzellarini, tishli uzatmalar siljish va tebranish podshipniklarini moylash uchun

130 °S gacha haroratgacha ishlataladi.

Litologiya (рус. Литология, ing. Lithology) - zamonaviy cho'kindilar va cho'kindi jinslar, ularning tarkibi, tuzilishi va kelib chiqishi haqidagi fan. Litologiyaning asosiy vazifalari Yerning geologik tarixi davomida tog' jinslarining umumiylar jarayonida turli xil cho'kindi jinslar va foydali qazilmalarni taqsimlash qonunlarini aniqlashdan iborat. Ushbu muammolarni hal qilishning asosiy usuli cho'kindi jinslar, ularning birikmalar - cho'kindi tuzilmalar, ularning to'planishini genetik (fatsial) tahlili hisoblanadi. **Loyiha qudug'i** (рус. Проектная скважина, ing. Planned well) - konni ishslash loyiha hujjatiga mos ravishda burg'ilash uchun rejalahtirilgan quduu.

Loyqalanish harorati (рус. Температура помутнения, ingl. Mudding temperature) - yoqilg'ida normal parafin uglevodoroqlari kristallanishi boshlanadigan, va u o'tuvchi yorug'likda arbitraj (parallel) namunaga nisbatan ravshanligini o'zgartiradigan (loyqalanadigan) maksimal harorat.

Lubrikator (рус. Лубрикатор, ing. Oiler) - gazga kavlangan quduqlarning og'zida bosim ortib ketganda geofizik asboblar va perforatsiya apparatlarini quduq-

qa tushirishda foydalaniladigan qurilma. L. statsionar (ko'chmas) yoki ko'chiriladigan minoralarga o'rnatiladi. L.dan neft va gaz olinayotgan quduqlarda foydalaniladi.

Luping (рус. Лупинг, ing. Looping) - asosiy quvuruzatgichga parallel holda yotqiziladigan va unga o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish uchun biriktirilgan quvur uzatgich.

M

Ma'dan geofizikasi (рус. Геофизика рудная, ing. Ore geophysics) - ma'danli foydali qazilmalarni qidirish va razvedka qilish va ma'dan hududlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarishga mo'ljallangan geofizika sohasi.

Machta (рус. Мачта, ing. Tower) - burg'ilash yoki qo'shimcha ishlar bilan bog'liq bo'lgan tushirish va ko'tarish operatsiyalarini bajarishga mo'ljallangan. Machtaning oltisimon, A-shaklli va qurama turlari mavjud. Balandligi 10-15 m gacha bo'lgan olti shaklli machta eng ko'p tarqalgan.

Magistral gaz quvuri (рус. Газопровод магистральный, ing. Main gas pipeline) - Tabiiy gazni qazib olish hududi yoki kondan

iste'molchigacha uzatuvchi quvur uzatgich.

Magistral neft quvuri (рус. Нефтепровод магистральный, ing. Oil-trunk pipeline) - Neftni qazib olish joyidan iste'molchilargacha uzatish uchun inshootlar majmui.

Magistral neft quvuri texnologik bo'limi (рус. Технологический участок магистрального нефтепровода, ing. Technological section of the main oil pipeline) - bir neft haydovchi stansiyadan keyingi yoki oxirgi stansiyagacha texnologik rejimga ko'ra neft haydovchi magistral neft quvuribo'limi

Magistral quvur (рус. Газопровод магистральный, ing. Gas pipeline) - bino, inshoot, chiziqli bo'lim, qo'yilgan talab-larga javob beradigan mahsu-lotlarni tashish, saqlash va boshqa transport vositalariga yuklash uchun obyektlarni o'z ichiga olgan yagona sanoat-texnologik maj-mua.

Mahsuldor qatlamlarni ochish (рус. Вскрытие продуктивных пластов, ing. Opening of productive layers) - o'zida neft va gazlarni saqlovchi qatlamlarni burg'ilab ochish. M.Q.O. metodlari qatlam bosimiga, qatlarning neftga to'yinganlik darajasiga, drenajlanish imkoniyatiga va boshqalarga bog'liq holda quyidagicha bo'lishi mumkin.

Mahsuldor qatlamlarning o'zaro

bog'liqligi (рус. Взаимосвязь продуктивных пластов, ing. Reservoir relationship) - kollektor-qatlamlarning o'zaro bog'liqligi bo'lib, qatlamlarni o'zaro tutashgan joylarida suyuqlik va gazlar bir qatlamdan ikkinchisiga oqib o'tishida, konni ishslash jarayonida esa qatlam bosimining mos holda o'zgarishida ko'rindi.

Manifold (рус. Манифольд, ing. Manifold)-filtrat yoki neft mahsulotlari oqimini bir nechta kanallarga bo'lish imkonini beruvchi tarqatish tarmog'i.

Markazdan qochma nasos (рус. Центробежный насос, ing. Centrifugal pump) - daryo va ko'llardan suv chiqarishga mo'ljalangan nasos. O'qi gorizontal yoki vertikal joylashgan bo'ladi. Ishchi g'ildiraklari soniga qarab: bir g'ildirakli (bir pog'onali) va ko'p g'ildirakli (ko'p pog'onali) bo'ladi. Qishloq xo'jaligidagi ishlatalidigan xillari: K markali (so'rish balandligi 5-8 m); ENMG (so'rish balandligi 6,0 m ga yaqin); ATN-8, ATN-10 burg' quduqlariga o'rnatish uchun mo'ljallangan bo'lib, ish unumi 30 m³/soat (n-70 m) va 70 m³/soat (N-50 m).

Markazlashtirgich (рус. Центратор, ing. Centralizer) - karotaj o'tkazilayotganda geofizik asbob o'qini burg' qudug'i o'qiga moslab turuvchi qurilma. M. dan akustik usulda ko'p foydalilanadi. M.

elastik to'lqinlarni ifodali ko'rinishda qayd qiladi va akustik shovqinni kamaytiradi. Shovqin akustik karotaj asbobining burg' quduq devoriga ishqalanishidan kelib chiqadi.

Mash'ala tizimi (рус. Факельная система, ingl. Flare system) - gazni atmosferaga chiqarib tashlash tizimi. Gazning texnologik jarayonlarini mo'tadil o'tish davri hamda falokatli holatlarda yalpi gaz chiqarish, uchun xizmat qiladigan tarmoq. Chiqarilgan gaz mash'alada yoqiladi yoki portlashning eng kichik chegarasiga yetkazib xizmat qilayotgan ishchilarga va ishlatilayotgan uskunalarga zarar yetkazmaydigan miqdorda atmosferaga tarqatilib yuboriladi.

Mashina moylari (рус. Машинное масло, ingl. Machine oil) - dastgoh, nasos, bug' mashinasi va boshqalarni moylash uchun ishlatiladigan bir qator industrial (neftdan olinadigan va sintetik) moylarning nomi.

Massiv (yaxlit) neft uyumlari (рус. Массивные нефтяные залежи, ingl. Massive oil deposits) - tepasi suyuqlik o'tkazmaydigan qatlam bilan qoplangan va neftni yaxshi o'tkazadigan bir tarkibli va har xil tarkibli tog' jinslarida hosil bo'lgan qopqon (lovushka) dagi neft uyumi.

Maxsus maqsadlar uchun moy (рус. Специализированное масло, ingl. Perfumery oil; petrolatum oil; salveoil; vaseline oil; white oil) - tibbiyot, parfyumeriya, kosmetika va boshqa shunga o'xshash maqsadlarda ishlatiladigan parfyumeriya, vazelin, oq va boshqa moylar.

Mazut (рус. Мазут, ingl. Residue; bottom; crude bottom) - neftni atmosfera haydashdan qoldiq (kub qoldig'i) (benzin, kerosinva dizel fraksiyalardan haydalishdan), 350–360 °S dan yuqori haroratda qaynab chiqadigan qoldiq fraksiya.

Me'yorlagich (рус. Дозаторы, ingl. Dosers) - Materiallarni massa yoki hajm bo'yicha tarqatish uchun qurilma. Mahsulotlar tayyorlash va qadoqlashda, shuningdek kerakli tarkibning aralashmalarini olish uchun ishlatiladi.

Me'yorlash (рус. Дозирование, ingl. Dosage) - Materiallarni ma'lum bir miqdorda (me'yor) o'lchash va texnologik operasiyalarni amalga oshiruvchi mashina yoki apparat ishchi organlariga aralashtirish.

Metamorfik tog' jinslari (рус. Метаморфические горные породы, ingl. Metamorphic rocks) - cho'kindi yoki otqindi tog' jinslarining harorat, bosim va kimyoviy reaksiyalar ta'sirida qaytadan hosil bo'lishidan kelib

chiqadi. Odatda bunday o'zgarish jarayonlarida tog' jinslarining mineralogik tarkibi, tashqi ko'rinishi va tuzilishi tubdan o'zgarib ketadi. Bu o'zgarishlarda bir xil mineral tarkibdagi tog' jinslarining boshqa bir turdag'i mineral tarkibga o'zgarishi metasomatik jarayon deyiladi.

Metamorfik tog' jinslari (рус. Метаморфические горные породы, инг. Metamorphic rocks) – yer po'stlog'ining ma'lum chuqurligida tog' jinslarning burmalanish harakatlari, kuchli bosim, yuqori harorat ta'sirida o'zgarishidan hosil bo'ladi.

Metan (рус. Метан, инг. Methane) – CH_4 , juda ham turli-tuman sohalarda ishlataladi: Metan tabiiy gaz hamda yoqilgi sifatida ishlataladi. Metan metanol, sirka kislota, sintetik kauchuk, sintetik benzin va juda ko'p boshqa qimmatbaho mahsulotlar olishda dastlabki xomashyodir. Havoga nisbatan zichligi – 0,55; O'zo'zidan yonish harorati – 537 °S; Portlash oralig'i (PO) – 5 – 15 % gacha; Ruxsat etilgan miqdori (REM) – 300 mg/m³.

Metanol (рус. Метанол, инг. Methanol) – (metil spirti, karbinol, metilgidrat, metil gidroksidi) – CH_3OH , eng oddiy bir atomli spirt, rangsiz zaharli suyuqlik.

Mekanik gidroqorishtirgich (рус. Гидромешалка механическая,

ing. Hydraulic mixer mechanical) – quyidagi tartibda ishlashga mo'ljallangan. Bunda aylanayotgan parrakli val yordamida gil suv bilan aralashtiriladi va natijada gil kesaklari parchalanadi, maydalanadi va burg' qudug'i uchun gilli eritma hosil bo'ladi.

Me'yorlovchi nasos (рус. Hacoc дозировочный, инг. Dosing pumps) – vaqt birligida ma'lum miqdordagi suyuqlikni bosim berib harakatlantiradigan nasos. M.n.lar neft kimyosi va xalq xo'jaligi (sanoat)ning boshqa sohalarida har xil toza neytral va aggressiv suyuqliklarni, standart bo'limgan qattiq fazasi umumiyl massasining 10% idan oshmagan va kattaligi klapanni shartli o'tish diametrining 1%idan ko'p bo'limgan konsentratsiyali, qo>vushqoqligi 1500 sSt gacha, harorati 200°S gacha bo'lgan emulsiya va suspenziyalarni bosimli, hajmli me'yoriy haydashda qo'llaniladi. Neft va gazni tayyorlash jarayonlarida M.n.lar eritma, reagent va ingibitorlarni qo'shish uchun qo'llaniladi.

Migratsiya (рус. Миграция, инг. Migration) – tabiiy kuchlar ta'sirida qatlamdag'i neft va gazning ko'chishi.

Mis plastinkada sinovdan o'tkazish (mis plastinka bilan sinash) (рус. Испытание с

помощью медного пластика, ingl. Copper strip test) - neft mahsulotining korrozion agressivligini tavsiflovchi sifat ko'rsatkichi

Moddalar massasining saqlanish qonuni (рус. Закон сохранения массы, ing. Law of conservation of mass) - kimyoviy reaksiyaga kirishgan moddalarining massasi hosil bo'lgan moddalarining massasiga hamma vaqt teng bo'ladi.

Molekulyar massa (рус. Молекулярная масса, ing. Molecular mass) - massa atom birliklarida ifodalangan molekula massasi.

Molekulyar og'irlilik (рус. Молекулярный вес, ing. Molecular weight) - ko'pgina neftlarning molekulyar og'irlilik 250 – 300 atrofida. SHuni eslash joizni, neftning biringchi suyuq uglevorod vakili pentan bo'lib, uning molekulyar og'irligi 72 ga teng. Juda yuqori molekulyar-geteroatom bog'lanish ega bo'lgan neft mahsulotlari smola, asfaltenlarning molekulyar og'irligi 1200–2000 ga etadi.

Molyar ulush (рус. Мольная (молярная) доля, ing. Molar (molar) fraction) - moddaning mollari sonining eritmadagi barcha moddalarining mol soniga nisbati bilan ifodalangan konsentratsiya.

Motor moyi (рус. Моторное масло, ingl. Motor lubricating oil;

motor oil) – ichki yonish dvigatellari (porshenli, rotorli, gazoturbinali) uchun ishlataligan neft yoki sintetik moylovchi moy yoki bu moylarning aralashmasi.

Motor yoqilg'isi (рус. Моторное топливо, ingl. Motor fuel; engine fuel; vehicle fuel) – ichki yonish dvigatellarida (porshenli, rotorli, gazoturbinali) ishlataligan suyuq yoki gazsimon yoqilg'i. Odadta bazviy komponent va ushbu komponentning u yoki bu xususiyatlarini yaxshilaydigan prisadkalardan iborat bo'ladi.

Moy-issiqlik tashuvchi (рус. Теплоноситель масла, ingl. Heat-transfer oil) – neftni chuqur qayta ishlashning yuqori aromatisasiyalangan zaharsiz mahsuloti, yuqori termik barqarorlik va o'z-o'zidan alangananishning yuqori haroratiga ega, 280–320 °S gacha ishlay oladi.

Mufta-qulflı ılash (рус. Соединительная муфта, ingl. Coupling) -burg'ilash quvurlar birikmasining mustahkamligini oshirishga va burg'ilash eritmasini chiqarishda bosimning kam yo'qolishini ta'minlashga mo'ljallangan.

Mustahkamlovchi quvur (рус. Обсадная колонна, ingl. Casing string) - burg'ulash quduqlarini mustahkamlash, shuningdek, mahsuldar qatlamlarni izolyatsiya qilish uchun mo'ljallangan. Har

ikki tomonidan bog'lovchi rezbalari bo'lgan po'lat quvurlardan ishlab chiqariladi.

Mustahkamlovchi quvurlar birikmasi (рус. Соединения обсадных колонн, ing. Casing connections) - quduq devorlaridagi tog' jinslarini o'pirilishdan saqlash va ularni mustahkamlash uchun qo'llaniladigan po'lat quvurlar birikmasi.

Mustahkamlovchi quvurlar turlari (рус. Типы обсадных труб, ing. Types of casing pipes) - quduqlar devorlarini mustahkamlovchi quvurlarning quyidagi turlari mavjud: 1) payvandlangan metalli quvurlar; 2) yaxlit cho'zilgan vintli quvurlar.

Mustahkamlovchi quvurlar uchun markazlashtiruvchi (рус. Центриатор для обсадных колонн, ing. Centralizer for casing) - quduqlarda mustahkamlovchi quvurlarni konsentrik joylashtirish uchun mo'ljallangan. Muştahkamlovchi quvur va quduq devori o'rtaida bir xil sement halqasini shakllantirishga yordam beradi, tushish sharoitlarini yaxshilaydi.

Mustahkamlovchi quvurlarini tushirish (рус. Спуск обсадных колонн, ing. The casing running) - quduqga mustahkamlovchi quvurlar birikmasini tushirish

Muvozanat (рус. Равновесие, ing. Equilibrium) - bu tizimning holati,

unda ishlaydigan barcha kuchlar o'zaro mutanosibdir, ya'ni birbirini bekor qiladi.

N

Naftenli neft (рус. Нафтеновая нефть, ing. Naphthenic oil) - naftenli neftning asosiy komponent qismini neftenli uglevodordorlar tashkil qiladi. Naftenli neftlarda aromatik uglevodordorlar, qattiq parafin va asfalt-smolasi mon moddalar miqdori oz darajada bo'ladi.

Namakob (rassol) (рус. Рассол, ing. Brine) - mineralanishi 35 g/l dan yuqori bo'lgan tabiiy suvlar. Namakob suvlar mineralanish darajasiga qarab: kuchsiz (140 g/l gacha), kuchli (140-170 g/l) va juda kuchli (>270 g/l) turlarga ajratiladi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra xlornatriyli va xlorkalsiyli namakoblar ko'p tarqalgan.

Namlik yoki havoning mutlaq namligi (рус. Влагосодержание или абсолютная влажность воздуха, ing. Moisture or absolute humidity)- 1 m³ havoda joylashgan suv bug'ining massasini ko'rsatadigan fizik miqdor. Boshqacha aytganda, bu havodagi suv bug'ining zichligi.

Namuna olgich (рус. Керно отборник, ing. Corer) - bu halqa shaklidagi burg'i ustidagi quvurning ichi bo'sh qismidir.

Nasos (pyc. Hacoc, ing. Pump) - suyuqliklarni bosim ostida so'rish va haydash uchun ishlataladigan qurilma (gidravlik mashina, apparat yoki asbob). Gazlarni siqish yoki siyraklashtirish, sochiluvchan jismalarni so'rish va haydashga mo'ljallangan mashina ham nasos deb ataladi. Nasoslar ish bosimiga qarab: past bosimli (20 m gacha), o'rtal bosimli (20-60 m), yuqori bosimli (60 m dan yuqori) bo'ladi. Nasosning asosiy parametri ma'lum vaqt birligi ichida haydaladigan suyuqlik miqdori bilan aniqlanadi. Nasosning tebranma, bir, ikki va uch tsilindrli, gorizontal qo'shplunjерli, markazdan qochirma, yer yuziga o'rnatilgan dvigateli. Markazdan qochirma botirma dvigateli va boshqa ko'pgina turlari mavjud.

Nasos agregatları (pyc. Насосный агрегат, ing. Pump aggregate) - so'rish quvuri, nasos, dvigatel, uzatish mexanizmi va boshqalar majmui.

Nasos qurilmalari (pyc. Насосные установки, ing. Pump unit) - nasos, nasosni harakatlantiruvchi manbalar majmui.

Nasos shtangasi (pyc. Штанга насосная, ing. Pump rod) - tebranma dastgohli yer yuzasidagi alohida uzatgichi va quduq orasidagi bog'lovchi bo'g'im. Ilgarilama-qaytarma harakatni

nasos plunjeringa uzatish uchun xizmat qiladi. Shtanga aylanma kesimining diametri 12-28 mm, uzunligi 1000-8000 mm, qiyofasi po'lat sterjen ko'rinishida. Qisqartirilgan shtangalar (1000, 1200, 1500, 2000 va 3000 mm) zarur uzunlikdagi shtangalar birikmasini tanlashga mo'ljalangan.

Nasos stansiyasi (pyc. Насосная станция, ing. Pumping facility (plant, station))-Nasos va yordamchi jihozlarni o'z ichiga oluvchi majmua.

Nasos-kompressor quvurlari (pyc. Насосно-компрессорные трубы, ing. Pump and compressor pipes) - quduqdan foydalanishning hamma usullarida suyuqlik va gazlarning yer yuziga chiqarish uchun quduqga tushiriladigan maxsus quvurlar.

Neft kollektori (pyc. Коллектор нефти, ing. Oil collector) - tog' jinslarida suyuq neft to'planishi uchun sharoit tug'diradigan (kovak, g'ovak, teshik, darzlik, bo'shilq va yoriq) qatlamlar.

Neft (gaz) qudug'i (рус. Нефтяная (газовая) скважина, ing. Oil (gas) well) - neft (gaz) olish uchun mo'ljallangan quduq. Neft (gaz) olish quduqlari yer ostidagi, ko'ndalang kesimi chuqurligiga nisbatan juda kichik, silindr ko'rinishdagi sun'iy tog' inshooti.

Neft (gaz) uyumi (рус. Нефтяная(газовая) залежь, ing. Oil (gas) Deposit) - suyuqlik o'tkazmaydigan qatlamlar yoki qopqoqlar tagida jins kollektorlaridagi tutqichlarda neft va gazning tabiiy ravishda to'planiishi. Neft uyumi uglevodorodlar tarkibiga ko'ra: 1) neftli (neftda erigan gaz bilan); 2) neft - gazli gaz qopqoqli neft uyumi; 3) gazli; 4) gaz kondensatli (ikki fazali va bir fazali) turlarga bo'lindi.

Neft (рус. Нефть, ing. Oil) - yonuvchi moysimon suyuqlik. Qora yoki qo'nig'ir, ba'zan och malla rang yoki rangsiz, o'ziga xos hidli kimyoviy xom ashyo. Neft yer yuzasiga chiqqach, quyilib qotadi va asfaltga aylanadi. Neftning zichligi 0,73 dan 1,04 gacha o'zgarib turadi, qaynash harorati +20-100° S va undan yuqori; qotish harorati (+230)-(-60°S); issiqlik sig'imi 1,7-2,1 KDJ (kg.j); 50°S haroratda neftning yopishqoqligi 0,002-0,55 sm²/s ga teng. U organik eritgichlarda yaxshi eriydi. Suvda umuman erimaydi. Lekin suv bilan emulsiya (bir-biriga singmaydigan ikki xil suyuqlik qorishmasi)hosil qiladi. Neft tarkibiga kiradigan asosiy kimyoviy elementlardan uglerod (82-87%) va vodorod (11-14%) ga ega. Neftning fizik xossasi uning tarkibiga bog'liq. Solish-tirma og'irligi 0,65 g/sm³ dan 0,9

g/sm³gcha bo'lgan neft yengil, undan yuqorisi og'ir neft hisoblanadi. Neftning tarkibida uglevodorod 87% gacha, vodorod 10-15% gacha, kislород 0,05-0,5 dan 5%gacha, juda oz miqdorda vanadiy, fosfor, kaliy, nikel, temir uchraydi. Neft yonilg'i, moylash materiallari hamda sintetik tola, plastmassa, sun'iy kauchik, spirt, kislota va boshqa neft-kimyoviy mahsulotlar chiqarishda keng foydalinadi.

Neft baza (рус. Нефтебаза, ing. Petroleum storage depot, tank farm) - Neft va neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va bir transport turidan boshqasiga qayta yuklashni bajaruvchi qurilma va inshootlar majmuasi.

Neft bera olishni fizik-kimyoviy metodlari (рус. Физико-химические методы повышения нефтеотдачи, ing. Physico-chemical methods of oil recovery) - neftni siqib chiqarish, ishlash va qamrab olish koefitsiyentlarini birgalikda yoki ulardan birini oshirishni ta'minlaydigan fizik-kimyoviy metodlar.

Neft biodegradatsiyasi (рус. Биодеградация нефти, ing. Biodegradation of oil) - neft uglevodorodlarining oksidlanshida ifodalangan uyumlardagi neft tarkibidagi mikrobiologik o'zgarishlar, neft xususiyatlarining yomonlashuvi.

Neft debitini o'lchash (рус. Измерение дебита скважины, ing. Well flow rate measurement) - bitta yoki bir guruh quduqning neft debitini muntazam ravishda o'lchash. Bu ish maxsus mexanik o'lchagich (schetchik)yordamida amalga oshiriladi. Bunday o'lchash yo'li bilan quduqning bir soatlik, bir sutkalik, bir oylik neft debiti (miqdori) hisoblab chiqiladi. **Neft emulsiyasi** (рус. Нефтяная эмульсия, ing. Oil emulsion) - biri ikkinchisida mayda tomchilar holida disperslangan neft-suv tizimi.

Neft erituvchisi (рус. Растворитель нефти, ingl. Petroleum solvent) – sanoatning turli sohalarida (rezina, lak-bo'yoq, kimyo-viy, moy-ekstraksiyalash) organik birikmalarni eritish va ekstraksiyalash uchun, shuningdek metall sirtlarni yuvish va moysizlash uchun ishlatiladigan neft mahsuloti.

Neft gaz uyumi (рус. Залежь нефти и газа, ing. Oil and gas deposits) - gaz qalpoqli neft uyumi. Bu uyumda neft miqdori gazga nisbatan ko'proq bo'lishi bilan farqlanadi.

Neft gazi (рус. Газ нефтяной, ingl. Oil (oil-well, petroleum) gas) - Neft bilan chiqadigan va tarkibida metandan tashqari og'ir gazsimon uglevodorodlar bo'lgan tabiiy gaz.

Neft gidrogeologiyasi (рус. Гидрогеология нефтяная, ing. Petroleum hydrogeology) - yer osti suvlarning paydo bo'lishini, fizk-kimyoviy xossalari, yotish sharoitlarini, harakatlansh qonuniyatlarini o'rganadigan umumiylidgidirogeologiya fanining amaliy yo'naliishi. Neftning paydo bo'lishida, sizilib yer yuziga chiqishida, neft uyumlarining hosil bo'lishida, ularning parchalanishida, neftning hamma rivojlanish tarixida yer osti suvlarini neft uchun faqat muhit bo'lib qolmasidan neftning geokimyoviy evolyutsyasida asosiy omil hisoblanadi.

Neft kislotalari (рус. Нефтяные кислоты, ingl. Petroleum acids) – neft fraksiyalaridan ajratilgan organik (naften) kislotalar va ularning tuzlari.

Neft koxsi (рус. Нефтяной кокс, ingl. Petroleum-based coke). «Koks» atamasiga qarang.

Neft koni geologiyasi (рус. Геология нефтяных месторождений, ing. Geology of oil field) – neft geologiyasi sohalaridan biri. Neft va gaz konlарини qidirub topish va ishlatish masalalarini o'rganadi. Chunonchi, quduqlarning burg'i-lash jarayonini boshqarishi, konlarning geologik strukturalarini aniqlash, katta chuqurlikda yotgan samarador gorizontlarini

izlash va razvedka qilish ishlari yo'malishini tanlash, neft va gaz saqllovchi kollektorlar tuzilishi va ularning fizik xususiyatlarini o'rganish, qatlamlaridagi neft, gaz va suvning fizik-kimyoviy xususiyatlarini tadqiq qilish, qat-lam enyergiyasi (tarkibi, uyumi) tarkibini o'rganish, neft va gaz zaxiralarini hisoblash va sh.k.

Neft mahsuloti (рус. Нефте-продукт, ingl. Petroleum product) - gazsimon, suyuq va qattiq uglevodorodlar aralashmasi, shuningdek neft, gaz kondensati va neft gazlaridan olinadigan alohida kimyoviy modda. Neft mahsulotlarining asosiy guruhlari: yoqilg'ilar, neft moylari, qattiq uglevodorodlar, bitumlar, plastik moylovchilar va texnik suyuqliklar.

Neft moylari (рус. Нефтяные масла, ingl. Petroleum oil) - neftni qayta ishlash jarayonida olinadigan baland qaynovchi ($t_{qay}=300-600^{\circ}\text{S}$) uglevodorodlar alkilnaftenli va alkilaromatli)ning suyuq aralashmasi.

Neft namunasining tahlili (рус. Анализ пробы нефти, ingl. Oil analysis) - neftni ishlash, tayyorlash, qayta ishlashda bajarladijan tahlil. Ishlab chiqarishda N.n.t. ko'satkichlariga qovush-qoqlik, suvlanganlik, qotish harorati, oltingugurt va mexanik qoshimchalar miqdori va b.

taalluqli. Neftni konda tayyorlashda bu ko'satkichlar neft tarkibidagi qoldiq suv, xlorli tuzlar, mexanik qoshimchalar sifatida namoyon bo'ladi. Neftni qayta ishlashda N.n.t. uning fraktsion tarkibini aniqlashdan iborat.

Neft nasosi (рус. Нефтяной насос, ingl. Oil pump) - neftni kondan quduqlar orqali chiqarib berishga mo'ljallangan nasos. Bu nasos boshqa nasoslardan elementlarining ancha uzunligi bilan farq qiladi. Eng ko'p tarqalganlari tebranma dastgohlar bilan harakatlantiriladigan shtangali nasoslar va elektr yuritmalar bilan harakatlantiriladigan ko'p bosqichli markazdan qochma nasoslardir. Bu nasoslarning barchasi chuqurlikda ishlaydi.

Neft qatlaming gidravlik rejimi (рус. Гидравлический режим нефтяного пласта, ingl. Hydraulic regime of the oil reservoir) - neftni burg' qudug'i tubiga haydovchi asosiy kuch atrofidagi suvlar bosimidan iborat bo'lgan rejim. Bunday burg' quduqlari bosim va debitning doimiyligi bilan tavisflanadi.

Neft qatlaming gidravlik rejimi (рус. Гидравлический режим нефтяного пласта, ingl. Hydraulic regime of the oil reservoir) - neftni burg' qudug'i tubiga haydovchi asosiy kuch atrofidagi suvlar

bosimidan iborat bo'lgan rejim. Bunday burg' quduqlari bosim va debitning doimiyligi bilan tavsiflanadi.

Neft saqlagich (рус. Нефтехранилище, ing. Oilstorage) - Neft va uni qayta ishslash mahsulotlarini saqlash inshooti.

Neft suvlari (рус. Нефтяные воды, ing. Oil water) - Neftli gorizontlar suvlari.

Neft uyumi samarali qalinligi (рус. Эффективная мощность нефтеносного горизонта, ing. Effective height, actual output, net thickness, useful efficiency) - Neftning harakatlanishi mumkin bo'lgan jinslar (odatda qumtoshlar) qatlamlarining neft gorizontidagi umumiy qalinlik.

Neft va gaz geologiyasi (рус. Геология нефти и газа, ing. Geology of oil and gas) - yer qobig'ida neft va gaz to'planishi va ularning hosil bo'lish qonuniyatlarini o'rganadigan fan. Shuningdek neft va gaz konlari uyumlarini qidirish, ishlab chiqarishga topshirish, ularning yer yuzidagi va havzalaridagi zahira miqdorlarini aniqlash, qazib chiqarishga tayyorlash sharoitlarini o'rganadi.

Neft va gazning ko'chishi (рус. Миграция нефти и газа, ing. Oil and gas migration) - yer po'stidagi tabiiy kuchlar ta'sirida neft va gazning ko'chish joyini o'zgar-

tirishi. Bu jarayon mineral muhit va flyuidlarning o'zaro fizik-kimyoiy ta'sirida sodir bo'ladi. Neft va gazni ko'chishi ikki bosqichda sodir bo'ladi: birlamchi ko'chish-neft saqlovchi jinslarda, ikkilamchi ko'chish jinslardan tashqarida yuzaga kelib, uyumlarning paydo bo'lishga sabab bo'ladi.

Neft va neft mahsulotlarini saqlash (рус. Хранение нефти и нефтепродуктов, ing. Oil and oil products storing) - Belgilangan vaqt ichida neft va neft mahsulotlarining miqdoriy va sifatli saqlanishini ta'minlaydigan sharoitlarda zahiralar.

Neft va neft mahsulotlarinig qotish harorati (рус. Температура застывания нефти и нефти продуктов, ing. Temperature of hardening of oil and oil of products) - neft mahsulotlarining qotish harorati fizikkonstanta bo'lolmaydi. Lekin, texnik xarakteristikaga ega bo'lgan kattalik hisoblanadi. Uning bu tavsifi orqali past haroratlarda tashish ayniqsa qishki sharoitda, bilishmuhim ahamiyatga ega. Aniq standart usulda qotish haroratininobatga ola turib, past haroratlarda neft mahsulotlarini so'rib olish to'g'risida, mulohaza yuritish noaniq bo'lib qoladi. So'rib olish vaqtida harorat qiymati hamma vaqt 10–15°С da,

qotish haroratiga qaraganda yuqori bo'ladi. Past haroratlarda neft va neft mahsulotlarining qotishi, qovushqoqlikning past haroratlarda oshib borishiga olib keladi.

Neft yig'ish punkti (рус. Нефтяной сборный пункт, ing. Oil accumulation place (point)) - Neft quduqlari mahsulotini konda yig'ish va tayyorlashga mo'ljallangan.

Neft(gaz)li jinslarning qavatlari (рус. Этажи нефтеносных (газоносных) пород, ing. Floors of oil (gas) rocks) - neft(gaz)li jinslarning sekin- asta yupqalashib uzelib qoladigan, neft(gaz)ning to'siq qatlamlar yoki linzalar bilan ajralmagan qismlari. Bular atrofidagi jinsning neft (gaz)li qismlari o'rtaida gidravlik bog'liqlik mavjud.

Neft(yo'l)dosh gazi (рус. Нефтяной попутный газ, ingl. Casing-head gas; combination gas; commercial rock gas; natural gas; petroleum gas) - plast sharoitlarda neftda erigan gaz; neft konlari ekspluatasiyasida plastning bosimi neftning to'yinish bosimidan pastligida ajralib chiqadi.

Neft, gaz va kondensatga qo'yiladigan texnik sharoitlar (рус. Технические условия на нефть, газ и конденсат, ing. Technical conditions for oil, gas and condensate) - texnik hujjalilar

to'plamiga kiradigan ma'lumotlar. Unda qo'llanilayotgan nav, tahlil, o'lchash metodlarida neft va gaz mahsulotlarining barcha mahsulot (neft, gaz, kondensat)ga taalluqli texnik talablar, qabul qilish va topshirish qoidalari, nazorat qilish metodi, ishlatish, saqlash, uzatish shartlari majmui, mahsulotlarning asosiy ko'rsatkichlari - o'lchami, xususiyati yoki ishlatish sifat ko'rsatkichi, to'liq tarkibiy qism-larning miqdori va b.ni ifodalaydi.

Neftda gaz miqdori (рус. Газосодержание нефти, ing. Gas concentration) - Qatlam neftida erigan tabiiy gaz miqdorini tavsiplaydi.

Neftda suvning eruvchanligi (рус. Растворимость воды в нефти, ing. Solubility of water in oil) - neft bilan tutashgan suvning unda erish qobiliyati. Suvning erish darajasi neftning kimyoviy tarkibiga (to'yinmagan, naften va aromatik uglevodorodlar parafin qatoridagi uglevodorodlarga nisbatan suvni yaxshi eritadi), haroratiga, suvning minerallanishiga va b.ga bog'liq. Haroratning ortishi bilan suvning uglevodorodlarda erishi oshadi.

Neftga isitib ishlov berish (рус. Термообработка нефти, ing. Oil heat treatment) - parafinli neft va uning mahsulotlarini quvurlarda uzatish (haydash) samaradorligini oshirishda ularning reologik xusu-

siyatlarini isitish va keyinchalik sovutish.

Neftlar tasnifi (рус. Классификация нефлей, ing. Classification of oils) - bu tasrif quyida gicha ifodalanadi: a) faqat texnik qonun-qoidalarga asoslangan va texnik maqsadlarda qo'llaniladigan neftlar tasnifi; b) kimyoviy tarkibiga asoslangan neftlar tasnifi; v) genetik asosda tuzilgan neftlar tasnifi.

Neftli qatlamni suv bostirish (рус. Обводнение нефтяного пласта, ing. Oil reservoir flooding) – neftli qatlamdan olinayotgan neft miqdorini oshirish maqsadida neft qatlami (uyumi)ni suv bostirish. Qatlam bosimini bir xil saqlab turish uchun sun'iy ravishda suv bostirish (chevara tashqarisiga, chevara bo'ylab, chevara ichra) metodlaridan foydalaniladi. Neftli qatlamni suv bostirishda undan pastda yoki yuqorida joylashgan suvli qatlam suvidan ham foydalanish mumkin.

Neftli suvlar (рус. Нефтяные воды, ing. Oil waters) - neftli qatlamlardagi yer osti suvlari. U boshqa suvlardan ko'pincha yuqori darajada mineralizatsiyalanishi bilan farq qiladi. Bu suvlarni xlоридли-кальциймагнили, xlор-кальцийли yoki gidrokarbonat-natriyli guruhlarga ajratish mumkin. Bu guruuhlar tarkibida

yod, brom, radiy, bariy, strontsiy va boshqalar ko'proq tarqalgan.

Neftlilikning ichki chegarasi (рус. Внутренний контур нефтеносности, ing. Internal oil circuit) - suv-neft tutash yuzasining neft saqlovchi qatlam tagi bilan kesishgan chizig'ining gorizontal tekislikdagi proyeksiyasi. Uyumni ishslash jarayonida neftlilik chegarasining holati doimiy qolmaydi. Neft (yoki gaz) olingan sari chegaralar asta-sekin uyum marmaziga siljiydi. Shuning uchun ham konni ratsional ishslashda neftlilik chegaralarini bir me'yorda siljishga intilish kerak.

Neftlilikning tashqi chegarasi (рус. Внешний контур нефтеносности, ing. External oil circuit) - suv-neft tutash yuzasining neft saqlovchi qatlam ustil bilan kesishgan chiziqing gorizontal tekislikdagi proyeksiyasi. Agar kontakt yuzasi gorizontal bo'ylab yo'naligan bo'lsa, neftlilik (gazlilik)ning tashqi chegarasi qatlam ustining izojin slariga parallel yo'naladi. Neftdan suvning ajralish yuzasi qiya bo'lsa, neftlilik (gazlilik)ning chegarasi tuzilma xaritasida ajralish yuzasining qiya tomoniga surilib, qatlam ustini ifodalaydigan jinslar bilan kesishadi.

Neftni aromatizatsiyalash (рус. Ароматизация нефти, ing. Aromatization of oil (petroleum)) - asosiy maqsadi aromatik

uglevodorodlar, asosan benzol, toluol, naftalin ishlab chiqarish bo'lgan neftni kimyoviy qayta ishlash jarayoni

Neftni eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti (OPEC) (рус. Организация стран экспортеров нефти, ing. The Organization of Petroleum Exporting Countries) - a'zo mamlakatlarning neft siyosatini muvofiqlashtiruvchi va bir xillashtiruvchi davlatlararo tashkilot. Tashkilotga a'zo bo'lgan davatlarning manfaatlarini yakka yoki jamoa asosida himoyalash yo'llari va usullarini ishlab chiqadi.

Neftni gazzislantirish (рус. Дегазация нефти, ing. Oil degassing, oil stripping) - qazib olinayotgan neftdan unda erigan quyi molekulali uglevodorodlar, metan, etan, ba'zan propan, vodorod sulfid, azot va nordon gazni ajratish.

Neftni konda tayyorlash (рус. Промысловая подготовка нефти, ing. Oil field preparation) - neftdan aralashmalarining asosiy qismini ajratish, uning sifatini neft uchun GOSTga muvofiqlashtirish jarayoni.

Neftni qayta ishlash zavodi (рус. Нефтеперерабатывающий завод (НПЗ), ing. Oil refinery) - neft xomashyosidan suyuq yoqilg'i, moy, bitum, koks, parafin, serezin, aromatik uglevodorodlar, organik

kislotalar, oltingugurt, erituchilar, suyultirilgan gazlar ishlab chiqaruvchi korxona.

Neftni tuzsizlantirish (рус. Обессоливание нефти, ing. Oil desalting) - neftdan qatlam suvlari emulsiyasi ko'rinishida bo'lgan tuzlarni ajratish jarayoni.

Neftning gaz bilan to'yinish bosimi (рус. Давление насыщения нефти газом, ing. bubble-point (saturation) pressure) - doimiy termobarik sharoitlarda suyuqlikdan gaz ajralishi boshlanadigan bosim.

Neftning hajm koeffitsienti (рус. Объёмный коэффициент нефти, ing. The volume ratio of oil) - qatlam ichidagi va yer yuzidagi neft hajmlarning nisbati bilan aniqlanadi.

Neftning nisbiy zichligi (рус. Относительная плотность нефти, ing. The relative density of oil) - neftning 20°S da aniqlangan hajmining shu hajmdagi distillangan suvning 4°S dagi hajmiga bo'lgan nisbatiga teng.

Neftning o'z-o'zidan alanganishi (рус. Самовоспламенение нефти, ing. Self-ignition of oil)-harakatlanuvchi yonish o'chogi metodini qatlamda amalga oshirishda yondiruvchi qurilmalardan foydalanmay turib oksidlovchi moddalarni qatlamga haydashda neftni qatlamda alanganishi.

Neftning optik faolligi (рус. Оптическая активность нефти, ing. The optical activity of oil) - neftning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, yorug'lik qutblanish tekisligining aylantirish qobiliyati. Neft qutblanish tekisligini asosan o'ng tomonga aylantiradi. Og'ir smolali, naftenli va aromatik neftlar optik aylantirishning eng yuqori ko'rsatkichiga ega. Optik faoliyat neftning organik yo'l bilan hosil bo'lishini tasdiqlaydigan omillardan hisoblanadi.

Neftning optik zichligi (рус. Оптическая плотность нефти, ing. The optical density of the oil) - tarkibida smola va asfaltenlar borligi tufayli neftning muayyan to'lqin uzunlikdagi nurning yutish qobiliyati. Bunday qobiliyat neftning nur yutish koefitsienti deb yuritiladi.

Neftning qatlamdagi tavsifi (рус. Характеристика нефтяного пласта, ing. Characteristics of the oil reservoir) – neft qovushqoqligi, gaz bilan to'yinish bosimi va hajm koefitsientlaridan iborat.

Neftning suvda eruvchanligi (рус. Растворимость нефти в воде, ing. Solubility of gas in water) - neft va neft mahsulotlari suvda juda oz miqdorda eriydi. Mas., 1m³ suvda 270 g kerosin erishi mumkin. Neft va uning mahsulotlari bir qator moddalarni:

yod, oltingugurt, kauchuk smola, o'simlik va hayvon yog'larini yaxshi eritadi.

Nippel (рус. Ниппель, ing. Nipple) - ikki uchi rezbali kalta quvur. Burg'lash quvurlarini biriktirishda ishlataladi.

Nomogramma (рус. Номограмма, ing. Nomogram) - bu funktional bog'liqlikni hisobkitoblarsiz o'rGANISH uchun oddiy geometrik operatsiyalardan (masalan, o'lchagichni qo'llash) foydalanishga imkon beradigan bir necha o'zgaruvchilar funksiyasining grafik tasviri.

Nomukammal quduq (рус. Несовершенная скважина, ing. Imperfect well) – suv qabul qiladigan qismining uzunligi suvli qatlam qalinligidan kichik bo'lgan burg'u qudug'i, quduq.

Nordon gaz (рус. Углекислый газ (углекислота), ing. Carbon-dioxide gas (carbonic acid)) - Uglerod (II) oksidi (CO₂).

Nov (tarnov) (рус. Желоба, ing. Gutters) - turli material (taxta, metall va boshqalar) dan ko'ndalang kesimining yarimi ochiq qilib yasalgan ensiz (V-shaklli) qiya sun'iy ariqcha. Quduqdan tash-qariga oqib chiqqan suv va har xil gilli eritmalarни nasos qabul qilib idishiga etkazib borishga mo'l-jallangan. Burg' qudug'ining churqurligiga qarab tarnovning uzunligi 15-16 m dan 25-70 m gacha,

balandligi 20-25 sm, eni 30-40 sm ga teng. Nav tagining har 1,5-2,0 m da balandligi 15-18 sm bo'lgan to'siq o'rnatiladi. Bu esa eritma strukturasining buzilishini va eritmadan shlamni to'liq ajratishni ta'minlaydi. Uning to'siqli, nov tizimli, shtanga uchun tozalash tizimli, g'ildirak novli, aylanma va boshqa turlari mavjud.

Nurash (рус. Выветривание, ing. Weathering) - minerallar va tog' jinslarining muhitning abiotik (atmosfera havosi, namlik, harorat, radiatsiya va boshq.) va biotik (tirik organizmlar) omillari birgalikda ta'siridan nurashi. N. tuproq hosil bo'lish jarayonining asosi hisoblanadi.

O

O't olish harorati (рус. Температура вспышки, ingl. Flash point) – kondensatlangan moddaning maxsus sinovlar sharoitlarida sirtida barqaror yonishsiz havoda o't olib ketish qobiliyatiga ega bo'lgan bug'lari paydo bo'lish eng past harorati. Neft mahsulotining saqlanishida va ishlatalishida o't olish xavfini tavsiflaydi: o't olish harorati qancha past bo'lsa, neft mahsuloti shuncha xafli bo'ladi.

O'z-o'zidan alangalanish (рус. Самовоспламенение, ingl. Autoignition) - ma'lum sharoitda olov yoki qizigan jism bilan

bevosita bog'lanmay yonadigan aralashmaning alangalanishi. Tabiatda O'.-o'.a. issiqli yoki zanjirli bo'ladi. Issiqli O'.-o'.a. sababining sifat shakli to'g'risidagi tushuncha Ya.Vant-Goff (1883) tomonidan ta'riflangan.

Ob'yektlarni izlov burg'ilashga tayyorlash (рус. Подготовка объектов к поисковому бурению, ing. Preparing objects for search drilling) – neft va gaz ob'yektlarining izlov bosqichlaridan biri bo'lib, unda neft va gaz tutqichlarining geologik tuzilishi mukammal o'rganiladi. Natijada ular tayyorlangan strukturalar fondiga kiritiladi va izlov burg'ilashni bajaruvchi korxonalar ixtiyoriga o'tkaziladi. Izlov ishlaringin asosiy vazifasiga: aniqlangan istiqbolli tutqichlar tuzilishini mufassal o'rganish va u asosida taxmin qilingan neft va gaz uyumlarining fazaviy holatini bashorat qilish; izlov quduqlari qaziladigan qulay joylarni tanlash; C₃ toifadagi istiqbolli resurslar miqdorini baholash.

Odatdag'i ta'mirlash (рус. Текущий ремонт, ing. Maintenance) - burg'ilash jarayonida grafik bo'yicha o'tkaziladigan ta'mirlashning tashkiliy va texnik tadbirlari. **Og'ir neft** (рус. Тяжёлая нефть, ingl. Heavy oil) - zichligi yuqori ($0,900 \text{ g/sm}^3$ dan ko'p) neft. Tarkibida asfalt - smolali mod-

dalar, uglevodorodlar tuzilishida siklik tuzilmalar ko'p, yengil qaynovchi fraksiyalar esa kam (qaynash harorati ba'zan 200°S dan yuqori) bo'ladi.

Og'ir neft qoldiqlari (рус. Осадок тяжелой нефти, ingl. Heavy still bottoms) - neftni qayta ishlash jarayonida olingan va 350 °S dan yuqori haroratlarda qaynab chiqadigan qoldiq fraksiyalar.

Og'irlashtirgichlarni tiklash uchun qo'llaniladigan gidrotozalash qurilmasi (рус. Гидроциклонная установка для регенерации утяжелителя, ingl. Hydrocyclone installation for regeneration of weighting agent) - ishlov berilgan yoki foydalanimagan og'irlashtirilgan gilli eritmalarning og'irlashtirgichli hollatini tiklashga mo'ljallangan.

Og'irlashtirilgan burg'ilash quvuri (рус. Утяжеленные бурильные трубы, ingl. The stability of rocks) - burg'ilash quvurlar birikmasi pastki qismining mustahkamligini oshirish uchun burg'i (turbinaliburg'i, elektrburg'i) ustiga o'rnatiladigan og'irlashtirilgan quvurlar. Rotor usulida qazishda doloto tepasiga o'rnatildi.

Og'irlashtirilgan eritmalar (рус. Утяжеленные растворы, ingl. The weighted solutions) - barit, gemitit, magnetit, temirli konsentrat, kolosnik (domna pechi) changi, ohaktosh, bo'r va boshqa

minerallar qo'shib zichligi og'irlashtirilgan eritmalar. Odatda gil jinslardan zichligi 1,15- 1,25 g/sm³ bo'lgan eritmalar tayyorlanadi. Yuqori sifatli bentonitlardan zichligi 1,05-1,08 g/sm³, yuqori qovushqoq eritmalar tayyorlash mumkin.

Oksidlar (рус. Оксиды, ingl. Oxides) - biri kislород bo'lgan ikki elementdan tashkil topgan murakkab moddalar. Oksidlar elementlarning kislород bilan hosil qilgan birikmalari bo'lib, ularni 4 guruhga ajratish mumkin: befarg oksidlar (CO, H₂O, HO va boshqalar); asosiy oksidlar (Na₂O, CaO, FeO va boshqalar); amfoter oksidlar (ZnO, Al₂O₃, Cr₂O₃ va boshqalar); kislotali oksidlar (CO₂, CO₂HO₂ va boshqalar).

Oktan (рус. Октан, ingl. octane) - metan qatori suyuq uglevodorodi - C₈H₁₈. Tarkibi: 84.2% C, 15.8% H. Oktanning o'n sakkizta tizimli izomerlari mavjud. Oddiy oktan +125,6 °C qaynash haroratiga, 0,703 zichlikka ega. Neftda oktanning besh izotopi borligi isbotlangan.

Oktan soni (рус. Октановое число, ingl. Octane number; knock rating) -detonasiyaga - ichki yonish dvigatellari silindrlarida alanga tarqalish tezligi odatiy 20-50 m/s o'rniغا 1500-2500 m/s ga yetganida yuzaga keladigan

portlab yonish holatiga avtomobil va aviasiya benzirlarning chidamliligini tavsiflovchi shartli ko'rsatkich. Oktan soni deb izoiktanning normal geptan bilan model aralashmasidagi izoiktanning hajmiy foiz miqdoriga aytilib, ushbu model aralashma detonasion barqarorlik bo'yicha standart sharoitlarda maxsus motor qurilmada sinaladigan yoqilg'iqa teng bo'ladi. Oktan soni farqlanishi ikki turi mavjud bo'lib, birinchisi motor usulida oktan soni (OSM) (ingl. motor octane number, qisq. - MON), bunda dvigatelning tezlashtirilgan ishlash rejimida yuqori yuklamalar va tezliklar sharoitida yoqilg'ini tavsiflaydi; ikkinchisi esa tadqiqot usulida oktan soni (TOS) (ingl. research octane number, qisq. - RON) bo'lib, u shaharda haydash sharoitlarida yoqilg'ini tavsiflaydi. Motor va tadqiqot usullari bo'yicha benzirlarning oktan soni orasidagi o'rtacha arifmetik qiyomat oktan indeksi yoki yo'l oktan soni (ingl. road octane number, qisq. - RON) deb aytildi.

Oligomer (рус. Олигомер, ingl. Low(-molecular) polymer) – nisbatan kichik molekulyar masaga ega polimer (masalan, polimerbenzin, sintetik smolalar, suyuq kauchuklar moylovchi moylar).

Oltingugurt (elementar, texnik, gaz, tabiiy) (rus. Сера, ingl. Sulphur) – sariq rangli, qattiq, mo'rt modda, allotrop modifikasiyalarga ega. Sulfat kislotasi, sellyuloza, rezina, sun'iy tola, portlovchi moddalar olish uchun organik sintezda, qishloq xo'jaligida va boshqa sohalarda ishlatiladi.

Oq moy (рус. Светлое масло, ingl. white oil) – chuqur dearomatizasiyalangan, kimyoiy inert neft mahsuloti, smola, rang, hid va ta'mga ega bo'lmaydi.

Oqova suvlar (рус. Сточные воды, ingl. Refinery waters; waste water) – o'rnatilgan tartibda suvli ob'ektlarga kanalizasiya tizimi orqali ularni ishlatgandan so'ng tashlanadigan yoki ifloslangan joylardan kelgan suvlar. Ular odatda suv havzalariga tashlanishdan (yoki qayta foydalanishdan) oldin maxsus suv tozalash inshootlarida belgilangan me'yorda tozalashdan o'tkaziladi.

Oquvchanlik (рус. Текучесть, ingl. Fluidity) – qovushqoqlikka teskari ko'rsatkich bo'lib, jismlarning kuchlanish ta'sirida plastik yoki qovushqoq deformatsiyalanishi. Qovushqoq jismlarda (gaz, suyuqlik) O. ixtiyoriy kuchlanishda yuzaga keladi. Qattiq jismlarda esa O. yuqori kuchlanishlarda yuzaga keladi. Ba'zi neftlar (mas. parafinli neft)

qotish haroratidan past haroratlarda qattiq jism xususiyatiga ega bo'ladi. Uning oqishi uchun siljish kuchlanishi, ya'ni boshlang'ich kuchlanish bo'lishi kerak.

Osma chig'ir (tal) arqoni (рус. Талевый канат, ing. Tow rope) - qo'zg'almas kranblok va harakatlanuvchi osma chigir (tal blok)ni bog'lovchi po'lat arqon.

Otqindi tog' jinslari (рус. Скалистые горные породы, ing. Rocky rocks) - vulqonlar otilganida yer yuzasiga chiqadigan magma yoki yer ostidan yuqoriga katta bosim ostida sirqib chiqqan suyuq moddalarning qotishidan hosil bo'ladi. Otqindi tog' jinslarining hosil bo'lishida yuqori harorat va kuchli bosim alohida ahamiyatga egadir. Vulqon harakatining nati-jasi - magma, ba'zan yer yuziga chiqmasdan yer osti yoriqlari, yoki ba'zi bo'shliqlarga kirib asta - sekin qotishdan hosil bo'lgan tog' jinslari ham otqindi tog' jinslariga kiradi.

P

P'ezometrik balandlik (рус. Пьезометрическая высота, ing. Piezometric height) - qatlamlardagi suv oqimining biron-bir nuqtasidan gidrostatik bosim ta'sirida suvning yuqoriga ko'tarilib qaror topgan balandligi.

P'ezometrik bosim (рус. Пьезометрический напор, ing. Piezometric pressure) - burg' qudug'ida bosimli suv qaror topgan yuzaning mutlaq balandligidan bosimli suvga ega bo'lgan qatlam ustining mutlaq balandlining ayirmasi orqali hisoblanadi.

P'ezometrik sath (рус. Пьезометрический уровень, ing. Piezometric level) - bosimli suvlardan ochilganda burg' quduqlarida aniqlanadigan suv sathi.

P'ezometrik yuza (рус. Пьезометрическая поверхность, ing. Piezometric surface) - bosimli suvlarning burg' qudug'i bo'ylab yuqoriga ko'tarilib qaror topgan yuzasi.

P'ezoo'tkazuvchanlik (рус. Пьезопроводность, ing. Piezoconductivity) - suvli va neft-gazli qatlamlarning bosim uzatish qobiliyati. Bunday qatlamlarning biron nuqtasidagi bosimning o'zgarishi qatlam bo'ylab astasekin tarqaladi, so'ngra ma'lum vaqt ichida (odatda, birnecha oy davomida) qatlamda bosimning qayta taqsimlanishi kuzatiladi.

Paker yoki salnik (рус. Пакер или сальник, ing. Packer or oil seal) - burg'ilash quduqlarida ochilgan turli qatlamlarni bir-biridan ajratish va quduq devorlarini zinchlash uchun quduqqa tushiriladigan qurilma.

Paker mustahkamlash quvurlari bilan jihozlangan va jihozlanmagan quduqlarda har turli gorizontlardan keladigan neft, gaz va suv oqimlarni alohida-alohida sinash imkoniyatini beradi. Shuningdek, pakerni ikki gorizontni alohida-alohida ishlatalishda ham qo'llash mumkin. Paker brezent bilan o'ralgan rezinali manjetdan iborat bo'lib, quduqda undan yuqorida joylashgan quvurlar birikmasining siqilishidan kengayadi.

Palingenez (рус. Палингенез, ing. Palingenesis) - dastlab hosil bo'lgan tog' jinslarning to'la-to'kis yoki qisman erishi va magmatik eritma hosil bo'lish jarayoni (Sedergolm tomonidan 1907-1927-yy. kiritilgan). Anateksis atamasini sinonimi. Palingenez ultrame-tamorfizm jarayoni bilan birga uchraydi va uni uzviy qismi sifatida qaraladi. Tokembriy o'l-kalarida keng tarqalgan jarayon. Uning natijasida granitoidlar hosil bo'ladi.

Parafin (рус. Парaffин, ingl. Wax, paraffin, paraffine) - parafin qatori uglevodorodlari, asosan normal alkanlarning qattiq(erish ha-rorati 45 dan 64 °S gacha) yoki suyuq(erish harorati 45 °S dan past) aralashmasi. Nomi avstriyalik olim va tadbirdor baron Karl fon Reyxenbach (1788-1869 y.) tomonidan taklif qilingan. K.

Reyzenbach uning fikricha yangi moddaga «paraffin» nomini ikkita lotincha parum - kam, affinis - o'xshashlik so'zlaridan berdi. Bu nom bilan olim shuni ta'kidlab o'tdiki, paraffin» (ya'ni «kam o'xshash») kimyoiv faollikka ega emas, boshqa moddalar bilan reaktsiyaga kirishmaydi. 1840-1850 yillarda «paraffin» so'zi barcha evropa tillariga kirib bordi. **Parafinli neft** (рус. Парафиновая нефть, ing. Paraffin oil) - tarkibida ko'r miqdorda erigan parafinlari bo'lgan neftlar. Odatda neft massasida parafin 0,2 dan 30% gacha bo'ladi. Neft yonilg'i va moy olish mahsulotlari sifatida kam parafinli (1,5% gacha), parafinli (1,5% dan 6% gacha) va yuqori parafinli (6% dan ko'proq) guruhlarga bo'linadi.

Parafinsiz neft (рус. Беспарафиновая нефть, ing. Wax oil) - tarkibida 1% gacha parafin bo'lgan neft. Parafin 1,5- 6% gacha bo'lsa, parafinli va 6% dan ko'pi yuqori parafinli hisoblanadi. Konni ishlatalishda qatlamning bosimi va harorati o'zgaradi, shunda parafin neftdan ajralib chiqadi va tog' jinsi g'ovaklarida to'planadi, natijada qatlamning sizish xususiyati susayadi.

Parametrik burg'ilash qudug'i (рус. Скважина параметрического бурения, ingl. Parametric drilling well) -

maydonning geologik tuzilishi va neft-gaz to'planishi mintaqalarining gazlilik istiqbolini qiyosiy baholash, yotqiziqlar kesimi bo'ylab geologik-geofizik ma'lumotlarini toplash, seysmik va geologik-geofizika tadqiqotlari ma'lumotlari tahlili asosida izlov ishlari, birinchi navbatda olib boriladigan maydonlar tanlanadi. Quduqda bajariladigan tadqiqotlar majmuasi, uni qurilishi uchun tuziladigan loyiha-smeta hujjatlari, olingan ma'lumotlarni ilmiy tahlil qilish «Nizomiga» ko'ra olib boriladi.

Parda suvi (рус. Воды гординаные, ingl. Curtain water) - elektrostatikaviy yoki molekulyar kuchlari orqali tog' jinslari donachalarining sirtida bo'shroq ushlanib turadigan suv.

Past haroratli kondensatsiya (рус. Низкотемпературная конденсация, ingl. Low temperature condensation) - bu gazni doimiy bosimdag'i izobarik sovutish jarayoni, ma'lum bir bosimda suyuq fazasi paydo bo'ladigan harorat.

Past haroratli separasiya (рус. Низкотемпературная сепарация, ingl. Low-temperature separation) - gazokondensat konlari gazlaridan suyuq uglevodorodlarni ajratib olish usuli bo'lib, uning asosida manfiy haroratlarda (-10 dan -25 °S va

undan past) bir marotabalik kondensastiya va muvozanatlari suyuq va gaz fazalarni gazogidromexanik (separasion) ajratish jarayonlari yotadi.

Pastki chekka suv (рус. Нижняя краевая вода, ingl. The lower boundary water) - neft va gaz qatlamning pasaygan qismini (mas., antiklinallarning chekka zonalarini) egallab, neft yoki gaz uyumini itarib turuvchi suv.

Pech yoqilg'isi (рус. Топливо для печи, ingl. Furnace oil; heating oil; stove oil; household fuel) - kommunal-maishiy maqsadlar uchun va maishiy isitish tizimlari uchun yoqilg'i. Shuningdek «yoqilg'i» atamasiga qarang.

Pentan fraksiya (рус. Пентановая фракция, ingl. Pentane fraction) - asosan pentanlardan iborat bo'lgan va eng oxirgi gazlarni qayta ishlashdan olinadigan tor uglevodorod fraksiyasi. Izomerizasiya va piroliz jarayonlari uchun xom-ashyo sifatida qo'llaniladi.

Peptizatsiya (рус. Пептизация, ingl. Peptization) - zarrachalar agregatlarini sof suyuqlik yoki unda erigan moddalar ta'sirida parchalash jarayoni. Peptizatsiyada koagulyant zarrachalari orasidagi bog'liqliklarning uzilishi ro'y beradi. Peptizatsiya - koagulyatsiyaga teskari hodisa.

Perforator (рус. Перфатор, ingl. Perforator) - quduqqa tushirilgan

mustaxkamlovchi quvurlar birikmasini va mahsuldor qatlama teshikchalar hosil qiladigan moslama. U elektr yoki siqilgan havo ta'sirida ishlaydi. Ochilgan teshiklar quduq ichiga neft va gazning oqib tushishiga imkon yaratadi.

Perforatsiya (рус. Перфорация, ing. Perforation) - oldindan belgilangan chuqurlikda mustahkamlovchi quvurlarda, sement halqasida va quduqning devorlarida teshiklarni hosil qilish. Bu qatlamni ikkinchi marta ochish usuli hisoblanadi.

Perforatsiya oralig'i (рус. Интервал перфорации, ing. Perforation interval) - sementlangan quvurning teshiklari bo'lgan oralig'i, bu orqali quduq bilan qatlamkollektorlar muloqoti ta'minlanadi, quduqqa neft, gaz, suv yoki ularga sun'iy ta'sir ko'rsatadigan agentlar va boshqalar kirib keladi.

Petrofizika (рус. Пирофизика, ing. Petrophysics) - tog' jinslarining fizik xususiyatlarini o'rganuvchi fan. P. xususiyatlar majmuasi asosida tog' jinslarining tasniflashini amalga oshiradi. Fizik xususiyatlarni o'rganishda jins namunalari, karotaj materiallari, yer usti va aerogeofizik syomka ma'lumotlaridan foydaliladi. Yer po'stining geologik taraqqiyot tarixi, regionlarning

geologik tuzilishini o'rganish, foydali qazilmalarni izlash va razvedka qilish fanning asosiy vazifasidir.

Petrofizika (рус. Петрофизика, ing. Petrophysics) - Petrofizika geologik jismlar sifatida o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tog' jinslarining xususiyatlarini ko'rib chiqish g'oyasiga asoslangan. Petrofizikaning asosiy vazifasi-jinslarning fizik xususiyatlarini o'rganish va fizik xususiyatlar majmuasi bo'yicha jinslar turlarini tasniflash.

Petrolatum (рус. Петролатум, ingl. Petrolatum – vazelin) - neftni qayta ishlash zavodlarida qoldiq moylarni kristallah orqali deparafinizasiya yo'li bilan olinadigan parafinli mahsulot.

Petroleum efiri (рус. Петролиумный эфир, ingl. Petroleum ether; Sherwood oil; light petroleum, ligarine) - yog' va smolalar uchun neft erituvchisi, 30 dan 70 °S gacha (yoki 70 dan 100 °S gacha) harorat inervalida qaynab chiqadi va 50 % mass. dan ortiq normal parafin uglevodoridlarni saqlaydi.

Pirogaz (рус. Пирогаз, ingl. Pyrolyzating gas) - pirolizda ajralib chiqadigan gaz.

Piroliz (рус. Пиролиз (пирогенетическое разложение), ing. Pyrolytic (thermal) decomposition) - Yuqori haroratlarda

(650-800°C) amalga oshiriladigan krekingning maxsus ko'rinishi. Neft yoki neft mahsulotlarining pirolizi asosan aromatik uglevodorodlarni (toluol, benzol) ishlab chiqarishga xizmat qiladi, ular bilan birga katta miqdorda gaz, koks va boshqa mahsulotlar hosil bo'ladi.

Plunjer (рус. Плунжер, ing. Plunger) - uzunligi diametridan ancha katta bo'lgan porshen; Plunjerli nasoslar, zolotniklar, girdavlik silindrلarning detali.

Plunjerli nasos (рус. Плунжерный насос, ing. Plunger pump) - burg' qudug'idan suv va loyqa suvlarni tortish va haydashga mo'ljallangan. Nasosning ish unumidorligi 20-40 atm.da 50 dan 200 l/min ga teng. U yuqori bosim hosil qilish va ayni vaqtida suyuqlikni aniq dozalash zarur bo'lganda ishlatiladi.

Po'lat arqonlar (рус. Канаты стальные, ing. Steel wire rope) - tushirish va ko'tarish jarayonlariga mo'ljallangan arqonlar.

Po'kakli sath o'lchagich (рус. Уровнемер поплавковый, ing. Float level gauge) - mexanik sath o'lchagichlarga kiradigan asbob. Ishlash printsipi po'kakchaga ta'sir qiladigan itarish kuchini aniqlashga asoslangan. Po'kakning harakati mexanik aloqalar yoki masofali uzatish tizimi orqali o'lhash tizimiga uzatiladi.

Polimerizatsiya (рус. Полимеризация, ing. Polymerization) - ko'pgina bir xildagi molekulalarning birikib ancha yirik molekula hosil qilish jarayoni.

Polimerlash benzini(polimerbenzin) (рус. Полимер- Бензин, ingl. Polymeric gasoline) - propilen va butilenpast molekulyar polimerlarini olish katalitik jarayonining maqsadli mahsuloti.

Porozimetr (рус. Порозиметр, ing. Porosimeter) - g'ovaklar hajmini va hajm bo'yicha g'ovaklar taqsimlanishini aniqlash imkonini beruvchi asbob.

Porshen (рус. Поршень, ing. Piston) - mashina, mexanizm va priborlarning harakatlanuvchi detali. Silindrning ko'ndalang kesimini zinch qoplashga va uning o'qi bo'ylab harakatlanishiga asoslangan. Porshenli mashinalar va mexanizmlarda energiyani bir turdan boshqa turga aylantiradi. Porshenli mashinalarda porshen ilgarilanma qaytma harakatni valning aylanma harakatiga o'zgartiruvchi mexanizm (shatun) yordamida, tirsaklı val bilan kinematik birlashtirilgan porshen silindr ichida porshen halqlari yordamida germetiklanadi.

Portlovchi moddalar (рус. Взрывоопасные вещества, ing. Explosive substance) - kimyoiy reaktsiyaga shiddatli kirishib, ko'p issiqlik va gaz ajratib chiqaradigan

kimyoviy birikmalar yoki moddalar aralashmasi. Kondensirlangan qattiq va suyuq moddalarning gazlar bilan aralashmasi portlovchi modda hisoblanadi. Ularga tetril, geksogen, oktogen, nitroglitserin, nitrometan va boshqalar kiradi.

Prisadka (qo'ndirma) (рус. Присадка, ingl. Additive) – neft yoqilg'ilarga yoki moylovchi moylarga neft mahsulotining u yoki bu ekspluatasion xossasini (kamroq holatlarda polifunksional prisadka ishlatalganida bir nechta xossalariini) yaxshilash uchun (odatda foizning o'nlik ulushlarida) qo'shiladigan modda.

Profilemetriya (рус. Профилометрия, ingl. Profilometry) - burg' quduqlarda bir-biriga perpendikulyar tekisliklarda quduq diametrini o'lchash. P. ochiq quduqda uchraydigan novlarni aniqlash, ularni to'ldirishga qancha sement sarf bo'lishini hisoblash va mustahkamlovchi quvurlar birikmasining shikastlangan joylarini aniqlashda foydalilanildi.

Promotor (рус. Промотор, ingl. Promoter) - ko'pincha katalizator aktivligi turli qo'shimchalar ta'sirida oshiriladi. Bu qo'shimcha – aktivlovchi (yoki promotor) deyiladi. Ma'lum reaksiya uchun katalizator bo'lmasdan, shu reaksiyada katalizatorni aktiv-

ligini oshiruvchi qo'shimchalar – promotorlar deb, promotor qo'shish promotorlash deyiladi.

Propan avtomobil uchun (рус. Пропан для автомобилей, ingl. Propane for automobiles). «avtomobil transporti uchun suyultirilgan uglevodorod gazi» atamasiga qarang.

Propan fraksiyasi (рус. Пропановая фракция, ingl. Propane fraction) – asosan propandan iborat bo'lgan va eng oxirgi gazlarni qayta ishlashdan olinadigan tor uglevodorod fraksiyasi. Piroliz jarayoni uchun xom-ashyo, maishiy suyultirilgan gaz va sovituvchi agent sifatida qo'llaniladi

Propan-butan avtomobil uchun (рус. Пропан-бутан для автомобилей, ingl. propane-butane for automobiles). avtomobil transporti uchun suyultirilgan uglevodorod gazi» atamasiga qarang.

Propan-propilen fraksiyasi (PPF) (рус. Пропан-пропиленовая фракция, ingl. Propane-propylene fraction) – asosan propan va propilendan iborat bo'lgan va eng oxirgi gazlarni qayta ishlashdan olinadigan tor uglevodorod fraksiyasi. Polimerizasiya va alkilash jarayonlari qurilmalari uchun xom-ashyo sifatida, neft kimyosi mahsulotlari ishlab chiqarish uchun qo'llaniladi

Propant (рус. Пропант, ing. Proppant) - neft qazib chiqarish sanoatida qatlamni gidravlik yorish (QGYo) texnologiyalariidan foydalangan holda quduqlarni neft berish samaradorligini oshirish uchun ishlataladigan granulaga o'xshash material. QGYo davomida hosil qilingan yoriqlar o'tkazuvchanligini saqlab qolish uchun xizmat qiladi.

Protektor halqasi (рус. Протекторное кольцо, ing. Tread ring) - mustahkamlovchi quvurlar birikmasini har xil shikastlanishlardan va qulflarni yejilishdan saqlashga mo'ljallangan halqa.

Pulsatsiya (рус. Пульсация, ing. Pulsation) - qandaydir bir hodisaning ko'rsatkichini uzilib - uzilib turishi. P. hidro-aerodinamiyada, suyuqlik va gazning turbulent oqimini o'rGANISHDA qo'llaniladi. P. o'lchanayotgan oqimning hidrodinamik ko'rsatkichlari qiyimatini me'yordan farqlanishini anglatadi.

Q

Qalinlik o'lchagich (рус. Толщиномер, ing. Thickness gauge) - mexanizm detallarining qalinligini o'lchaydigan asbob.

Qatlam (рус. Пласт, ing. Layer) - litologik tarkibi bir xil, qalinligi maydoniga nisbatan ancha kichik, shakli yassi, o'ziga xos ayrim belgilari bilan farq qiladigan ustki

(shipi) va osti (tagi) yotqiziqlaridan ozmi-ko'pmi aniq chegara bilan ajralib turadigan va geologik kesimda ma'lum stratigrafik joy egallab turadigan geologik jismalar. Masalan, simobli, qo'rg'oshinli, fosforitli qatlamlar.

Qatlam bosimi (рус. Пластовое давление, ing. Reservoir pressure) - qatlamdagagi neft va gazning qatlam bosimi ta'sirida bo'lishi jarayoni. Boshlang'ich qatlam bosimi neft va gaz qatlamining qanchalik chuqurlikda joylashishi shiga bog'liq. Odatda bu bosim gidrostatik bosimga teng. Qatlam energiyasi sarfiga qarab qatlam bosimi kamayadi. Bu boshlang'ich bosimni siqish uchun neft va gaz qatlamlari atrofiga bosimli suvlar rejimida ishlaydigan darajada suv to'ldiriladi yoki neft qatlamining gaz shapkasiya dam berib gaz shapkasi rejimida ishlaydigan darajada gaz yuboriladi.

Qatlam bosimini saqlash (рус. Поддержание пластового давления, ing. Reservoir pressure maintenance) - neft qazib olish sur'atini va yer yuzasiga chiqarish darajasini oshirish maqsadida mahsuldar neft qatlam uyumining sun'iy va tabiiy bosimini saqlash jarayoni.

Qatlam energiyasi (quvvati) (рус. Пластовая энергия, ing. Layer energy) - tog' va qatlam bosimi ta'sirida kuchlangan holatdagi

flyuid (neft, gaz, suv)li qatlam kollektorlarining energiyasi.

Qatlam fizikasi (рус. Физика пластика, англ. Physics of the reservoir) - neft va gaz konchilik geologiyasi bo'limi. U qatlam-kollektor tog' jinslarining g'ovaklik, darzlilik, singdiruv-chanlik, yoriqlik, neftga to'yin-ganlik, qayishqoqlik, magnitlik kabi-fizik xossalalarini o'rGANADI.

Qatlam ichra yonish (рус. Внутрипластовое горение англ. In situ combustion) - qatlamda faol issiqlik-kimyoviy jarayonlar zonasini hosil qilish va uning ko'chishi hisobiga qatlamdan neftni siqib chiqarish usullari. Bu usullar haydalayotgan oksidlovchi moddalar ta'sirida neftrning eng og'ir fraktsiyalarini yoqish yo'li bilan bevosita qatlamning o'zida issiqlik olishga asoslanadi. Jarayonning texnologiyasiga va oksidlovchi moddalar xususiyatiga (gazsimon, turli miqdorda suv bo'lgan gazsimon, kislota eritmalar qo'shilgan gazsimon v.b.) bog'liq ravishda usulning turli xillari bo'lishi mumkin (quruq qatlam ichra yonish, namli yonish, suyuq fazali oksidlanish, issiqlik-kislotali ta'sir va b). Usulning keng qamroviligi uning qovushqoqligi 7—10 mPa*s dan katta, yotish chuqurligi 1500 m gacha va qatlamning neftga to'yinganligi 50—60% dan yuqori

bo'lgan uyumlarda qo'llash uchun tavsija etiladi.

Qatlam neft (gaz) uyumi (рус. Залеж нефти (газа), англ. Layer oil (gas) pile) - yuqori va pastki tomonidan suv o'tkazmaydigan qatlam bilan chegaralangan neft (gaz) uyumi.

Qatlam nefti (рус. Пластовая нефть, англ. Reservoir oil) - qatlamning o'ziga xos bosim va haroratiga moslashgan suyuqlik va gazsimon uglevodorodlar aralashmasi. Qatlamdagi mavjud sharoitlarga qarab bir fazali-suyuq va gaz fazalarga ajralgan holda bo'lishi mumkin. Neft tarkibidagi erigan gazning miqdori uning zichligi, quyuqligi, o'zga muhit bilan chegaralangan yuzasining tortish kuchi va shu kabi xususiyatlarning o'zgarishiga olib keladi. Shunday qilib, neft tarkibida erigan gaz miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, yuqoridagi xususiyatlar shunchalik kuchli o'zgaradi. Neft uyumlarini qazib chiqarish jarayonida qatlamdagи bosim kamayishi tufayli neft xususiyatlari tobora o'zgarib boradi.

Qatlam nefti qovushqoqligi (рус. Вязкость пластовой нефти, англ. The viscosity of the reservoir oil) - bosim pasayganda qatlam nefti zarralarining ko'chishiga bo'lgan qarshilik. MPa*s (millipaskal*s)da o'lchanadi. Q.n.q. juda muhim

parametr bo'lib, neftning qatlampagi harakati, konning mahsuldorligi, neftni chiqarib olish samaradorligi va koeffitsienti aynan unga bog'liq.

Qatlam qalinligi (рус. Толщина пласта, ing. The thickness of the layer) - qatlam usti va tubi orasida oraliq masofa qalinligi

Qatlamdan namuna olgich (рус. Пластовый пробоотборник, ing. Reservoir sampler) - mustahkamlovchi quvurlar birikmasini burg' qudug'iga tushirmsandan oldin qatlamlardan neft, gaz va suv namunasini olishga mo'ljalangan moslama.

Qatlamli tabiiy saqlagich (рус. Пластовый природный резервуар, ing. Formation natural reservoir) - maydonining ko'r qismi yuqori va pastidan yomon o'tkazuvchan jinslar bilan chegaralangan kollektor. Saqlagich maydonining ko'r qismida kollektorning qalinligi ma'lum darajada o'zgarmaydi. Qatlamning ayrim qismlarida kollektorning joylashish qiyofasi saqlansa-da, uning qalinligi ma'lum darajada o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgarish asta-sekin kollektor maydonining kamyishiga va butunlay qiyalanishiga olib keladi. Q.t.s.larda kollektor, odatda, litologik izchil, ammo murakkab tuzilgan bo'lishi mumkin. Unda o'tkazuvchan jinslar

orasida o'zaro bog'liqlik, ya'ni yagona gidrodinamik tizim mavjud.

Qatlamli uyum (рус. Пластовая залежь, ing. Layer deposit) - usti va tagi suyuqlik o'tkazmaydigan qatlam bilan chegaralangan qatlamlarga joylashgan neft uyumi.

Qatlamni gidravlik yorish uchun paker (рус. Пакер для гидравлического разрыва пласта, ing. Packer for hydraulic fracturing)-neft quduqlarini kapital ta'mirlash va tiklash uchun ishlatiladi. Paker quduqlarni sementlash, quduq tubi hududiga kislota bilan ishlov berish, mahkamlash va quduqni sinov ishlatish uchun foydalanilishi mumkin.

Qatlamni ochish (рус. Вскрытие пласта, ing. Opening the layer) - favvoralanishdan muhofaza qilish, quduq tubi atrofini tabiiy o'tkazuvchanligini saqlash; quduqqa keladigan neft va gaz oqimining qulay sharoitlarini, quduq tubi atrofining mustahkamligini va barqarorligini hamda mahsuldor qatlamlarni muhofaza qilish qonunlariga rioya qilishni ta'minlash maqsadida quduqlarni burg'ilash texnologiyasi va ularni o'zlashtirishning oqilona tadbirlari majmuasi.

Qatlamni statik bosimi (рус. Пластовое статическое давление, ing. Static pressure of layer) -

uyumning dastlabki qatlam bosimi, ya'ni neft uyumining ishlangungacha bo'lgan bosimiga mos keladi.

Qatlamning anomal bosimi (рус. Пластовое аномальное давление, ing. Reservoir abnormal pressure) - neft va gaz koni qatlamlarining qandaydir o'lchash nuqtasidagi shartli gidrostatik bosimi miqdoridan har tomonga og'adigan qatlam bosimi kattaligi.

Qatlamning anomal past bosimi (рус. Аномально низкое давление пласта, ing. Abnormally low reservoir pressure) - neft va gaz uyumi bor qatlam ichidagi bosim, bunda uning qiymati ortiqcha bosim (P_{ob}) uyum balandligi hisobidan kiritiladigan tuzatish hamda bosim o'lchangan nuqtaning qatlamdagi gipsometrik balandligiga mos keluvchi gidrostatik bosim orqali aniqlanadi va undan kam bo'ladi.

Qatlamning anomal yuqori bosimi (рус. Аномально высокое давление пласта, ing. Abnormally high reservoir pressure) - neft (gaz) uyumi bor qatlam ichidagi bosim. Uning qiymati ortiqcha bosimga (P_{ob}) uyum balandligi hisobidan kiritiladigan tuzatish hamda bosim o'lchanadigan nuqtaning qatlamdagi gipsometrik balandligiga mos keluvchi gidrostatik bosim bilan aniqlanadi va undan ko'p bo'ladi.

Qatlamning anomal bosimi - neft, gaz yoki suvli qatlamlarning ma'lum nuqtasidagi bosim.

Qatlamning dastlabki bosimi (рус. Начальное давление пласта, ing. The initial pressure of the reservoir) - qatlam ochilgan paytda, undan suyuqlik yoki gazni olish yoki ularni sizib chiqishidan oldin o'lchangan qatlam bosimi (Pa).

Qatlamning dinamik bosimi (рус. Пластовое динамическое давление, ing. Dynamic pressure of layer) - ishlayotgan quduqlarning o'zaro ta'siridan uyumda qaror topgan bosim.

Qaytar zaharlanish (рус. Возвратный отравления, ing. Reflexive poison) - Zaharlanib aktivligini yo'qotgan katalizatorni turli usul bilan yana aktiv holga keltirish mumkin. Bu usullardan biri katalizator yuzasidagi zaharni gaz yoki suyuqlik bilan desorbtsiyalab yo'qotishdir. Ikkinchisi usul, zahar boshqa modda bilan kimyoviy reaktsiyaga kiritilib, zaharmas yoki yomon adsorbtsiyalanuvchi moddaga aylantiriladi.

Qaytmas zaharlanish (рус. Невозвратный отравления, ing. Irrecoverable poison) - zahar katalizatorning aktivligini yo'qotadi. Zaharlangan katalizatorning aktivligini tiklab bo'lmaydi

Qidiruv burg'ulash (рус. Разведочное бурение, ing. Exploration drilling) - ochiq uyumlar va konlar zahiralarini baholash maqsadida qidiruv quduqlari burg'ilanadi. Qidiruv quduqlariga ma'lumotlariga ko'ra neft va gaz konlarining konfiguratsiyasi aniqlanadi va mahsuldor qatlamlar va konlarning parametrlari hisoblab chiqiladi. Ushbu quduqlarda namunalarni tanlash va o'rganish, suyuqlik namunalarini tanlash va ularni laboratoriyalarda o'rganish, QGT va boshqalar amalga oshiriladi.

Qidiruv qudug'i (рус. Разведочная скважина, ing. Exploratory well) - uyumning geologik tuzilishini batafsil o'rganish uchun isbotlangan neft va gazli hududlarda qazilgan quduq.

Qidiruv va baholovchi burg'u-lash (рус. Поисково-оценочное бурение, ing. Search and evaluation drilling) - qidiruv va baholash quduqlari ilgari ochilgan konlarda yangi neft va gaz konlarini yoki yangi konlarni ochish va ularning sanoat ahamiyatini baholash uchun burg'ulanadi. Baholash quduqlarini burg'ilash natijalariga ko'ra, zahiralarini C₁ va C₂ toifalari bo'yicha hisoblash amalga oshiriladi. Qidiruv burg'ilash va konlarni ochishda qidiruv va ba-

holash quduqlari geologiya-qidiruv ishlaringin qidiruv va baholash bosqichini yakunlaydi. Natijada qatlamni (konlarni) ochish yoki strukturani istiqbolli obyektlar ro'yxatidan o'chirib tashlash bo'ladi.

Qiya yo'nalgan quduqlarni burg'ilash (рус. Бурение наклонно направленных скважин, ing. Directional well drilling) - Qiya yo'nalgan quduqlarni burg'ilash - burg'ilash jarayonida quduqlarning vertikal yo'nalishini saqlash bilan bir qatorda tabiiy og'ish jadalligini hisobga olish hamda loyihada ko'rsatilgan burchak ostida sun'iy og'dirib burg'ilash.

Qizdirish (рус. Нагревание, ing. heating) - muhitga uning haroratni oshirish uchun agregat holatini yoki kimyoiy tarkibini o'zgartirish bilan issiqlik yetkazib berish jarayoni.

Qo'sh ta'sirli gidrozarbalagich (рус. Гидроударник двойного действия, ing. Double action hydraulic hammer) - qo'sh ta'sirli gidrozarbalagichlarda kuchli tok prujinasi bo'lmay qolganda zarbalagichning to'g'ri va teskari yurishini ta'minlash uchun yuvish eritmasining oqim energiyasidan foydalilanadi.

Qoldiq suv (рус. Остаточная вода, ing. Residual water) - jins-kollektorlar neft va gaz bilan

to'lganda unda qoladigan turli toifadagi va ko'rinishdagi yer osti suvari. Bunday suvlar o'lchami juda ham kichik bo'lgan kapil-lyarlar va jins zarrachalarining o'zaro tutashgan yuzasida kapil-lyar kuchlar bilan ushlanib turiladi. N.T.Lindrop va V.M.Nikolaev (1929) fikricha, neft va gaz qatlamlari g'ovaklarida Q.s. ko'p miqdorda yig'ilsada, neft quduq tomon harakatlanganda suv o'z joyida qoladi, shu sababli quduqdan suvsiz neft va gaz chiqadi. Q.s. hosil bo'lishi neft va gaz uymularining paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq. Ayrim gaz konlari Q.s. lardan tashqari qoldiq neft ham bo'ladi.

Qopqon (рус. Ловушка, ingl. Trap) - kollektorning bir qismi bo'lib, o'tkazmas jinslar o'zaro joylashish shartlariga ko'ra unda neft to'planishiga yordam beradi.

Qora neft mahsuloti (fraksiya) (рус. Продукты тёмной нефти, ingl. Black product (fraction)) - qaynash harorati 350 °S dan oshadigan neft va gazokondensat fraksiya.

Qotish harorati (рус. Температура застывания, ingl. Chilling temperature; congelation temperature; solidifying point) - gorizontal yo'nalishda og'dirilgan probirka ichida yoqilg'i o'zining sirtini 5 sekund ichida siljitmайдиган maksimal harorat.

Qovushqoqlik (рус. Вязкость (внутреннее трение), ingl. Viscosity, tenacity, malleability, ductility) - Ishlatilgan kuch ta'sirida qismlar ko'chishiga bo'lgan qarshilik.

Qovushqoqlik indeksi (moylovchi moy uchun) (рус. Индекс вязкости, ingl. Viscosity index) - moylovchi moyning qovushqoqlik-harorat bog'liqligining qiyaligi o'lchovsiz ko'rsatkichi bo'lib, harorat oshganida uning qovushqoqligi pasayishi darajasini tavsiflaydi.

Qovushqoqlik-harorat xususiyatlari (moylovchi moylar uchun) (рус. Вязкостно-температурные свойства, ingl. Temperature-dependent viscosity properties) - turli haroratlarda qovushqoqlik (kinematik, dinamik, shartli va boshqa turlari) va qovushqoqlik indeksi.

Qozon yoqilg'isi (рус. Топочное топливо, ingl. Stove fuel; crude petroleum oil). «Yoqilg'i» atamasiga qarang.

Quduglarni tugallash (рус. Завершение скважины, ingl. Completion of a well) - burg'ilash qudug'idan foydalaniib bo'lgach, yoki quduqdan olingan natija salbiy bo'lganda, quduq og'zini sement bilan tampon qilib bekitish va mahsus belgi qilish kabi ishlarni amalga oshirish jarayoni.

Quduq (рус. Скважина, ing. Well) - chuqurligi diametridan bir necha marta katta bo'lgan Yer qobig'idagi silindrishimon tog' inshooti bo'lib, metall quvurlar bilan qoplangan.

Quduq debiti (рус. Дебит скважины, ing. Well production rate) - quduq debiti-tabiiy yoki sun'iy manbadan bir vaqtning o'zida keladigan neft yoki gaz miqdori. Debit - bu mahsulotni ishlab chiqarish qobiliyatini belgilovchi manbaning tavsifi, uning qo'shni neft, gaz yoki suv qatlamlari bilan bog'lanishiga, shuningdek mavsumiy o'zgarishlarga (yer osti suvlari uchun) bog'liq. Debitni o'lhash quduqning ishlashini hisobga olish va uni ishlatishning texnologik rejimini nazorat qilish uchun muhimdir. Debit m^3/soat , m^3/kun , l/min , t/kun bilan o'lchanadi. Mexanizatsiyalashgan usulda ishlaydigan neft quduqlari debitlari ning pasayishi operatsion uskunalar parkining yuqori ish faoliyatini oshirishga olib keladi. Neft konining parametrlarini va xususiyatlarini quduqlarning imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirish juda muhim vazifadir.

Quduq diametri (рус. Диаметр скважины, ing. Borehole diameter) - jins yemiruvchi asboblarning tashqi diametridan hisoblanadi. Quduqning haqiqiy

diametri jins yemiruvchi asboblarning diametridan kattaroq bo'ladi. Burg' qudug'ining diametri 1,5 sm dan 5 m gacha, ayrim hollarda undan ko'proq bo'ladi (quduqshahta).

Quduq inklinometriyası (рус. Инклинометрия скважины, ing. Inclinometry of wells) - quduq o'qining holatini nazorat qilish usuli. Vertikal va gorizontal tekislikda quduq o'qi proyeksiyasining magnit azimutidan uning burilish burchagi o'lchanadi.

Quduq namligini o'lhash (рус. Влагометрия скважины, ing. Well moisture monitoring) - quduq tanasini to'ldiruvchi suyuqlikdagi suv miqdorini aniqlash. Buning uchun C-konturli generatorming chastotasini o'lhashga asoslangan quduq namlik o'lchagichi ishlatiladi, uning kondansatori plitalari orasi suyuqlik bilan to'ldiriladi.

Quduq usti bosimi (рус. Устьевое давление, ing. Wellhead pressure) - Quduqning yuqori qismidagi bosim, uning og'zida - manometrlar bilan o'lchanadi.

Quduq zichligi o'lchagichi (рус. Плотномер скважинный, ing. Density downhole) - ishlayotgan burg' qudug'i ichidagi suyuqlikning zichligini o'rganadigan asbob. Q.z. bilan suyuqlikning

zichligini o'lchash gamma-nurlanishning jadalligi o'rganilayotgan muhitning samarali atom nomeriga bog'liqligiga asoslangan. Zichlikni aniqlash uchun maxsus etalonirovka grafiklari qo'llaniladi. Zichlik orqali flyuid tarkibi aniqlanadi. GGP-1M, GGP-3, GGP-30 asboblaridan foydalaniladi.

Quduqda qatlam bosimining tiklanishi (рус. Восстановление пластового давления в скважине, ing. Restoration of plastic pressure in a well) - quduqdan suyuqlik yoki gaz olish to'xtatilgandan so'ng quduq tubidagi bosimning qatlam dinamik bosimi darajasigacha o'zgarishi.

Quduqda qovushqoqlikni o'lchash (рус. Вискозиметрия скважины, ing. Wel viscometry) - suyuqlikning dinamik qovushqoqliagini chuqurlik viskozimetri (qovushqoqlik o'lchagich) bilan bevosita quduq ichida o'lchash.

Quduqdan davriy foydalanish (рус. Переодическое использование скважин, ing. Periodic use of wells) - kam debitli quduqlardan vaqtiga vaqtiga bilan foydalanish metodi.

Quduqlar fondi (рус. Фонд скважин, ing. Well stock) - hisobot davrining oxirida neft-gaz oluvchi korxonaga biriktirilgan, ishlatish ob'yekti (konda,

korxonada) burg'ilangan quduqlarning umumiy soni.

Quduqlar suvlanganligi (рус. Обводненность скважины, ing. Water content of the well) - quduqlar suvlanganligi - bu qazib olingan suv miqdorining qazib olingan jami neft va suv miqdoriga nisbati bilan aniqlanadigan quduq mahsulotidagi suv miqdori. Quduqning suv miqdori quduqdan keladigan suyuqlik namunalarini muntazam ravishda tanlab olish va suv oqimining avtomatik nazorati bilan belgilanadi. Quduqning suv miqdori, odatda, foizda ifodalangan, chiqarilgan suyuqlikdagi nisbiy suv miqdori deb ataladi.

Quduqlarda geofizik tadqiqotlar (рус. Геофизические исследования скважин, ing. Geophysical survey of wells) - neft va gaz konlarini izlash va qidirsh maqsadida Burg'ilanayotgan quduqlarda bajariladigan tadqiqotlarning geofizik metodlari majmuasi. Quduqlarda geofizik tadqiqotlarga quyidagilar kiradi: 1) karotajning turli metodlari; 2) quduqning texnik xolatini nazorat qilish metodlari; 3) neft va gaz konlarini ishlatishni nazorat qilishning geofizik metodlari. Quduqlarda geofizik tadqiqotlarga shuningdek quduqda bajariladigan ishlar - quvuqlarni teshish, torpedolash,

namuna olishning ayrim metodlari, qatlamdan namuna olish metodlari, differinsial monometr bilan o'lchash, Burg'ilash parametrlarini qayd qilish va shu kabilar kiradi.

Quduqlarni ishga tushirish (рус. Эксплуатация скважин, ing. Well operation) - burg'ilash ishlari tamomlangan, geologik-texnik naryadi va geologik kesimi tuzilgan, maxsus komissiya tomonidan qabul qilingan, tog-nazorat idorasining yozma ruxsati bo'lgan quduqlarni ishga tushirishga ruxsat etish jarayoni.

Quduqlarni ishlatish (рус. Эксплуатация скважин, ing. Well operation) - Quduqdan ma'lum miqdorda suyuqlikning yer yuzasiga ko'tarish jarayoni.

Quduqlarni mustahkamlash (рус. Крепление скважин, ing. Fixing wells) - quduq devorini po'lat quvurlar bilan mustahkamlash hamda ochilgan suvli, neftli va gazli qatlamlarni bir biridan ajratish maqsadida burg' quduqlarini mustahkamlash.

Quduqlarni o'zlashtirish (рус. Освоение скважин, ing. Well development) - bu oqimni yuzaga keltirish yoki quduqlarning qabul qiluvchanligini ta'minlashdir. O'zlashtirish usulini tanlash quyudagilarga bog'liq: quduqdan olinadigan mahsulot turi (neft, gaz, suv); quduqning vazifasi

(qazib chiqarish haydov); O'zlashtirish obyektining litologik fizik tavsifi (qumtosh, alivrolit, karbonat jinslar, o'tkazuvchanligi, darzligi, zichligi va bosh.); qatlam bosimi; qatlamni ochishda foydalilanidigan yuvuvchi suyuqlikning xossalari.

Quduqlarni sementlash (рус. Цементирование скважин, ing. well cementing) - Quvur orti maydonini sementlash orqali quduqlarni mustahkamlash usuli.

Quduqlarni sinash (рус. Испытание скважин, ing. Well testing) - bu quduqda o'zlashtirilgan obyektning mahsuldorligini baholash, ya'ni quduqning debitini, qabul qiluvchanligini aniqlashdir. Quduqning debiti, qabul qiluvchanligi va gaz omillari imkonli boricha turli qatlam va quduq tubi bosimlarida o'lchanadi.

Quduqlarni ta'mirlash (рус. Ремонт скважин, ing. Workover) - qudug'ining ishlash jarayonida mahsuldor qatlam atrofida sodir bo'ladigan asoratlarni, kamchiliklarni bartaraf qilish jarayoni.

Quduqlarni to'liq ta'mirlash (рус. Капитальный ремонт скважин, ing. Overhaul wells) - bu jarayon tuzatish, ta'mirlash quduqning ikkinchi stvolini qazish, tutish, ezelish va sinishlarni to'g'rakash,

quvurlar birikmasi qismlarini almashtirish, quduq og'zini germeklash, izolyatsion ta'mirlash va mahsuldor qatlam faoliyatini yaxshilash kabi kompleks ishlar majmuasi.

Quduqlarni torpedalash (рус. Торпедирование скважин, инг. Hole torpedoing) - teft oqimini oshirish uchun quduqlarda portlashlar olib borish. Torpedalash qattiq jinslardan iborat qatlamlarda (ohaktosh, dolomit, qattiq qumtosh) qo'llaniladi. Bundan tashqari, ba'zan tuzatish yoki tugatish ishlarida ham qo'llaniladi.

Quduqni o'zlashtirish (рус. Освоение скважины, инг. Well completion) - quduqni ishlatishga topshirishdan oldin qatlamdagi suyuqlik yoki gaz oqimini harakatga keltirish. Quduqdagi gidrostatik bosim qatlamdagи bosimdan kam bo'lganda bosimlar farqi hisobiga suyuqlik oqimi yuzaga keladi. Bosimlar farqi quduqni zichligi kam bo'lgan suyuqlik va havo (gaz) bilan yuvish yoki quduqdagi suyuqlik sathini pasaytirish orqali yuzaga keltiriladi.

Quruq gaz (рус. Сухой газ, ingl. Dry gas; lean gas; poor gas; stripped gas) - tabiiy yonuvchan uglevodorod gaz, uning tarkibida yuqori miqdorda metan, nisbatan kam etan va kichik miqdorda og'ir

uglevodorodlar C_3H_8 bilan tavsiflanadi.

Quvur tutgich (рус. Труболовка, инг. Spear) - burg'ilash quvurining silliq yuzasidan qisib olib chiqishga mo'ljallangan. Quvurni tutuvchi kolokol bilan ilintirib bo'lmaganda qo'llaniladi. Agar quvurlar quduqda qisilib qolgan bo'lsa, Q.t.dan foydalanish yaxshi natija beradi, chunki u tutuvchi kolokolga nisbatan tez ajraladi.

Quvur uzatgich transporti (рус. Трубопроводный транспорт, инг. Pipeline transport) - suv, gaz, neft va qattiq mahsulotlarni quvurlar orqali ma'lum masofaga uzatadigan transport. Quvurning ichi kovak, kesimi halqasimon va uzun bo'ladi. Metall, sopol, asbesment, shisha, kauchuk plastmassa va b. materiallardan tayyorlanadi. Hozir metall quvurlar alohida ahamiyatga ega.

Quvur uzatgichlarni ankerli mustahkamlash (рус. Анкерное закрепление трубопроводов, инг. Anchoring (tie) securing of pipeline) - фнкерли таянчларга quvur uzatgichlarni mustahkamlash usuli.

Quvurlar birikmasini mustahkamlovchi boshmoq (рус. Башмак для укрепления трубопроводов, инг. Shoe for strengthening pipelines) - burg'ilash qudug'i devorlarini mustahkamlaydigan quvurlarning

quyi qismiga o'rnatiladigan qaln devorli katta quvur. U o'zining og'irlikka chidamliligi bilan farqlanadi.

Quvuruzatgich (рус. Трубопровод, ingl. Conduit, pipe duct, duct, ducting, pipe installation, pipe line, line, passage, conduct pipe, line pipe, pipe, pipeline, pipework, run, tubing) - gaz, suyuq va qattiq moddalarni yoki ularning aralashmalarini turli kesimlarda bosimlar farqi ta'siri ostida tashish uchun inshootlar majmuasi. Diametri 0.02 m dan 1.22 m gacha bo'lgan yumaloq quvurlar eng keng tarqalgan.

R

Radial harakatlar (рус. Радиальные движения, ingl. Radial motion) - yer po'sti harakatining bir turi bo'lib, unga radial yo'nalish mansub. Bu harakat natijasida yer po'stining uchastkalari o'z joyini o'zgartiradi, natijada turli ko'rinishdagi ko'tarılma-uzilma, tashlama-uzilma, graben va gorstlar hosil bo'ladi.

Rafinat (рус. Рафинат, ingl. Raffinate) - neft xom-ashyosidan nomaqbul komponentlarni suyuqlikli selektiv ekstraksiya-lashning maqsadli (tozalangan) mahsuloti.

Raketa yoqilg'isi (рус. Ракетное топливо, ingl. Rocket fuel) - raketa dvigatellari uchun yoqilg'i.

Shuningdek «yoqilg'i» atamasiga qarang.

Razvedkaning geofizik metodlari (рус. Геофизические методы разведки, ingl. Geophysical exploration methods) - tog' jinslari, rudalar va minyerallarning bir xil fizik xususiyatlarini atrof, ostki va shpidagi qatlamlar xususiyatlaridan farq qilishini o'lchashga asoslangan. Bu farqni aniqlash razvedkaning geofizika metodlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Hozirgi paytda mangit razvedkasi, elektrorazvedka, gravimetriya, seysmik razvedka radiometriya, geotyermiya kabi metodlari mavjud.

Reaktiv yoqilg'i (рус. Реактивное топливо, ingl. Jet (aircraft) fuel) - havo-reactiv aviasion dvigatellar uchun yoqilg'i bo'lib, 60 dan 315 °S gacha harorat intervalida qaynab chiqadigan yaxshilangan neft fraksiyalaridan iborat (har bir marka uchun frakstion tarkibga individual talablar qo'yilgan). Shuningdek «yoqilg'i» atamasiga qarang.

Refrak (рус. Рефрак, ingl. Refrac) - qatlamni qayta gidravlik yorish. QGYo allaqachon amalga oshirilgan quduqlarda NOKni oshirishning bir usuli. Qayta QGYo uchun bir necha texnologiyalar mavjud. 2015

bahorida Gazpromneft dunyoda birinchi marta an'anaviy kollektorda kimyoviy og'ish texnologiyasi bo'yicha refrakni amalga oshirdi. Ushbu texnologiyaning o'ziga xos xususiyati mavjud yoriqlarni maxsus kimyoviy birikma bilan to'sib qo'yishdir, bu esa mavjud yoriqlarga kirish uchun QGYo uchun aralashmani bermaydi va uni hali qoplamagan qatlam hududlarida yangi yoriqlar shakllanishiga yo'naltiradi.

Regenerasiya (рус. Регенерация, инг. Regeneration) - biron-bir moddaning (neft mahsuloti, katalizator, erituvchi, absorbentva boshq.) dastlabki xossalarning tiklanishi jarayoni.

Rektifikat (рус. Ректификат, инг. rectificate). «distillyat» atamasiga qarang.

Relaksatsiya (рус. Релаксация, инг. Relaxation) - moddaga tarang kuchlar ta'sirida hosil bo'lgan deformatsiyadan so'ng uni yana o'z holatiga qaytish jarayonini karakterlovchi vaqtini bildiradi.

Relyef (рус. Рельеф, инг. Relief) - yer yuzasidagi notekisliklarni umumiy nomi. Endogen va ekzogen jarayonlar natijasida hosil bo'ladi. Katta - kichikligiga qarab mikro, mezo, makroreleflar turlari ajratiladi.

Restit (рус. Рестит, инг. Restit) - qoldiq jins. Kristallizatsion

differentsiatsiya jarayonlarni natijasida, magmatik kamera tubida qolgan jins, masalan, andezit tariqasidagi magma kristallahandan so'ng kamera tubida gabbro, gabbro norit, troktolitlar hosil bo'lish mumkin. Sinonimlari: skialit, melanosoma, kinsigit va hokazo.

Reyd bombasi (рус. Бомба рейда, инг. Raid's bomb) - neft va yengil uglevodorodlardagi to'yingan bug' bosimini o'lchaydigan asbob. U 1:4 nisbatdagi hajmli alohida berk yonilg'i va havo kameralaridan iborat.

Rezistivimetr (рус. Резистивиметр, инг. Resistivity meter) - burg' qudug'i ichidagi suyuqliklarning solishtirma qarshiligini o'lchaydigan, qisqa zondli geofizik asbob.

Riformat (рус. Риформат, инг. Reformat) - riforming jarayoni mahsulotlari.

Rift (рус. Рифт, инг. Rift) - qit'alarni, okeanlar tubini parchalanishi natijasida hosil bo'lgan geologik tuzilma shakli. Qit'alarda rift tizimlari keng tarqalgan (SHarqiy Afrika, tizmalar va havzalar hududi, AQSH). O'rta Osiyoda Qurama, Xisor tog'larida keng tarqalgan. Okean riftlari Atlantika okeani misolida batafsil o'rganilgan.

Riftogenez (рус. Рифтогенез, ing. Rifting) - rift hosil bo'lish jarayonlarini umumiyl nomi.

Rotor (рус. Ротор, ing. Rotor) - burg'ulash quvurlari tizmasining aylanishini va unga aylanish momentini uzatishni ta'minlovchi mexanizm.

S

Samarali g'ovaklik (рус. Эффективная (динамическая) пористость, ing. Void factor, effective (flow) porosity) - neft bilan egallangan g'ovaklar hajmini tog' jinslari g'ovaklarining umumiyl hajmiga nisbati bilan ifodalanuvchi neft qatlami g'ovakligi

Samarali o'tkazuvchanlik (рус. Эффективная (фазовая) проницаемость, ing. Effective permeability) - har qanday suyuqlik yoki gaz uchun g'ovakli muhitning o'tkazuvchanligi, ularning aralashmasida (gaz-neft, suv, gaz-neft-suv) bir vaqtning o'zida mavjud. Bu suyuqlik yoki gaz uchun tog' jinsining samarali o'tkazuvchanligi tog' jinslari g'ovaklarining shu suyuqlik yoki gaz bilan to'yinganligi darajasiga bog'liq.

Samarali va neft(gaz)ga to'yingan qatlamlar qalinligi (рус. Эффективные и нефте(газо)-насыщенные толщины пластов, ing. Efficient and oil(gas)-

saturated reservoir thicknesses) - neftlilik chegaralarini hisobga olib ajratiladi. Mahsuldor qatlamlar ajratiladi va ularning deyarli hamma parametrlari namunalardan aniqlangan konditsion chegaralar yordamida asoslanadi.

Sanoat moyi (рус. Индустриальное масло, ingl. Industrial oil) - metall kesuvchi stanoklar, presslar, prokat stanoklari va boshqa sanoat qurilmalarining ishqalanadigan detallarini moylash va ularning emirilishini oldini olish uchun ishlatiladigan moy.

Sarf (рус. Расход, ing. Expenditure (flow)) - vaqt birligida qatlamning ko'ndalang kesimidan sizib o'tuvchi suyuqlik yoki gaz miqdori. Hajmiy (hajm birligida) va massaviy (massa birligida) sarflar mavjud.

Sath o'lchagichi (рус. Уровнемер, ing. Level gauge) - sanoatda suyuq, sochma, to'kiluvchan moddalar sathini, rezervuar, ombor, texnologik apparat va boshqalarda, o'lchash yoki nazorat qilish uchun qo'llaniladigan asbob.

Saykling jarayoni (рус. сайклинг-процесс, ing. Cycling process) - ishlayotgan gazkondensatli uyumga olingan gazdan kondensat ajratib olingandan so'ng uni qaytadan

butunlay yoki qisman qatlamga haydash jarayoni. S. j. qatlam bosimining pasayishini kamaytirish, qatlama aks hodisalarining oldini olish va kondensat olishni oshirish maqsadida amalgalashiriladi.

Sedimentatsiya (рус. Седиментация, ing. Sedimentation) - cho'kindi jinslar, asosan, terrigenlar hosil bo'lish jarayoni.

Sedimentogeneticheskiy bosqich (рус. Стадия седиментогенеза, ing. The stage of sedimentogenesis) - nurash jarayonidan so'ng u va u bilan bir vaqtida hosil bo'lgan birlamchi mahsulotlarning tashilishi va yotqizilishi - cho'kma hosil bo'lishi.

Sementlash agregatlar (рус. Цементировочные агрегаты, ing. Cementing unit) - quduqni sementlashda sement aralash-tirgichga suv uzatish; quvur tashqi bo'shlig'idagi sement qorishmani yuqoriga ko'tarish uchun quduqqa sement qorishmasi va bosuvchi suyuqlikni haydash; quduqdagi qum tiqinlarni yuvish; mustahkamlash va burg'ilash quvurlarini suv bilan yuvish va boshqa yordamchi ishlarni bajaradigan agregatlar.

Sementlash muftasi (рус. Муфта цементировочная, ing. Cement collar) - quduqlarni bosqichmasbosqich sementlash uchun ishlataladigan qurilma.

Sementli ko'priklar (рус. Цементный мост, ing. Cement bridge) - burg'ilash qudug'i devori tanasining ayrim qismlarini bir-biridan ajratib qo'yish yoki qandaydir boshqa maqsadlar uchun qo'yiladi. S.k. mustahkamlash quvurlari o'rnatilgan va o'rnatilmagan burg'ilash qudug'ida qo'yilishi mumkin. S.k. sementning hisoblangan ma'lum miqdorini mo'ljallangan chuqurlikka tushirilgan burg'ilash quvurlaridan haydash orqali yuritiladi. Keyinchalik yuvuvchi suyuqlik ta'sirida sementning bir qismi yuvilib ketishi mumkin. Sement qotgandan so'ng S.k. ning mustahkamligi (havo kirmasligi) sinab ko'rildi.

Sentrifugalar (рус. Центрифуги, ing. Centrifuges) - markazdan qochma kuch maydonida suspenziyalar, emulsiyalarni ajratish va materiallardan namlikni yo'qotish uchun jihozlar.

Sentrifugalash (рус. Центрифугирование, ing. Centrifugation) - turli jinsli tizimlarni, xususan emulsiya va suspenziyalarini markazdan qochma kuchlar maydonida ajratish jarayoni.

Seolit (рус. Цеолит, ingl. Zeolite) - isitishda shishish qobiliyati bo'yichan shunday nomlangan, chunki g'ovaklarning katta miqdoriga ega bo'lgan mineral bo'lib, ularda suv yutiladi. Mineral

isitilishida suv bug'lanadi. Alyumosilikatlardan iborat bo'lib, ularning kristallik strukturasi umumiyl uchlari bilan bo'shliq va kanallar bilan tizilgan uch o'lchamli karkasga birikkan SiO_4 va Al_2O_3 larning tetraedrik fragmentlaridan tashkil topgan. Bo'shliq va kanallarda suv molekulalari va metalllar va ammoniy kationlari mavjud bo'ladi. Turli moddalarni selektiv ajratib chiqarish va qayta yutib olish, shuningdek kationlarni almashtirish xususiyatiga ega. Tabiiy va sun'iy steolitlar mavjud. **Separator** (pyc. Cenapator, ing. Separator) - suyuq va gazsimon muhitlar va ikki fazali ko'pkidan gaz, qattiq yoki suyuq moddalarni ajratish, mineral xomashyo komponentlarini, qattiq yoki suyuq moddalarni ajratish uchun jihoz.

Separatsiya (pyc. Сепарация, ing. Separation, trapping) - qattiq materiallar, turli zichlikdagi suyuqliklar, emulsiyalar, gazlardagi tomchilar yoki qattiq zarralar, bug'lar, ikki fazali muhitlar turli jinsli aralashmalarini ajratish jarayoni. Ajratishda komponentlar fazaviy va kimyoviy tarkibini o'zgartirmaydi.

Serezin (pyc. Серезин, ingl. Ceresin; ceresine) – parafin qatori qattiq uglevodorodlar aralash-

masi. Bu uglevodorodlarning molekulalari zanjirda 36 dan 55 tagacha uglerodatomlarini saqlaydi, izotu-zilishga ega, bir qator holatlarda naften yoki aromatik halqasi mavjud. Serezin mole-kulyar massasi – 500–750, erish harorati – 60–85°С. Kristallanishda serezin mayda, noaniq ifodalangan ignali kristallarni beradi.

Seriya (pyc. Серия, ing. Series) - geologiyada umumiyl xususiyatlarga ega bo'lgan jinslar, minerallar qatori, turkumi. Misol, yuqori haroratli dala shpatlar seriyasi (sanidin-anortoklaz-adulyar); natriyli bazaltlar seriyasi (toleitli bazaltlar, kera - tofirlar, albitofirlar), gabbro - diorit - granodiorit - granit seriyasi.

Setan soni (рус. Сетановое число, ingl. Cetane number) – dizel yoqilg'i sifat ko'rsatkichi, uning alangalanishini tavsiflaydi va dvigatelni ishga tushirish osonligini, ishchi jarayon bikirligini (silindrda bosim oshishi tezligini), yoqilg'i sarfini va ishlangan gazlar tutnligini belgilaydi. Dizel yoqilg'i setan soni deb uning ametilnaftalin bilan shunday aralashmasidagi setan miqdoriga aytildiki, ushbu aralashma maxsus motor qurilmasida sinovdan o'tkazilganida standart sharoitlarda alangalarishida sinaladigan

dizel yoqilg'isi alangalanishiga teng bo'ladi.

Shablon (рус. шаблон, ing. template) - texnik qurilma. SH.dan burg' quduq devorini gil va boshqa tog' jinslari zarrachalaridan tozalashda foydalanildi. Burg' quduqni burg'ilashda va boshqa ishlar bajarilayotganda uning devoriga burg'ilash eritmasidagi har xil zarrachalar yopishadi. O'z vaqtida tozalab tashlanmasa, geofizik tadqiqotlar bajarilayotganda murakkab holatlar kelib chiqadi. Mas., karotaj zondini tushirib chiqarishda halaqit beradi va zondning tutilib qolish xavfi kuchayadi. SH. karotaj kabelida quduqda tushiriladi. Uning diametri quduq diametriga yaqin bo'lishi lozim.

Sharoshkali burg'ilash (рус. Шарошечное бурение, ing. Roller-bit drilling) - sharoshkaliburgi bilan burg'ulash. Tog' jinslariga ishlov berish vositasi sifatida sharoshkali burg'i yordamida quduqlarni burg'ilash uchun aylanma usul

Shartli yoqilg'i (рус. Условное топливо, ing. Reference (standard, equivalent) fuel) - Har xil yoqilg'ilarni solishtirish uchun ishlataladigan yoqilg'inинг issiqlik qiymatini hisobga olish birligi. 1 kg qattiq (suyuq) yoki 1 m³ gazli shartli yoqilg'inинг yonish issiqligi 29.3 MJ (7000 kkal) ga teng.

Shlam (рус. Шлам, ing. Sludge) - tog' jinslarining quduq tubida maydalangan zarralari (ko'pincha 0,25 mm dan yirik emas) to'plami. Burg'ilash jarayonida quduq bo'ylab harakatlanayotgan yuvvuchi suyuqlik bilan yer yuzasiga chiqarib tashlanadi. Sh.ni o'rganib, kavlanayotgan jinslarning litologik tavsifi aniqlanadi. Bu, o'z navbatida, kavlanayotgan quduqning geologik kesimini tuzish va uni yaqinroqda joylashgan burg'ilash quduqlari kesimi bilan taqqoslash uchun zarur.

Shovqin o'lchagich (рус. Шумомер, ing. Sound level meter) - texnik qurilma. Sh.o'. shovqin kuchini o'rganishga asoslangan geofizik asbob. Mustahkamlangan burg' quduqlar birikmasi ortida sement-quvur, sement-tog' jinslari chegarasida sement bilan to'ldirilmasdan qolgan kanallar bo'ylab qatlam suvi yoki uglevodorodlarning harakatlanishidan paydo bo'ladigan shovqin o'rganiladi.

Shoxobli burg'ilash (рус. Кустовое бурение, ing. Cluster drilling) - bir burg'ilash qurilmasida ikki va undan ortiq quduqni burg'ilash.

Shoxsimon burg'ilash (рус. Бурение кустовое наклонное, ing. Cluster drilling) - shoxsimon qiya burg'ilash - ma'lum bir

maydonda, bir-biriga yaqin məsofada qazilgan quduqlar guruhi. Quduqlar konni ishlash turiga muvofiq mahsuldar gorizontni ochadi. SH.b. zaruriyatga kō'ra quyidagilarga bo'linadi: texnik - imorat va inshootlar ostida yotuvchi konlarni burg'ilash; texnologik - tabiiy qiyalangan quduqlar ta'sirida konni ishlash turi.

Shtanga salnigi (рус. Сальник штанги, ing. Oil seal rod) - aylanayotgan shtangani suv nasosining harakatsiz shlangasiga ularshga va nasos shlangasidan burg'ilash shtangasiga suv uza-tishga mo'ljallangan mashina detali.

Shtangali nasos (рус. Штанговый насос, ing. Sucker rod pump) - burg' qudug'idan mahsulot chiqarishga mo'ljallangan nasos.

Shtutser (рус. Штуцер, ing. Fitting) - bosim va oqimni aniq nazorat qilish uchun ishlatiladigan maxsus mo'ljallangan qurilma. Quduqlar, separatorlar va bosim va oqimlarni nazorat qilish kerak bo'lgan boshqa joylarga o'rnatiladi.

Shurf (рус. Шурф, ing. Pit) - kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak shaklli vertikal yoki engashgan tog' inshooti. Shurf foydali qazilmalarini qidirishda, shuning-dek, geologik s'yomkada, injenerlik geologiyasi, gidrogeo-

logik tadqiqotlarda va sh.k.da kavlanadi.

Sikloalkanlar (рус. Циклоалканы, ing. Sikloalkans) - neftning asosiy qismini sikloalkanlar tashkil etadi. Neft tarkibida mono va polisiklli sikloalkanlar uch-raydi. Umuman ular siklli tuzilish ega bo'lib, umumiyl-C_nH_{2n} formula orqali tavsiflanadi. Sikloalkanlar, Markovnikov tomonidan naftenlar deb nomlangan.

Siklonlar (рус. Циклоны, ing. Cyclones) - bir jinsli bo'limgan gaz-qattiq zarralar tizimlarini ajratish uchun jihozlar.

Silikagel (рус. Силикагель, ing. Silicagel) - amorf mayin dispers kremniy dioksidi, polikremniy kislotosi gelini qizdirish yo'li bilan olinadi. Adsorbent va katalizatorlar tashuvchisi sifatida ishlatiladi.

Silikat (рус. Силикат, ingl. silicate) - kremniy va alyumokremniy kislotalari tuzi.

Silindr moyi (рус. Цилиндрическое масло, ingl. Steam engine lubricant; cylinder oil) - bug' mashinalarining issiq qismlari uchun mo'ljallangan distillyat va qoldiq neft moylash moyi.

Sintetik kauchuk (рус. Каучук синтетический, ing. Synthetic rubber) - sintetik kauchuk asosan dien va olefinlardan polimerizatsiya orqali olinadi.

Sintetik kauchuk ishlab chiqarish uchun eng keng tarqalgan monomerlar: butadien, izopren, stirol, a-metilstirol, xloropren, izobutilen, etilen, propilen,

Sintetik moylash moyi (рус. Синтетическое смазочное масло, ingl. Synthetic oil) – turli mexanizm va mashinalarda moylovchi moy yoki ishchi suyuqlik sifatida ishlataladigan organik, shu jumladan element-organik birikmalar. Neft xomashyosini kimyoviy qayta ishlash yo'li bilan olinadi. Asosining kimyoviy tarkibi bo'yicha sintetik moylar uglevodorod, efir, poliglikol, ftor- va ftxrloruglerod, kremniyorganik va boshqa turlarga bo'linadi. Yaxshi past va yuqori haroratlari xossalarga ega, metallarga, rezina va bo'yqlarga inertligi, past bug'lanish, va ba'zi sintetik moylar o'tga chidamliligi bilan ajraladi.

Sintetik suyuq yoqilg'i (SSY) (рус. Синтетическое сжиженное топливо, ingl. Synthetic liquid fuel;gas to liquids (GTL)) – Fisher-Tropsh usulida sintez-gazdan olinadigan motor yoqilg'isi («yoqilg'i» va «sintez-gaz» atamalariga qarang).

Sintez-gaz (рус. Синтез-газ, ingl. Synthesis gas) – uglerod oksid CO (40–60 %) va vodorod H₂ (30–50 %) aralashmasi; tabiiy, yo'lidosh yoki zavod gazlarini metanol,

efirlar, sintetik neft va/yoki motor yoqilg'ilariga qayta ishslashning oraliq mahsuloti.

Siqilgan uglevodorod gazi (SUG) (рус. Сжатый углеводородный газ, ingl. Compressing hydrocarbon gas) – asosan metandan iborat bo'lgan 1,6–15,0 MPa gacha siqilgan tozalangan va quritilgan tabiiy gaz. Asosan avtomobil gaz yoqilg'isi sifatida ishlataladi.

Siqiluvchanlik koeffitsiyenti (рус. Коэффициент сжимаемости, ingl. Compressibility factor) - bosim bir birlikka (ΔP) o'zgarganda neft hajmining qancha o'zgarishini (ΔV) ko'r-satuvchi kattalikkaytildi. Siqiluvchanlik koeffitsienti, shuningdek, neftning taranglik xususiyatlarini ham o'z ichigaolgan. Bu koeffitsientga, ayniqsa, neftda erigan gaz miqdori yuqori ta'sir ko'rsatadi. Agar neftda yengil karbonsuvchil gazlar ko'proq erigan bo'lsa siqiluvchanlik koeffitsienti juda katta qiymatga ega bo'ladi ($1,4 \cdot 10^{-2}$ MPa⁻¹) va neftda erigan gazlar juda kam bo'lsa, siqiluvchanlik koeffitsienti juda kichik ($4 \cdot 10^{-4}$ MPa⁻¹) bo'ladi. Siqiluvchanlik koeffitsienti haroratga to'g'ri va bosimga teskari proporsionaldir.

Sirt faol moddalar (рус. Поверхностно-активные вещества, ingl.

Surfactants) - Fazalar ajralish yuzasida to'planib, sirt tarangligini pasayishiga olib keladigan kimyoviy birikmalar.

Sirt faollik (рус. Поверхностная активность, ing. Surface activity) - moddaning fazalar ajralish chegarasida sirt tarangligini kamaytirish qobiliyati C nolga yaqinlashganda sirt faol moddalarning kontsentratsiyasiga nisbatan hosilaviy.sirt tarangligidir.

Sisterna (рус. Цистерна, ing. Tank) - suytirilgan gaz va neft mahsulotlari tashiladigan va saqlanadigan metaldan tayyorlangan juda katta sig'im. Neft va uning mahsulotlarini tashishda, sig'imi 60 m³ va 120 m³ bo'lgan temir yo'l sisternalari, shuningdek sig'i mi 3-30 m³ ga teng avtomobil S. lari qo'llaniladi. Avtomobil yoki temir yo'l vagoni shassisiga o'rnatilgan S.lar quyadigan germetik lyuk to'kadigan moslama asbob-anjomlari va saqlash klapani bilan jihozlangan.

Sizot suvlari (рус. Сизотные воды, ing. Sittie water) - yer yuzasidan pastda birinchi suv o'tkazmas qatlam ustida joylashgan, dastlabki doimiy suvli gorizontdagi yer osti suvleri.

Skrubberlar (рус. Скрубы, ing. Scrubbers) - og'ir zarrachalardan gaz oqimlarini

nam tozalash va gazni sovitish uchun jihozlar.

Slanets (рус. Сланец, ingl. Slate; shale) - tarkibiy minerallarning yo'naltirilgan joylashuviga va ingichka plastinkalar yoki plitkalarga maydalanish xususiyatiga ega bo'lgan tog' jinsi. Yonuvchan slanest gazga haydash uchun xom-ashyo va qattiq yoqilg'i bo'lib hisoblanadi.

Sorbent (рус. Сорбент, ing. Sorbent) - gazlar, bug'lar va erigan moddalarni yutib olish uchun q'llaniladigan qattiq moddalar yoki suyuqliklar. O'zining butun hajmi bo'yicha gaz va bug'larni yutib oladigan suyuq (kamroq holatlarda qattiq) sorbentlar absorbentlar deb ataladi. O'zining sirtida yutib olinadigan gaz, bug' va erigan moddalarni konstentrlovchi qattiq sorbentlar adsorbentlar deb ataladi.

Sorbsiya (рус. Сорбция, ing. Sorption) - erkin gaz, suyuqlik yoki suyuq moddalarda erigan qattiq yoki suyuqlikning yutilishi.

Sovitish moyi (рус. Охлаждающее масло, ingl. Ammonia oil; compressor oil) - sovitish mashinalarining kompressorlari uchunneft va sintetik moylash moyi

Sovituvchi agent (рус. Охлаждающий агент, ing. Cooling agent) - sovituvchi agent sifatida ishlataladigan modda,

shuningdek sovitish mashinasing ishchi moddasi.

Sovutish (рус. Охлаждение, ing. Cooling) - moddaning agregat holati va kimyoviy tarkibini o'zgarishi bilan boradigan, haroratini pasaytirish uchun undan issiqlikni chiqarish jarayoni.

Sovutish samarasi (рус. Эффект охлаждения, ing. Cooling effect) - burg' qudug'ida ochilgan qatlamlar qarshisidagi haroratning kamayishi. Gazli qatlamlar burg' quduqlari bilann ochilganda ulardan chiqayotgan gaz tez kengayib qatlam haroratini kamaytiradi. Bu hodisani drossel, Djoul-Tompson effektlari deb ham ataladi. S.e. termometriya usuli bilan gaz qatlamlarini ajratish imkonini beradi.

Stabilizasiya (рус. Стабилизация, ing. Stabilization) - neft, gaz kondensati va neft mahsulotlaridan uglevodorodlar C₁-C₄ chiqarilishi.

Stabilizat (рус. Стабилизат, ingl. Stabilizate) - tarkibidan uglevodorodlar C₁-C₄ va boshqa past qaynar aralashmalarni yo'qotish jarayonidan qoladiganneft, gazo-kondensat vaneft mahsulotlari.

Statik sath (рус. Уровень статический, ing. The level of static) - qatlam ochilgandan keyin quduqda qatlam suyuqlik o'rnatilgan sath. Statik sath nisbiy yoki mutlaq balandlik metrlarida

o'lchanadi. Qatlamning o'tkazuvchanligiga qarab, statik sath o'rnatiladi.

Stratigrafiya usuli (рус. Метод стратиграфии, ing. The method of stratigraphy) - qatlamlanish tartibining ketma-ket, uzlusiz sodir bo'l shiga asoslanib, har bir ostki qatlam undan yuqorida joylashgan qatlamga nisbatan qadimiy hisoblanadi. Bu usul qatlamlarning yotish sharoiti o'zgarmagan holda bo'lgan maydonlarda qo'llaniladi.

Strukturalar geofizikasi (рус. Геофизика структур, ing. Geophysics of structures) - strukturalar geologiyasi masalalari hamda neft, gaz, toshko'mir va boshqa konlarni izlash bilan bog'li bo'lgan razvedka geofizikasi bo'limi.

Strukturalar geologiyasi (рус. Структурная геология, ing. Structural geology) - yer qobig'idagi cho'kindi, magmatik, effuziv va metamorflashgan tog' jinslarining har xil masshtabda va tartibda yotish shakllarini (morphologiyasini) paydo bo'lish sabablarini va rivojlanish tarixini o'rGANADIGAN soha; foydali qazilmalarni qidirish, razvedka qilish va ularni qazib olish munosabati bilan vujudga keladi va rivojlanadi.

Subarteziyan suvlar (рус. Субартезианские воды, ing.

Subartesian water) - burg'lash qudug'ida qatlamning yer yuzasidan ko'tarila olmaydigan bosimli suvlar.

Subkapillyarlar (*subkapillyar g'ovaklar*) (рус. Субкапилляры, инг. Subcapillary) - diametri 0,0002 mm va undan kichik g'ovaklar. Suv jinslardagi yoriqlar va g'ovaklar, kapillyar devorlarining molekulyar tortishish kuchini enga oladigan kuchli gidrostatik bosim ta'siridagi singiy olishi mumkin.

Suqma nasos (рус. Вставной насос, инг. Plug-in pump) - silindri plunjer va klapan bilan yig'ilib, shtangalar birikmasida tushiriladigan va ko'tariladigan (nasos, kompressor quvurlari o'z joyida o'zgarmay qoladigan) nasoslar.

Suspenziya (рус. Суспензия, инг. Suspension) - qattiq dispers faza va suyuq dispersion muhitli dispers tizim (zarrachalar o'lchami 10^{-6} mdan ortiq)

Suv haydash (рус. Заводнение, инг. Flooding) - qatlam neft beruvchanligini oshirish usullaridan biri. Haydovchi quduqlar orqali qatlamga suv yoki boshqa suyuqlik haydalganda u qatlamdan qazib oluvchi quduqqa neftni siqib chiqaradi. Suv haydashning bir necha turlari mavjud: Chegara ichidan, chegara

tashqarisidan, chegara bo'ylab, maydon bo'ylab va h.k.

Suvda gazning eruvchanligi (рус. Растворимость газа в воде, инг. Solubility of gas in water) - suv bilan tutashgan gazning unda erish qobiliyati. Neft-gazli yotqizilardagi suvlarda uglevodorodlar yaxshi eriydi. Birgina erigan metan gazi miqdori boshqa erigan hamma gazlar miqdori yig'indisidan ko'p bo'ladi.

Suvdag'i muallaq moddalar (рус. Взвешенные вещества воды, инг. Suspended solids of water) - 0.5-1 litr suv probirkaga quyilib, biroz silkitiladi, so'ngra og'irligi ma'lum bo'lgan tigelning g'ovak (suzgich)li tubidan o'tkaziladi. Muallaq moddalar tigelda qoladi. Tigel 105°S haroratda qizdiriladi, og'irligi qayta aniqlanadi. Tigelning oldingi va keyingi og'irligidagi farq S.m.m. og'irligiga teng bo'ladi.

Suv-havo omili (рус. Фактор водовоздушный, инг. Water-air factor) - namli va yuqori namli yonish jarayonini amalga oshirishda qatlamga haydalayotgan suv va havoning normal hajmlarining nisbati.

Suvlangan quduq (рус. Обводненная скважина, инг. Drowned well) - olinayotgan mahsulotning suvlanganligi yuqori qiymatda yetgan va uning

o'sishi sekinlashgan davrga kirgan chiqaruvchi quduq.

Suvlar qattiqligi (рус. Жесткость воды, ing. Water hardness) - erigan Ca va Mg tuzlari miqdoriga ko'ra suvning sifati. Umumiy va vaqtinchalik yoki doimiy va muvaqqat qattiqlik turlari mavjud.

Suv-neft omili (рус. Фактор водонефтяной, ing. Oil-water factor) - neft va suv olishning istalgan kuni uchun ishlatalish ob'yektidan olingan suv va neft yig'ndisining nisbati (hal qila-yotgan vazifaga bog'liq ravishda yer ustida yoki qatlama sharoitida aniqlanadi).

Suv-neft tutash yuzasi (рус. Водонефтяной контакт, ing. Oil-water contact) - neftli qatlamlarda neft va suvni ajratuvchi yuza. S.t.yu. odatda gorizontal, ayrim hollarda bir oz qiya holatda bo'ladi. Neft uyumining yuqorisidagi qatlama o'zidan suv o'tkazmaydi. S.t.yu. qatlamdagiga neft va erkin suvni ajratuvchi chegara hisoblanadi. Chegara toza neft yuzasiga qanchalik yaqin borsa, neft miqdori qatlamda shunchalik ko'payadi, suv miqdori esa kamayadi. Chegara toza suv yuzasiga yaqinlashsa neft miqdori kamayadi, suv miqdori esa ko'payadi. Kollektorning toza neftli qismidan toza suvli qismiga o'tadigan qismi o'tish zonasini deb

ataladi.

Suv-neftli emulsiya tinishi (рус. Отстаивание водонефтяной эмульсии, ing. Oil-water emulsion sedimentation) - fazalarni ajratish uchun ishlataladigan texnologik operatsiya, ya'ni. Suv-neftli emulsiyasida suvning cho'kishi.

Suvni biologik tozalash (рус. Биологическая очистка воды, ing. Biological water treatment) - mikroorganizmlarning yashash faoliyati ta'sirida organik moddalarning bo'linishi va minerallashishiga asoslagan holda suvni zarasizlantirish usuli.

Suvni tayyorlash (рус. Водоподготовка, ing. Water preparation) - suvni tozalash stansiyalari va boshqa obyektlarda oqova va yuza suvlarni mexanik zarrachalar, temir birikmalari, neftdan tozalash va barqarorlashtirish. Neft qazib chiqarishda qatlama suv haydash maqsadida suvni tayyorlash amalga oshiriladi.

Suvni tozalash (рус. Очистка воды, ing. Water purification) - suvdan turli xildagi yot aralashmalami asosan, mexanik, kimyoviy va biologik usullar bilan ajratib olish. Bulardan tashqari ba'zi hollarda S.t. ning elektrofizikaviy va boshqa usullari ham qo'llaniladi.

Suvning gazga to'yinganligi (рус.

Газонасыщенность воды, ing. Gas saturation of water - 0°S haroratda va 0,1 MPa bosimda 1 ml suvgaga yutiladigan gazning hajmi.

Suvning ishqorliligi (рус. Щелочность воды, ing. The alkalinity of water) - suvning unda kuchsiz kislotalar anionlari, asosan, ko'mir kislotosi anionlari bo'lishiga asoslangan xossa. Bu anionlar gidrolizlanib-ionlarini hosil qiladi.

Suvszlantirish (рус. Обезживание, ing. Deauration) - uglevodorod xom-ashyosi va undan olingan mahsulotlardan suvni ajratib olish.

Suyultirilgan tabiiy gaz (SPG) (рус. Сжиженный природный газ, ing. Liquefied Natural Gas, qisq.- LNG) - asosan metandan iborat bo'lgan suyultirilgan tozalangan va quritilgan tabiiy gaz.

Suyultirilgan tabiiy gaz (SPG) (рус. Сжиженный природный газ, ing. Liquefied natural gas) - asosan metandan iborat bo'lgan suyultirilgan tozalangan va quritilgan tabiiy gaz.

Suyultirilgan uglevodorod (neft) gazi (рус. Сжиженный углеводородный газ, ing. Synthetic liquid fuel) - neft (yo'ldosh) gazda mavjud suyultirilgan propan va butan aralashmasi.

Suyuq parafin (рус. Жидкий парафин, ingl. Liquid paraffin) - asosiy modda tozaligi kamida 99,1–99,5%mass. bo'lgan normal parafin uglevodorodlar $C_{10}H_{22}$ – $C_{20}H_{42}$, qaynab chiqish haroratlari intervali 190–200 dan 300–320 °S gacha bo'ladi.

Suyuqliklardagi elektr toki (рус. Электрический ток в жидкостях, ing. Electric current in liquids) - musbat va manfiy ionlar tufayli sodir bo'ladigan elektr toki (ionli o'tkazuvchanlik). Elektr tokining yo'nalishi tok manbaining musbat qutbidan manfiy qutbiga tomon shartli qabul qilingan.

Suyuqliknini olish sur'ati (рус. Темп отбора жидкости, ing. Liquid withdrawal rate) - ishlatish ob'yektidan (qatlam, uyum, kondan) yillik olingan suyuqlikning uning boshlang'ich olinadigan neft zahirasiga nisbatan foizda ifodalanishi.

Т

Ta'mirlash (рус. Ремонт, ing. Repair) - burg'ilash asbob-uskuna va qurilmalarining ishga yaroqlilagini tiklash uchun o'tkaziladigan tashkiliy va texnik tadbirlar majmui.

Ta'mirlash asbob-uskunalarini (рус. Оборудование для ремонта, ing. The equipment for repair) - burg'ilash mexanizmlarini

ta'mirlashga mo'ljallangan asbob-uskunalar majmui.

Tabiiy bitum (рус. Битумы природные, ing. Natural bitumens) - qattiq, qovushqoq va qovushqoq-plastik holatlarda yer ostida joylashgan birlamchi uglevodorod asosiga ega bo'lgan moddalar.

Tabiiy filtratsiya (рус. Естественная фильтрация, ing. Natural filtration) - tog' jinslari g'ovaklari, bo'shliqlari bo'y lab sizuvchi suvni ifloslantiruchi erimagan moddalardan tozalanishi.

Tabiiy gazlar (рус. Природные газы, ing. Natural gas) - uglevodorodlar va noughlevodorodlar birikmasidan tashkil topgan aralashma. Ular qatlamlarda gaz holatidagi fazada yoki neft va suvda erigan holatda uchraydi, standart sharoitda faqat gaz holatda bo'ladi. Tabiiy gaz va gaz - kondensat konlaridan olinadigan gazlarning umumiy ko'rinishi C_nH_{2n+2} ifodasi bilan aniqlanib, metan gomologlari qatoridan tashkil topadi.

Tabiiy gazning nisbiy zichligi (рус. Относительная плотность природного газа, ing. The relative density of natural gas) - muayyan bosim va haroratda ma'lum hajmdagi gaz massasining normal sharoitda shu hajmdagi quruq havo massasidan necha marta

ko'p yoki kamligini bildiruvchi ko'rsatkich.

Tabiiy neft gazlari (рус. Природные нефтяные газы, ing. Natural petroleum gases) - parafin qatoriga kiruvchi (C_nH_{2n+2}) gazsimon uglevodorodlar aralashmasidan tarkib topgan gazlar. Azot, karbonat kislota, vodorod sulfid va benzin bug'lari aralashgan metan CH_4 (ba'zan 99%gacha), etan C_2H_6 , propan C_3H_8 , butan C_4H_{10} gazlari kiradi.

Tabiiy rejim (рус. Естественный режим, ing. Natural mode) - neft (gaz) uyumlarining qatlamga sun'iy ta'sir etmasdan ishlash rejimlari: suv bosimli, gaz bosimli, erigan gaz, tarang yoki tarang-suv bosimli, gravitatsion va aralash (gazli, suv bosimli).

Tabiiy suvning tahlili (рус. Анализ природной воды, ing. Analysis of natural water) - tabiiy suvning kimyoiy va gaz tarkibini, fizikaviy, biologik va texnik xossalalarini aniqlash.

Tabiiy uglevodorodli gazni neftda eruvchanligi (рус. Растворимость природного углеводородного газа в нефти, ing. Solubility of natural hydrocarbon gas in oil) - ma'lum termobarik sharoitlarda tabiiy uglevodorodli gazning qatlamda neft bilan bir xil suyuq tizimni) hosil qilish qobiliyat. T.u.g.n.e.ni neft konlarini ishlashda qatlam neftini

hajm koeffitsientini va neftda erigan gaz miqdorini aniqlash, qatlamga gaz haydash vazifalarini hal etish, qatlam energiyasini baholash, quduqlarni texnologik ishlatish rejimini belgilash va b. uchun ahamiyatli.

Tal blok (рус. Талевый блок, ing. Traveling block) - polispast mexanizmining harakatchan qismi bo'lib, tal kanati yordamida kronblokka osilgan bo'ladi. Burg'ilash qurilmadarida T.b.ining ikki: shamlarni qo'lda va osma avtomatik elevator yordamida joylashtiriladigan turlaridan foydalaniladi. Tal blokning yuk ko'tarish imkoniyati chuqur quduq qazilganda 300-400 t, kolonkali burg'ilash uchun 10, 12, 20, 25 va 35 t. teng.

Tal tizimi (рус. Талевая система, ing. Tackle system) - quduq ichiga burg'ilash quvurlar hamda boshqa asbob uskunalarni tushirish va ko'tarish, mustahkamlovchi quvurlarni quduqiga tushirish ishlari, quduq tubidagi burg'iga yuk uzatish kabi jarayonlarni amalga oshiradigan tizim. U kranblok, tal bloki, tal arqoni va ko'tarish ilgakidan tashkil topgan.

Tamponaj (рус. Тампонаж, ing. Tamping) - sement yoki boshqa bog'lovchi suv o'tkazmaydigan moddalar yordamida quduq bilan ochilgan suv va neft qatlamlari va gorizontlarni ajratish. Mustah-

kamlovchi quvurlariga ega bo'lgan ishlatish va boshqa quduqlarda quvur orti qismi sementlanadi.

Tanker (рус. Танкер, ing. Tanker) - suyuqlik quyiladigan kema. Yuk sisternalari (tankerlar)da suyuq yoki yarim suyuq yuk (neft, benzin, suyultirilgan gaz, moy-yog' mahsulotlari va b.) tashiladi. T.ga suyuq mahsulot berk quvur uzatgich yordamida quyiladi, kema esa nasoslar yordamida bo'shatiladi. T. 500 ming tonnagacha yuk ko'tara oladi.

Tarkibning doimiylik qonuni (рус. Закон константы содержания, ing. Law of constant content) - har qanday sof modda qayerda va qanday usul bilan olinishidan qat'iy nazar bir xil o'zgarmas tarkibga ega bo'ladi.

Tartanlash (рус. Тартание, ing. Bailing) - porshenli yoki shompol, odatda, kichik diametrli va chuqur quduqlarda ishlatiladi. Diametri quvur diametridan bir oz kichikroq porshen klapan bilan yuqoriga va pastga harakat qiladi. Porshen tushirilganda, klapan suyuqlik qarshiligi bilan ochiladi.

Tashuvchi (рус. Носитель, ing. Bearer) - Ko'pincha katalizatorlar g'ovak materiallar (moddalar) yuzasiga surtilgan (yojilgan) holda qo'llaniladi. Bunday g'ovak moddalar katalizator yoyuvchilari yoki tregerlar deyiladi.

Tayanch burg'ilash qudug'i (рус. Опорная буровая скважина, анг. Reference drilling well) - maydonini geologik tuzilishi va yirik geostrukturalarning gidrogeologik va geokimyoviy xususiyatlarini o'rganish, neft-gaz hosil bo'lishi va to'planishi uchun qulay yotqiziqlar majmuasining tarqalish qonuniyatlarini aniqlash, neft-gazlilik miqdorini baholash va izlov-ishlarining istiqbolli yo'naliшини tanlash maqsadida qaziladigan burg'ilash qudug'i. T.b.k yaxshi ifodalangan strukturalarda poydevorgacha, agar poydevor katta chuqurlikda bo'lsa, burg'ilash uskunasi imkoniyatiga qarab burg'ilanadi. Bunday quduqlarda geologik-geofizik tadqiqotlari olib boriladi.

Tebranma seysmogramma (рус. Вибросейсмограмма, анг. Vibroseismogram) - tebranma seysmik usulda seysmopriemniklar orqali seysmik to'lqinlar qayd qili-nadigan diagramma. Murakkab to'lqinlarni normal seysmogramma holatiga keltirish uchun ular oldindan tanlangan etalon signal bilan taqqoslanadi. T.s. yozuvining uzunligi Svib-signal va eng chuqurlikdagi izlanayotgan maqsadli to'lqinni qabul qilish uchun ketgan ikkilamchi vaqt yig'indisiga teng bo'ladi.

Tebranma seysmorazvedka (рус.

Вибросейсморазведка, анг. Vibroseismic exploration) - seysmik usul. T.s. tebratish manbai (vibrator)dan foydalanib, elastik tebranishlar hosil qiladi. Vibrator dan tarqalgan to'lqin geologik kesimdag'i tayanch gorizont (qatlam)lardan qaytadi. Signalning so'nishi tufayli uning amplitudasi va spektri o'zgaradi. Bu signal vaqt bo'yicha siljigan, qaytgan to'lqinlardan va shov-qindan iborat. Olingan tebranma seysmogrammalar korrelyator yordamida oddiy seysmik yozuvga aylantiriladi. T.s. o'ta iqtisodiy va samarali bo'lib, burg' quduqlarni burg'ilash va portlatish moddalaridan foydalanish zarur emas. SHuning uchun T.s. ishlarini olib borish xavfsiz.

Tebratma dastgoh (рус. Станок-качалка, анг. Conventional pumping unit, pumping unit, rocker-machine) - neft quduqlarini mexanizatsiyalashgan ishlatishda chuqurlik nasosini ishga tushirish mexanizmi. Chuqur nasos plunjeringining ilgari-lanma-qaytma harakatlaniishi shtanga va shtok orqali uzatiladi.

Tektonika (рус. Тектоника, анг. Tectonics) - yer qobig'ining harakatlari, ularning sabablari, namoyonlanish shakllari (tuzilish, geologik jismlar shakllari), harakat tarixi va boshqalar, yer

qobig'ining harakatlari haqidagi fan.

Teskari ta'sirli gidrozarbalagich (рус. Гидроударник обратного действия, ing. Reverse action water hammer) - zarbalagichning tezlanishi va uning ishchi yurishi bo'yicha zarbasi siqiq purjina energiyasi va zarbalagich mas-sasining og'irligi ta'sirida vujudga keladi. Gidravlik zarba esa zarbalagichni ko'tarishda va purjina kuchi bilan qisilganda foydalaniladi.

Texnik suv (рус. Техническая вода, ing. Technical water) - xalq xo'jaligining barcha sohalar, shu jumladan sanoat ishlab chiqarishida foydalanish uchun yaroqli bo'lgan, ammo ichimlik maqsadlarida foydalanilmaydigan suv.

Texnik suyuqlik (рус. Техническая жидкость, ingl. Technical liquid) - mexanizmning ishchi funksiyalarni bajarishiga ko'maklashuvchi past va o'rtacha qovushqoq neft va sintetik suyuqlik (amortizator, muzlanishga qarshi, yuvuvchi va boshq.).

Texnik uglerod (рус. Технический углерод, ingl. Technical carbon) - uglevodorodlarning noto'liq yonishi yoki termik parchalanishining dispers uglerodli mahsuloti blib, solishtirma sirti 10 dan 300 m²/g gacha sferasimon qora rangdag'i

zarrachalardan iborat. Shina, lak-bo'yoq, poligrafiya va sanoatning boshqa sohalarida faol to'ldiruvchi va qora pigment sifatida ishlatalidi. Eskirgan nomi - qurum.

Texnik uglerod (рус. Технический углерод, ing. Technical carbon) - suyuq yoki gazsimon uglevodorodlar aralashmasini muntazam ravishda yondirib, to'liq yonishni ta'mirlamaydigan ma'lum miqdorda havo ishtirokida olingan deyarli sof uglerod.

Texnologik moy (рус. Технологическое масло, ingl. Annealing oil; hardening oil; heat-treatmentoil) - texnologik jarayonda, masalan rezina va rezina texnik buyumlarini, sintetik kauchuklarni, kimyoviy tolalarni ishlab chiqarishda, metallarni toplashda, gaz va havoni tozalashda, rezina aralashmalarni yumshatishda va boshq. Ishlatiladigan neft moyi.

Texnologik sxema (рус. Технологическая схема, ingl. Technological scheme) - xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar yoki tayyor mahsulotlar olish, ishlov berish yoki qayta ishlash uchun mo'ljallangan o'zaro bog'langan jihozlar, qurilmlar va quvurlarning yoki o'zaro bog'langan texnologik qurilmalar majmui.

Texnologiya (рус. Технология, ing. Technology) - sanoatning turli sohalarida, qurilishda va boshq. amalga oshiriladigan xom-ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar yoki tayyor mahsulotlar olish, ishlov berish yoki qayta ishslash usullari va metodlari majmui.

Tezkor metodlar (рус. Экспресс методы, ing. Express methods) - tajriba natijalarini, neft va gaz konlarini ishslash ko'rsatgichlarini tez bashorat qilishni ta'minlaydigan metodlar.

Tindirgich (рус. Отстойники, ing. Sedimentation tanks) - odatda turli xil elementlar o'rnatilgan (kirish oqimi taqsimlagichlari, toshib ketadigan qismlar, chiqish oqimlari ustidagi tutqichlar va nasadkalar) bilan silindr simon shakldagi sig'im.

Tindirish (рус. Отстаивание, ing. Settling)- bir xil bo'lmanan suyuq moddalarni (suspenziyalar, emulsiyalar, ko'pik) og'irlilik kuchi ta'sirida tarkibiy qismlarga, butun va taqsimlangan fazalarga ajratish jarayoni.

Tiqin (рус. Прихват, ing. Sticking) - burg'ulash asbobining tog' jinslari bilan birikib qolishidan kelib chiqadigan halokat.

Titratkichlar (рус. Вибраторы, ing. Vibrators) - qisilib qolgan burg'lash uskunalarini bo'shatish

uchun foydalilaniladigan asboblar. Qisilish yuzaroqda sodir bo'lgan bo'lsa, ustki T.dan va titrovchi bolg'alardan foydalilanadi. CHuqr quduqlarda esa «ZV-2» (Popov) tub titratkichi ishlataladi. Tub T.i quduqqa tushiriladi va metchik yordamida qisilib, qolgan quvurlar birikmasi bilan tutashtiriladi. BQB dastlab ajratkich yordamida quvurlar birikmasidan ajratiladi va quduqdan chiqarib olinadi. «ZV-2» titratkichining asosiy bo'lagi tishli mufta hisoblanib, beshta qiyshiq tishlar bilan jihozlangan. BQB minutiga 200-300 marotaba aylanganda muftaning qiyshiq tishlari bir-biriga nisbatan sirpanib, minutiga 1000-1500 oraliqda o'q bo'ylab titrash hosil qiladi. Qisilib qolgan bitta quvurni chiqarib olish uchun 8-10 minut yetarli.

Tizimli siklon (рус. Батарейный циклон, ing. Battery cyclon) - gazlarni mayda zarrachalardan tozalaydigan asbob. Bir necha parallel va ketma-ket ulangan kichik diametri (100-250 mm) siklonlardan iborat. Markazdan qochma kuch ta'sirida qattiq mayda zarrachalar spiralsimon harakat qilayotgan gazning oqimidan devorlarga urilib, T.s.ning pastki qismiga yig'ilib qoladi. Bunker shakldagi T.s.ning ostki qismi konussimon bo'lib,

to'plangan zarrachalarni olib tashlaydigan moslama bilan jihozlangan.

To'g'ri ta'sirli gidrozarbalagich (рус. Гидроударник прямого действия, ing. Direct action water hammer) - quyidagi tartibda ishlaydi. Gidrozarbalagichi tushirish va ko'tarish jarayonida uning pastki qismi shlits bo'linmasiga tushadi. Keyin yuvish eritmalari gidrozarbalagich orqali bermalol o'tib quduq tubidagi shlamni yuvADI, koronkani sovitadi.

To'sqich (рус. Барьер, ing. Barrier) - mashinalar va quvur yuritmalarda gaz, bug' yoki suyuqlik sarfini boshqaradigan detal yoxud qurilma. Mashinalar (nasoslar, kompressorlar, ichki yonuv dvigatellari, havo ufigrichilar)dagi to'sqich-gaz, bug' yoki suyuqliknI taqsimlash yoxud ular sarfini boshqarish mexanizmining qismi.

To'yingan bug' (рус. Насыщенный пар, ing. Steam)-agar idish zich qilib berkitib qo'yilsa, suyuqlikning kamayishi tezda to'xtaydi. Haroratda o'zgarmay turganda, suyuqlik-bug' tizimi issiqlik muvozanati holatiga keladi va bu holatda istagancha uzoq vaqt bo'la oladi. Bug'lanish jarayoni bilan bir vaqtida kondensatsiyalanish ham yuz beradi va bu ikkala jarayon o'rta hisobda, bir-birini

kompensatsiyalaydi. Suyuqlik idishga quyilib, endigina qopqoq yopilgan dastlabki paytda suyuqlik hali bug'lanaveradi va suyuqlik ustida bug' zichligi ortadi. Birok, bu bilan birga suyuqlikka qaytib to'shayotgan molekulalar soni ham ortib boradi. Bug'ning zichligi qanchalikkatta bo'lsa, shunchalikko'p molekula suyuqlikka qaytib to'shadi. Natijada yopiq idishda harorat o'zgarmay turganda bora-bora suyuqlik bilan bug' o'rtasida dinamikmuvozanat qaror topadi. Suyuqlik ichidan biror vaqt ichida chiqib kelayotgan molekulalar soni, o'sha vaqt ichida suyuqlikka qaytib to'shayotgan bug' molekulalari o'rtacha soniga teng bo'ladi.

To'yingan bug' bosimi (рус. Давления насыщенного пара, ing. Pressure pair) - To'yingan bug' siqilsa muvozanat bo'zila boshlaydi, dastlabki vaqtda bug'ning zichligi bir oz ortadi va gazdan suyuqlikka o'tuvchi molekulalar soni, suyuqlikdan gazga o'tuvchi molekulalar sonidan ortiq bo'ladi.

Tog' jinsining absolyut namligi (рус. Абсолютная влажность горных пород, ing. Absolute humidity of rocks) - absolyut quruq ($105-107^{\circ}\text{S}$ da quritilgan) jinsning og'irligiga nisbatan ifodalangan namligi.

Tog' jinslarining teksturasi (рус. Текстура горных пород, англ. The texture of the rocks) - tog' jinslarini tashkil etuvchi mineral donachalarining jinsda fazaviy joylashishi va jinslarning yaxlitlik darajasi.

Tog' jinslarining chidamliligi (mustahkamligi) (рус. Устойчивость горных пород, англ. The stability of rocks) - tog' jinslarining tashqi kuch ta'sirida yemirilishga, qo'porilishga, qulashga ko'rsatadigan qarshilik qobiliyati. Bu esa tog' jinslarining fizika-mekanika xossalariga, struktura va teksturasiga bog'liq.

Tog' jinslarining darzliligi (рус. Трещиноватость горных пород, англ. The fracture of rocks) - tog' jinslaridagi turli o'lchamli va tog' har xil yo'l bilan hosil bo'lgan darzliklar majmuasi. Tektonik nurash, qiyaliq qatlaml-qatlaml bo'lib ko'chish, qatlamlanish va qatlamlarning siljishidan hosil bo'lgan darzliklar ajratiladi. T.j.d. ularning mustahkamligini susaytiradi, burg'ilash jarayonini qiyinlashtiradi, yuvuvchi suyuqlik yutilishini oshiradi, kern chiqish foizini pasaytiradi, quduq devoridagi jins turg'unligini kamaytiradi, jins abrazivligini oshiradi.

Tog' jinslarining fizik - mexanik xossalari (рус. Физико-механические свойства горных пород,

ing. Physical and mechanical properties of rocks) - tog' jinslarining yemirilish jarayonlariga ta'sir qiluvchi fizik-mexanik xossalarini umumlashtiradi. Ulariga tog' jinslarining zichligi, g'ovakligi, strukturasi, teksturasi, qattiligi, abrazivligi, mo'rtligi, elastikligi va boshqalar kiradi.

Tog' jinslarining geologik xossalari (рус. Геологические свойства горных пород, англ. Geological properties of rocks) - ularning mexanik xarakteristikalarining doimiy ta'sir qiluvchi kuchlar ostida o'zgarishiga aytildi. Bu o'zgarish Krip hodisasi bilan harakterlanadi.

